

GANIYEVA

MUZEYSHUNOSLIK



TOSHKENT

01%
708.1
G-19

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI


O‘ZBEKISTON BADIIIY AKADEMIYASI

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY
RASSOMCHILIK VA DIZAYN INSTITUTI

CH. X. GANIYEVA

MUZEYSHUNOSLIK

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*



TOSHKENT – 2018

UO‘K 069.01

KBK 79.1я73

G 21

Ch.X. Ganiyeva

Muzeyshunoslik [Matn] //o‘quv qollanma //Ch.X. Ganiyeva
–T.: «Barkamol fayz media», 2018, 168 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada muzey ishi tarixi va nazariyasining genезisi va evolutsiyasi, antik va ellinizm davri kolleksiya va kolleksionerlari, gliptoteka, pinokateka, studiola, kunstkamera, Uyg‘onish davri galereya va kabinetlari, jahon muzeylarining rivojlanish tendensiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha mavzular reja asosida keltirib o‘tilgan. Bu mavzularni o‘zlashtirishi orqali talaba, jahon muzeylarining nodir kolleksiyalarini, muzey faoliyatida yangi informatsion texnologiyalarining qo‘llanishini, muzey ekspozitsiyalarini loyihalashning asosiy prinsiplarini, ko‘rgazma faoliyatida kompyuter texnologiyalari bilan ishlashni, muzey ashyolarini upakovka va transportirovka qilishni, muzey fondini ro‘yxatga olish, saqlash va konservatsiya qilish amaliyotini o‘rganishi va ulardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

UO‘K 069.01

KBK 79.1я73

Taqrizchilar:

L.G.Levteyva – tarix fanlari nomzodi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi;

M.S.Muxamedova – K. Bexzod nomidagi MRDI muzeyshunoslik kafedrası dosenti.

ISBN 978-9943-5517-8-7

© Ch.X. Ganiyeva.

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018.

Kirish. “Muzey” tushunchasi

1. Muzey tushunchasi.
2. IKOM faoliyati.
3. “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi faoliyati.

Bugungi kunda muzeylar madaniy merosni saqlash bo‘yicha institut rolini bajarimoqdalar. Muzeylar o‘zlarining ijtimoiy vazifalarini bajarish jarayonida millatlararo aloqalarni, turli xil madaniy urf-odatlar va xalqlarga tayangan holda insoniyatning diniy va madaniy birligini saqlashga qodirdir.

Muzey tushunchasi institut yoki muassasa, inson va uning atrofidagi moddiy va nomoddiy ashyolarni to‘plash, o‘rganish, ekspozitsiyaga qo‘yish uchun loyihalashtirilgan maxsus makon. Asrlar davomida muzeylarning shakli va vazifalari sezilarli darajada o‘zgargan¹.

Muzey tushunchasi, aniqrog‘i, “museyon” insoniyatning madaniy kundalik hayotida ikki yarim ming yil avval paydo bo‘lib, qadimgi yunonlar dastlab museyon deb muzalarni ulug‘lash maqsadida qurilgan ibodatxonalarga aytishgan.

Yunonlar madaniyatini o‘zlashtirish orqali rimliklarning til so‘z boyligiga “museyon” termini qo‘shilib, lotin transkripsiyasida “museum” deb ifodalangan. Muzey deb rimliklarning zakovatli elita qismi majoziy ma’noda o‘zlarining shahar tashqarisidagi dala hovlilarini atashgan.

Dala hovlilarning puxtalik bilan o‘ylangan me’moriy yechimi va undagi amaliy bezaklar, haykalli jihozlar, badiiy to‘plamlar, bularning barchasi ma’budlar, qahramonlar, faylasuflar, donishmandlar va shoirlarning ikkinchi haqiqiy uyining tasavvurini hosil qilar edi. Bu yerda ijod qilish, hayot haqida mushohada yuritish, falsafiy suhbatlar, adabiy mashg‘ulotlar olib borish uchun yoqimli muhit hukm-

¹ *Muzeums 101. Mark Walhimer. Printed in the United States of America, 2015. 5 p.*

ronlik qilar edi. Shuni aytib o'tish kerakki, antik dunyoda "museyon" so'zi hech qachon buyumlar to'plamiga nisbatan qo'llanilmagan².

Muzey so'zi grekcha "mouseum" bo'lib, muzalarga bag'ishlangan degani. Boshqa ma'nosini esa "ruhlantiruvchi" deganidir. Kurator va tashrifchi munosabatlari 2000 yillik tarixni o'z ichiga oladi. Tashrifchilar ma'daniy hordiq uchun muzeyga keladi. Kurator esa tashrifchilar uchun hamma ishni ideal holatda tashkillashtiradi.

Muzeylar o'ziga xos makondir. Shuningdek, muzeylar haqiqat va ishonch tarannum etuvchi maskandir. Uning amaldagi qo'riqchilari hisoblangan kuratorlar muzey xavfsizligini ta'minlash uchun har xil sharoit yaratadi va uning yechimini topadi³.

O'rta asrda bu so'z antik olamning an'analari, institutlari bilan birga unutiladi. Ikkinchi hayotni unga yangi ma'nolarga to'ldirib Uyg'onish davri taqdim etadi. Avval muzey deb antik yodgorliklar to'plami va san'at asarlariga, keyinchalik tabiat olamining namunalari va barcha noyob, narsalarga aytilgan bo'lsa, XVI asming ikkinchi yarmiga kelib "muzey" termini nafaqat buyumlar to'plamiga, balki ular saqlanayotgan, ilmiy o'rganiladigan va namoyish etiladigan binoga nisbatan qo'llaniladi⁴.

XX asrga kelib, insonlarni teng huquqli ilm olishi, aqlga sig'inish va bilimlarni targ'ib qilish kabi imkoniyatlarga urg'u berilishi muzeyni ham yangicha nuqtai nazardan talqin qilishga olib keldi. XX asr boshida yuz bergan inqilobiy voqealar jamiyat hayotining barcha sohalarida o'zgarish yasadi. Dastlab, muzeylar faqat "nozik didlilar" uchun bo'lsa, so'ngra aholining barcha qatlamlari uchun baravar ochiq bo'lib qoldi.

1946-yilda muzey olamida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqea yuz berdi. Amerika Muzeylari Assotsiatsiyasi prezidenti Chonsi Xemlin

² Kiersten F.Latham. *Foundations of Museum studies: evolving system of knowledge*. 2014. USA. 8 p.

³ *Muzeums 101*. Mark Walhimer. Printed in the United States of America. 2015. 7 p.

⁴ Kiersten F.Latham. *Foundations of Museum studies: evolving system of knowledge*. 2014. USA. 12 p.

tashabbusi bilan Parijda asosan IKOM (International Council of Museums) nomi bilan mashhur bo'lgan Muzeylar Xalqaro Tashkiloti tuzildi.

XX asr oxiriga kelib, IKOM imkoniyati chegaralangan odamlarga ko'proq e'tibor qarata boshladi. 1988-yilda Fransiyada YUNESKO fondi bilan hamkorlikda «Muзей va nogironlar» mavzusida birinchi xalqaro konferensiya uyushtirildi. Unda imkoniyatlari chegaralangan tomoshabinlar uchun alohida muzeyda nogironlar aravachasida bema'lol yurish uchun zallar, yuqori qavatlariga ko'tarilish uchun passajirlar lifti, maxsus tayyorlangan xodimlar turli nuqsonlari bor odamlarga, ya'ni karlar va eshitish qobiliyati past bo'lgan tomoshabinlarga belgilar va harakatlar orqali ekskursiyalar o'tishi, ko'rlar uchun predmetlarni his qilishni qo'llash hamda Brayl shriftida axborotni taqdim etish va shunga o'xshash qator qulayliklar yaratish ko'zda tutilgan.

1977-yilda Moskva shahrida o'tgan IKOM Bosh Assambleyasida Xalqaro muzeylar kunini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qarorga muvofiq, 1977-yil 18-maydan buyon har yili Xalqaro muzeylar kuni nishonlanib, shu kuni butun jahonda muzey va galereyalarga kirish bepul bo'ladi⁵. Bayram tadbirlari bir kun yoki bir haftagacha davom etishi mumkin. Avvalambor, ularning nuqtayi nazari quyidagi mohiyatga mos bo'lishi kerak: "Muzeylar insonlar o'rtasida tinchlik va hamkorlik, madaniyatni boyitish va hamjihatlikning rivojlanishida eng muhim madaniy aloqa vositasidir".

Ushbu kunda barcha muzeylar bayramning bosh mavzusi bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshiradilar. Xalqaro muzeylar kuni muzey xodimlarining doimiy tomoshabinlari bilan noana'naviy muhitda uchrashishlariga va yangi auditoriyani jalb qilish uchun ajoyib imkoniyatlarni yaratadi. Buning natijasida muzeylar jamiyat hayotida o'z o'rinlariga ega bo'ladilar.

1992-yilda ilk bor Xalqaro muzeylar kuniga "Muzeylar va atrof-muhit" nomli umumiy mavzu taklif etildi. 1997-yilda birinchi marta

⁵ Ключевые понятия музеологии / Сост. Andre Desvallees u Francois Mairesse. – ИКОМ России, 2012. – 105 с.

Xalqaro muzeylar kunida madaniy merosni noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishga bag'ishlangan rasmiy poster yaratildi⁶.

1997-yilda Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Fanlar akademiyasi, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi hamda muzey xodimlarining hamkorlikda olib borgan faoliyatlari natijasida O'zbekiston muzeylar Kengashi tuzildi va u 1997- yil 17-iyunda YUNESKO tarkibida faoliyat yuritadigan Xalqaro muzeylar Kengashining Ijroiya qo'mitasi tomonidan Xalqaro muzeylar hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi.

Muzeylarni qo'llab-quvvatlash Respublika "O'zbekmuzey" jamg'armasiga, O'zbekiston muzeylar Kengashining Xalqaro muzeylar Kengashi IKOMga a'zo bo'lganligi hisobga olinib, O'zbekiston muzeylari jamoatchilik Kengashiga har taraflama yordam ko'rsatish vazifasi yuklatilgan⁷.

Asosan, muzey jamiyatga xizmat qilishi va uning rivojlanishiga yordam berishi kerak, degan ma'no qabul qilingan.

Xorijiy mutaxassislar fikricha, muzey – favqulodda ancha murakkab tushuncha bo'lib, unga tugal, munozarasiz va hammani qanoatlantiradigan ta'rifni berish qiyin.

Ko'pgina davlatlar qonunchilik yoki o'zlarining milliy tashkilotlari doirasida muzey tushunchasini o'rnatishgan. O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunida muzeyga quyidagicha ta'rif berilgan: "Muzey – muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi"⁸.

⁶ <http://www.icom.museum/imd2012>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martda "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida"gi Qarori. // Xalq so'zi, 1998-yil 6-mart.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 37-38-son, 364-modda.

Bugungi kunda kengroq tan olingan professional muzey tushunchasi Muzeylar Xalqaro kengashi (IKOM)ning 2007-yilda qabul qilingan Nizomiga binoan: “Muzey – bu inson va atrof-muhitning moddiy va nomoddiy dalillarini ta’lim va ma’naviy hordiq chiqarish maqsadlarida to’plash, saqlash, tadqiqot va targ’ibot qiluvchi hamda omma uchun ochiq bo’lgan, jamiyat va uning taraqqiyoti uchun doimiy asosda faoliyat yurituvchi notijorat muassasa”. Bundan 30 yil oldin tasdiqlangan ta’rifda esa: “Muzey – bu inson va atrof-muhitning moddiy dalillarini ta’lim va ma’naviy xordiq chiqarish maqsadlarida to’plash, saqlash, tadqiqot va targ’ibot qiluvchi hamda omma uchun ochiq bo’lgan, jamiyat va uning taraqqiyoti uchun doimiy asosda faoliyat yurituvchi notijorat muassasa” (IKOM, Nizom, 1974)⁹.

Ushbu muzeyga berilgan ikki ta’rif o’rtasida bir qarashda farqini anglash qiyin. 2007-yilda tasdiqlangan Nizomdagi ta’rifga “nomoddiy meros” tushunchasi qo’shilgan. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi urf-odatlarini, o’ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko’nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog’liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa, o’z navbatida, hamjamiyatlar, guruhlar, alohida holatlarda muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan avlodga o’tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o’z tarixiga bog’liq holda yaratiladi va bu ularda o’ziga xoslikni, vorislik tuyg’usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko’maklashadi¹⁰.

⁹ Ключевые понятия музеологии / Сост. Andre Desvallees и Francois Mairesse. – ИКОМ России, 2012. – 105 с.

¹⁰ Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo’yicha xalqaro konvensiya (15-oktyabr, 2003 yil). YUNESKO xalqaro me’yoriy hujjatlari./ O’zbekcha nashrining ma’sul muharriri L.Saidova./ -T.: “Adolat”, 2004,298 b.

Antik davr kolleksiya va kolleksionerlari

1. Insoniyat paydo bo'lganidan buyon hissiyotli, sokral ilg'or ahamiyatga ega buyumlarni yig'ishga bo'lgan qiziqish. Kolleksiya yig'ish fenomenidan antik davrda keng foydalanish. Qadimgi davr kolleksiyalarining muzeylar uchun ahamiyati.

2. Qadimgi Yunonistonda "muzey" tushunchasining insoniyat madaniy faoliyatiga kiritilishi. "Museyon" – muzalarga joy yoki ehsongoh. Museyonlar vazifasining o'zgarishi haqida ma'lumot. Afina Akropolidagi mashhur pinakotekaning tashkil etilishi va faoliyati.

3. Ellinizm davri kolleksiya va kolleksionerlari. Ellinizatsiya jarayonining Sharqiy O'rta Yer dengizida o'tkazilishi va Yunon madaniyatining kirib kelishi. Misrdagi Aleksandriya museyoni va kutubxonasi. Antik dunyoda Ellin podsholari ilk kolleksionerlar sifatida.

4. Qadimgi Rimdagi xususiy va ommaviy to'plamlar. Rimliklarning harbiy yurishlari davrida madaniy yodgorliklarning yig'ilishi. Rim kolleksionerlari to'plamlari. Shaxsiy kolleksionerlikning rivojlanishi natijasida noyob san'at asarlari bozorining vujudga kelishi va faoliyati.

5. Rim ibodatxonalarining boy san'at asarlari, noyob buyumlari, relikviyalari bilan to'ldirilishi. Eramizning birinchi asrida Rimdagi Mir forumi va Vespasian forumining boy badiiy kolleksiyalarining vujudga kelishi. Oktaviyadagi Rimning eng mashhur badiiy to'plamlari va uning ahamiyati. Qadimgi Rimda muzey faoliyatining alohida elementlarining paydo bo'lishi. Ibodatxonalar, ommaviy qurilishlar va ularda saqlanadigan predmetlarning davlat tomonidan nazorat qilinishi.

Antik davr jahon sivilizatsiyasida alohida o'rin tutadi. Yevropa madaniyati tarixida hamda jamiyatning rivojlanishida ilm-fan, adabiyot, san'atning hamma turlari rivojlanishini antik davrsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yunon va lotin tillari ilmiy-siyosiy terminlarda

hozirgacha saqlanib qolgan. Demokratiya va respublika, fuqaro kabi tushunchalarning paydo bo'lishi antik davr bilan bog'liq.

Yuqorida aytib o'tilganidek, "museyon" atamasini birinsi bo'lib yunonlar kiritgan va ilk museyonlar ham Yunonistonda paydo bo'lgan.

Qadimgi Yunonistonda "museyon" atamasi bilan ma'budalar sha'niga e'zozlanadigan maskanlarni aytganlar. Bu maskanlar tabiatning eng go'zal joylarida, bog'u rog'lar ichida qurilgan. Museyonlarning asosiy vazifasi insonlar ibodatlarini amalga oshiradigan maskan bo'lgan. Yunon panteoni tarkibiga 9 ta muza kirgan. Museyonlarda falsafaga ham ahamiyat katta bo'lgan. Eramizdan oldingi IV asrda tashkil etilgan Pifagor maktabi ham museyon deb atalgan.

Museyonlarning keyingi rivojlanishida din va ilm fanning uyg'unlashib ketishini ko'ramiz.

Museyon diniy atama bo'lishiga qaramasdan, bir vaqtning o'zida ilm-fan, adabiyot, san'atkorlar maskani hisoblangan. Nodir buyumlar kolleksiyasi yer yuzida qadimgi antik Yunonistonda paydo bo'ldi. Diniy urf-odatlariga ko'ra, muvaffaqiyatli janglardan keyin yoki bayramlarda ba'zan odamlar o'z havas-istaklari bilan but va sanamlarga sovg'a-salomlar olib kelishgan. Ushbu sovg'a-salomlar vaqt o'tishi bilan ko'payib, badiiy to'plamlarga aylangan va museyonlarning asosiy kolleksiyalarini tashkil etgan. Bunday sovg'alar ko'pincha san'at asarlari, ya'ni haykallar, suratlar, noyob buyumlar, oltin-kumush bezaklar, oltindan ishlangan ro'zg'or buyumlari, amaliy san'at namunalari bo'lgan. Bu nodir buyumlar ehrom kohinlarining nazorati ostida bo'lgan. Ular nafaqat asrash, balki ularni hisob-kitob qilish, ro'yxatga olish kabi ishlarni ham bajarishgan. Kohinlar har bir eksponatning tashqi ko'rinishi, qanday materialdan ishlanganligi, og'irligi to'g'risidagi to'la ma'lumotlardan iborat ro'yxat tuzishgan¹¹.

Museyonda saqlanayotgan buyumlarni yo'qotish yoki yaroqsiz ahvolga keltirish aslo mumkin emas edi. Zero, ma'budlarga qilingan

¹¹ *Introduction to Museology – the European Approach. Verlag Dr. Christian Muller-Strten. 1998. 20 p.*

ehsonlar qiymati jihatidan bebaho hisoblangan va diniy tasavvurlarda mazkur buyumlarga ham muqaddaslik maqomi berishgan. Faqatgina zarur hollardagina ularning o'zni yoki joyi almashtirilib turilgan. Badiiy ahamiyatga ega bo'lmagan predmetlar maxsus yerto'lada saqlangan.

Ellinizm davriga kelib, san'at asarlarini kolleksiya qilish individual va maqsadli ko'rinish oldi. Ilk kolleksionerlar sifatida, odatda, ellinizm monarxlarini misol keltirishadi. Ushbu davrda kolleksiya sifatida qadimiy kitoblarni yig'ish judayam qadrlangan. Ilk kolleksionerlar qadimiy va noyob kitoblarni to'plash uchun o'z boyligini ayamagan. Misrda hukmronlik qilgan ellinizm vakillari Ptolomeylar sulolasi vakillaridir. Eramizning I asri oxirlarida Aleksandriya kutubxonasi fondida 700 mingdan ortiq papirus kitoblari mavjud edi. Misr hukmdorlari kutubxona fondini ko'paytirish uchun unchalik jon kuydirishmagan. Aleksandriya portiga kelgan har bir kema chuqur tintuvdan o'tkazilib, barcha yozuvli buyumlar, kitoblar hamda papirus qog'oziga tushirilgan hujjatlar olib qo'yilar va kutubxona fondiga topshiriladi. Misr podshohlarining kitoblarga bo'lgan muhabbatini bilgan savdogarlar o'z kemalarida ularning hurmatini qozonish maqsadida sovg'a-salomlar o'rnida ko'pincha turli kitoblar olib kelishardi. Odatda kemalardan tortib olingan kitoblar va boshqa huj-jatlardan nusxalar ko'chirilib, ushbu nusxalar savdogarlarga qaytarib berilib, asl nusxalar esa kutubxona fondiga joylashtiriladi. Ptolomey sulolasi vakillari Afina ko'chalarida Esxil, Sofokl va Evripidlarning qo'lyozmalarini sotib olish maqsadida kezishar ekan, mazkur qo'lyozmalar uchun bor boyliklarini sarflashdan toyishmagan. Ko'pincha, ular qo'lyozmalarni tekinga yangi papirus qog'ozlariga ko'chirtirib, tarixiy ahamiyati katta bo'lgan haqiqiy qo'lyozmalarni o'zlari bilan olib ketishar edi.

Attallarning pergam shohlari ham ishtiyoqi baland bibliofil bo'lishgan. Ularning fondida 200 mingdan oshiq kitoblar mavjud bo'lib, ular, Ptolomeylardan farqli o'laroq, kitoblardan tashqari, turli haykallar va boshqa tasviriy san'at asarlarini ham o'z kolleksiyalari

tarkibiga qo'shishgan. Ular haqiqiy san'at asarlari uchun bor boyligini tikishga tayyor san'at ixlosmandlari bo'lishgan. Rim tomonidan eramizdan oldingi 146-yilda Yunonistonning Korinf shahri bosib olinishi natijasida o'lja sifatida olib kelingan san'at asarlari savdosi vaqtida Attal II Aristidning "Dionis" kartinasi uchun 600 ming dinor pul to'lashni taklif qilgani tarixiy solnomalarda qayd etib qoldirilgan. Rim qo'shini qo'mondoni Lutsio Mummio kartina uchun Attal II tomonidan taklif etilgan bu ulkan mablag' unga sirli tuyuladi va kartinada o'zi tushunmaydigan qandaydir sir borligini taxmin qilib, uni sotish fikridan qaytadi va Attal II ning ko'ndirishga bo'lgan urinishlariga qaramasdan, kartinani sserera ibodatxonasiga tortiq qiladi.

Attalidlar sulolasi vakillari o'z madaniy boyliklari uchun maxsus bino qurishmagan. Yillar davomida yig'ilgan turli haykallar, tasviriy san'at asarlari saroyda, jamoat joylarida va ibodatxonalarda saqlangan. Haykallar kolleksiyasining bir qismi kutubxonada saqlanganligi, qazishma ishlari davomida Gomer, Sapfo, Alkey va Gerodotlarning kutubxona binosi joylashgan hududdan topilganligi bilan izohlanadi. Qazishma ishlari davomida kutubxona binosidan uncha uzoq bo'lmagan hududda Afina ma'budining turli obrazlarda yaratilgan haykallar kolleksiyasi topilgan¹².

Qadimgi qo'lyozmalarda qoldirilgan esdaliklarni o'rgangan arxeolog olimlar Pergamda to'plangan Attalidlar sulolasi kolleksiyasida Kefisodot, Praksitel, Miron va boshqa klassik davr ustalarining asarlari o'rin olganligini aniqlashdi. Shuningdek, Pergam hukmdorlari grek san'ati endigina oyoqqa turayotgan arxaika davrida yaratilgan san'at asarlarini yig'ishga ayniqsa o'zgacha ishtiyoq bilan yondoshishgan. Tarixiy qo'lyozmalarda yozilishicha, Attal II saroyi hovlisida Afina Akropolidagi mashhur haykallar namunalari saqlangan, eramizdan oldingi VI asrlarda Bupal tomonidan yaratilgan Xarit haykallari ham namoyish etilgan.

¹² *Introduction to Museology – the European Approach. Verlag Dr. Christian Muller-Strten. 1998, 21 p.*

Pergam kolleksiyasining eng tengsiz eksponati eramizdan oldingi V asrning birinchi choragida Eginlik Onat tomonidan yaratilgan Appolonning mis haykalidir. Tarixchi Pavsaniy tomonidan yozib qoldirilishicha, Appolon haykali o'z mahobati bilan san'at asarlari orasida eng buyuk xazina sifatida qadrlangan. Aynan shu shaharda Afinalik rassom Appolodor tomonidan (eramizdan oldingi V asrning so'nggi choragi) yaratilgan "Chaqmoqdan yengilgan Ayaks" kartinasi ham saqlanganligi, Attal II va uning boshqa sulola vakillari tomonidan san'at asarlarini to'plashdagi mahoratlari va mehnatlari samarasi ulkan bo'lganidan dalolat beradi. Rassom Appolodor antik dunyoda tasviriy san'at asoschisi sifatida ko'rilib, u dunyo tasviriy san'atida ilk bora nur va soya o'yinini bo'yoqlar yordamida tasvirlay olgan buyuk rassom sifatida baholanadi.

Attalidlar sulolasi kolleksiyasining rang-barangligi, ularning nafaqat xohish-istaklari, balki butun grek san'atining barcha namunalarini yig'ishga bo'lgan ishtiyoqlarini ham ko'rsatadi. Agarda biror bir asarning asl nusxasini qo'lga kiritishning iloji bo'lmasa, ular, hech bo'lmasa, shu asarning nusxasini ko'chirib olishga va o'z kolleksiyasiga qo'shishga harakat qilishgan va bunga yaqqol misol qilib fransuz arxeologlari tomonidan Delfada o'tkazilgan qazishma ishlari davomida topilgan ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, Attal II eramizdan oldingi 141–140-yillarda uch nafar rassomni Polignot tomonidan Gomer asarlariga ishlangan suratlarni ko'chirish uchun yollab, ularning ish faoliyatini shaxsan o'zi kuzatuv ostiga olgan.

Ptolomeylar va Attalidlar sulolasi vakillari o'z kolleksiyalarini boyitish yo'lida katta raqobat bilan kurashishgan. Ayrim tarixchilarning taxminlaricha, Ptolomeylarning kolleksiyasi kolleksionerlikning to'g'ri ma'nodagi talqinida emas, balki butun ellinistik olam madaniyatining gegemoniga aylanishga bo'lgan ishtiyoq sababli vujudga kelgan¹³.

¹³ *Introduction to Museology – the European Approach. Verlag Dr. Christian Muller-Strten. 1998., 23 p.*

Aleksandriyada madaniyatning yuksalishida ikki asosiy institut—museyon va kutubxonalar yuqori o‘rin tutgan. Bu muassasalarda yunon ko‘chmanchilarining o‘z yurtlari tarixi, madaniyati va san’atining o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligi yo‘lida ulkan tadqiqot ishlari o‘tkazilgan. Aleksandriya museyonlari xuddi yunon museyonlari tartibida tashkil etilgan bo‘lib, Aleksandr Makedonskiyning ustoz Aristotel tajribasi va tavsiyalari asosida vujudga kelgan. Qadimgi yunon madaniyati bilan aloqalarni attalidlar ham mustahkam ushlagan. Aynan yunon uslubidagi museyonlar va kutubxonalar tashkil etilgan bo‘lsa-da, o‘zining mahobati va ahamiyati jihatidan ptolomeylar tashkil etgan madaniyat markazlaridan ustunligi bo‘lmagan.

Ellinizm davrida kolleksionerlik faoliyati davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan va bu turdagi faoliyat bilan faqatgina hukmdor oila vakillari shug‘ullanishgan. Hali bu davrda shaxsiy kolleksionerlik vujudga kelmagan bo‘lsa-da, aynan shu davrda qo‘shni Rimda shaxsiy kolleksionerlikning ilk kurtaklari paydo bo‘layotgan edi.

Ellin davlatlari bilan bir qatorda Rim davlati o‘z salohiyatini kuchaytirib bordi. Eramizdan oldingi III asrda Rim ham madaniy, ham iqtisodiy jihatdan boy bo‘lgan yunon shaharlari, Janubiy Italiya hamda Sitsiliyadagi shahar-davlatlarni birin-ketin bosib ola boshlaydi. Eramizdan oldingi II asrga kelib, Rim qo‘l ostiga Makedoniya, Bolqon yarim oroli mamlakatlari hamda Pergam podsholigi ham o‘tadi. Eramizdan oldingi 30-yilga kelib Rim qo‘shinlari so‘nggi Ellin davlati hisoblanmish Misrga bostirib kelishadi. Mashhur Rim shoiri Goratsiyning mashhur “Asirga olingan Yunoniston g‘olib Rimni o‘ziga maftun etdi” degan satrlarida ayon bo‘lgan haqiqat shunda ediki, Rim hukmdorlari madaniyat va san’atning qadriga faqatgina Yunonistonni bosib olgachgina, uning boy madaniyati bilan tanishgachgina yeta boshlashdi. O‘ziga ishongan va maqtanchiq rimliklar o‘zlari xohlab-xohlamay buyuk Elladaning boy madaniyatiga mahliyo bo‘lib qolishdi. Adabiyot, san’at, ilm-fan va ta’lim borasida Yunonistondan o‘rnak olishdi.

Sekin-astalik bilan tasviriy san'at asarlari, haykallar, vazalar va boshqa san'at asarlarining nafaqat oddiy ahamiyati, balki badiiy qiymatga ham ega ekanligi, rimliklar ongiga singib bordi. Rimliklarning ilk o'ljasi bo'lgan Tarenta shahrini talagan rim askarlari ilk bora, odamlardan tilla va boshqa qimmatbaho metallardan yasalgan taqinchoqlar, pul hamda uy hayvonlari bilan bir qatorda, turli san'at asarlarini ham olib ketishdi. Ushbu o'ljalar ichida Rim zodagonlari uchun san'at asarlari qadrliroq tuyulganini ko'rgan harbiy sarkardalar endi har bir harbiy yurish chog'ida askarlarga avvalo, san'at asarlarini topishni va ularga ziyon-zahmat yetkazmasdan, Rimga olib kelishni buyurishadi.

Rim tarixchisi Tit Liviyning yozishicha, eramizdan oldingi 212-yilda Sirakuza shahriga bostirib kelgan Rim qo'shini sarkardasi Mark Klavdiy Marsella san'at asarlariga boy Sirakuza shahri ko'chalarini bezab turgan oddiy haykallarni ham o'lja sifatida olib ketishi sababli shahar yalang'och odam qiyofasiga kirib qolgan¹⁴.

Eramizdan oldingi II-I asrlar davomida yunon san'ati namunalari to'xtovsiz Rim tomon oqishda davom etdi. Rimliklar mazkur san'at asarlari bilan o'z saroylarini, uylarini, ibodatxonalari forumlarini bezatishgan. Faqatgina eramizdan oldingi II asrning ikkinchi yarmiga kelibgina, yig'ilgan kolleksiyalarni saqlash uchun maxsus binolar qurila boshlandi. Aynan mana shunday binolarning birinchisi Rim armiyasi qo'mondoni Kvinssetsiliy Metell tomonidan o'zining Makedoniyani bosib olishi sharafiga (er.av 148-y.) qurilgan. Mazkur binoda Metellning barcha harbiy yurishlarida qo'lga kiritilgan san'at asarlari, turli kitoblar va haykallar saqlangan. Aynan shular qatorida haykaltarosh Lisipp tomonidan yasalgan 26 ta bronza haykaldan iborat Aleksandr Makedonskiyning Doro III ustidan eramizdan oldingi 334-yilda Granik daryosi bo'yida qozonilgan g'alabasiga bag'ishlab yaratgan asarlari ham o'rin olgan edi.

¹⁴ *Introduction to Museology – the European Approach. Verlag Dr. Christian Muller-Sirten. 1998., 25 p.*

Harbiy yurishlar davomida yig'ilgan san'at asarlarining aksariyat qismi amaldorlar, zodagonlar va oddiy harbiylarning saroylari va uylaridan o'rin olganligi, shaxsiy kolleksionerlikning ilk kurtaklari sifatida baholanadi. Rimliklarning mazkur harakatlari qadimdan sehrli diyor deya ta'riflangan Yunoniston madaniyatining Rim madaniyatiga ulkan ta'sir o'tkazibgina qolmasdan, insonlarning dunyoqarashi, san'at va madaniyatga bo'lgan e'tiborini keskin o'zgartirdi. Shuningdek, yunon madaniyatining ta'siri ayrim Rim ulamolarining qadimdan saqlanib kelayotgan an'analari buzilayotganligi sababli, qarshilikka ham uchradi.

Rimda san'at faqatgina davlatni ulug'lash uchun vosita vazifasini bajarar, yaratilayotgan asarlar asosan hukmdorlarni sharaflash, ularning harbiy yutuqlarini ko'z-ko'z qilish va harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini xalq ongiga singdirish uchungina yaratilar edi. Harbiy yurishlar natijasida keltirilgan san'at asarlari ham keng jamoatchilik e'tiboriga namoyish etilardi va bu ham urushdagi g'alabalar nashidasi kabi tuyulib, oddiy xalqda vatanparvarlik g'ururining oshishiga xizmat qilardi. Oddiy xalq ushbu san'at asarlarini qo'lga kiritish haqida o'ylamasdi. Chunki ushbu asarlar o'zga din va o'zga xudolarni madh etuvchi oddiy matoh, degan qarashlar vujudga kelgan edi. Ammo shunday bo'lsada, eramizdan oldingi I asrga kelib, kolleksionerlar safiga oddiy xalq vakillari ham qo'shila boshlashdi. Bu davrning eng katta kolleksionerlaridan biri Korneliy Sulla bo'lib, u butun Ellada bo'ylab yurib, san'at asarlarini yig'ishdan toymagan. olimpiya tog'ini piyoda kezib, yo'lida uchragan barcha san'at asarlari va qimmatbaho buyumlarni ustalik bilan qo'lga kiritardi, u ko'pincha oddiy yunon dehqonlaridan "Bu ma'buda haykali menda saqlansa asrlar bo'yi butun saqlanadi, bu buyuk san'at asarini kelajak avlodga faqatgina men yetkaza olaman!" deya, ularni aldab-avrab, ba'zida esa g'irromlik va tadbirkorlik bilan asarlarga ega bo'lardi. Uning izdoshi Mark Skavr eramizdan oldingi 59-yilda Peleponnes (hozirgi Sikione) shahrida Rim davlati xazinasiga uchun o'lpon o'rnida shahardagi barcha

san'at asarlarini yig'ib topshirish shartini qo'yadi. Peleponnes aholisi noiloj ushbu shartga ko'nib, shahardagi jamiki san'at asarlarini uning qo'lga topshirishadi.

Aldov, ustomonlik, shantaj, qo'rqitish, o'g'rilik va bosqinchilik yo'li bilan Sitsiliyadagi eng katta kolleksionerga aylangan Gay Verres edi. Sitseronning yozib qoldirishicha, eramizdan oldingi 70-yillarda Gay Verres butun Janubiy Italiyadagi xonadonlarni bit-talab ko'zdan kechirgan va jamiki san'at asarlarini qo'lga kiritgan. U shu qadar ochko'z ediki, o'zi mehmon bo'lgan xonadondagi san'at asarlarini ham undirishga harakat qilar, mahalliy hukmdorlar bilan til biriktirgan holda, katta o'ljalarni osonlik bilan qo'lga kiritar edi. Messini shahrining eng obro'li odami hisoblanmish Gay Geyning uyidan aldov va shantaj yo'li bilan Miron, Praksitel va Polikletlar-ni asarlaridan iborat yirik kolleksiyani judayam past narx—6500 sestersiyga sotib oladi. U, shuningdek, Sirakuzada mehmon bo'lib turgan Suriya shahzodasi Antioxdan ustomonlik va aldov yo'li bilan qimmatbaho vazalar to'plami hamda qimmatbaho toshlar bilan beza-tilgan Yupiter Kapitoliyskiy ibodatxonasi uchun yaratilgan noyob shamdonni ham qo'lga kiritadi. Tindarida shahridagi Merkuriy haykalini har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, egallab olish maqsadida shahar hokimini yalang'och holda yomg'ir ostida markaziy may-donga bog'lab qo'yishgacha boradi va shahar kengashi boshqa iloji yo'qligidan o'zlarining eng muqaddas ma'budi Merkuriy hayka-lini Verresga berishga majbur bo'ladi. U, hattoki, ko'ziga yaxshi ko'ringan tasvirlarni devorlardan ko'chirtirib olar, eng muqaddas deya qadrlanadigan ibodatxonalarni ham tintuv qilishdan toymasdi. Sitseronning yozishicha, san'at asarlarini yig'ishga bo'lgan ishti-yoqini, Verresning o'zi — ehtiros, do'stlari va yaqinlari — aqldan ozish, oddiy xalq esa — qaroqchilik deb hisoblardi. Lekin, davlat hisobiga topshirilishi lozim bo'lgan boyliklarni o'zlashtirganligi u-chun eramizdan oldingi 43-yilda uning ustidan bo'lib o'tgan sudda Sitseronning nutqidan so'ng Verres quvg'inlikka rozi bo'ladi ammo


shunda ham kolleksiyasining bir qismini o'zi bilan olib ketishga muvaffaq bo'ladi. Shundan so'ng Triumvir Mark Antoniy buyrug'i bilan Verres o'ldiriladi¹⁵.

Bu davrda san'at asarlarini kolleksiya qilish boylik va obro' orttirish ishtiyoqi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, haqiqiy san'at asarlarining qadriga yetadigan hamda san'at asarlari uchun kuch va qudratini namoyish etish fikridan yiroq bo'lganlar ham bor edi. Bular qatorida avvalo, Sitseron va uning yaqin do'sti Attika, davlat arbobi, shoir va qo'mondon Aziniy Pollion, senator va yozuvchi Kichik Pliniylar bor edilar. Kolleksionerlik bilan bir paytning o'zida badiiy asarlar bozori ham rivojlanib, dallollar va ekspertlar ham paydo bo'lishdi. Eramizdan oldingi I asrga kelib, san'at asarlari savdosi kuchayadi. Aukسیونlar va yarmarkalar odatiy tusga kirib, ba'zan bir butun kolleksiyalar to'plami savdolari ham uyushtirib turilardi. San'at asarlari shaharlardagi bozorlarda ham sotilishi odat tusiga kirib, san'at ixlosmandlari yangi san'at asari topish ilinjida shahar-mahallalar, bozorma-bozor kezishni odat qilib olishgandi.

Rimda boshlangan san'atga ixlosmandlik ikki uzoqni ko'zlangan natijani berdi. Birinchisi, san'at asarlaridan nusxa ko'chirish san'ati rivojlanishi natijasida noyob san'at asarlarining umri uzayishiga va bugungi kunimizgacha yetib kelishida katta ahamiyat kasb etdi. Ikkinchisi esa, nusxalar orasidan asl san'at asarlarini aniqlay oladigan ekspertlar, ya'ni san'atshunoslar paydo bo'ldi va ularning kasbiy ahamiyati yuksaldi.

Ilk davrlarda san'atshunos ekspertlar vazifasida harbiy yurishlar oqibatida majburan Rimga keltirilgan yunonistonlik rassom va hunarmandlar bo'lishgan bo'lsa, keyinchalik katta boylik va obro' umidida yunon usta va hunarmandlarining o'zlari Rimga oqib kela boshlashdi. O'zining Gay Verresni "San'at asarlari haqida" deb nomlangan ayblov nutqida Sitseron ikki nafar yunon ekspertlari – aka-uka Tlepolem

¹⁵ Introduction to Museology – the European Approach, Verlag Dr. Christian Müller-Stirten. 1998, 28 p.



va Gieronlarni tilga olgan. Ular kichik Osiyodagi Kibir shahridan chiqqan rassomlar bo'lib, Gay Verres rahnamoligi ostida san'at asarlarini qidirib topish va qo'lga kiritish yo'lida judayam katta jonbozlik ko'rsatishgan. Xalq orasida hatto, "Shu Tlepolem va Gieronga yoqmasinda iloyim!" degan ibora ham asrlar davomida mashhur bo'lib qolganligi, ularning qanchalik sinchkov ekspert bo'lishganligidan dalolat beradi.

Ekspert-san'atshunoslar obrazida ko'pincha nusxa ko'chiruvchilar ham paydo bo'lardi. Ular san'at asarlaridan nusxa ko'chirish uchun usta bo'lish maqsadida san'at asarlarini puxta o'rganishlariga to'g'ri kelardi va o'z-o'zidan an'at asarlari bobida bilimlari va tajribalari oshib borardi.

Ushbu davr kolleksiyalarida san'at asarlaridan tashqari tabiatning g'aroyibotlari ham o'rin olgan edi. Jumladan, Buyuk Pompey Sharqdan qora Eben daraxti namunasini, Imperator Vespasian balzamli tosh, Mark Skavr esa Iudeyadan noma'lum dengiz mahluqining skeletini olib kelgan edi. Ushbu skeletni Andromedaning skeleti deya e'lon qilinishi bilan unga bo'lgan qiziqish shu qadar ortib ketadiki, uni ko'rish uchun odamlar uzoq shaharlardan kelishar edi. Imperator Avgust (er.avv. 27–14-yillar) esa, san'at asarlaridan ko'ra, o'z saroyi va bog'larini Kiprdan qazib olingan g'aroyib va bahaybat hayvonlar suyaklari bilan bezashni xush ko'rgan. Tarixchilarning taxmini-cha, ushbu suyaklar dinozavrlarga tegishli bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Avgustning kolleksiyasidan Sharqdan keltirilgan oltin iplar bilan to'qilgan turli gilamlar, oltin, bronza va kumushdan yasalgan turli vazalarni topish mumkin edi¹⁶.

Eramizdan oldingi I asrga kelib, pinakotekalar villalarning muhim apartamentiga aylanib bordi. Villa sohiblari o'z ota-bobolari suratlari va ulardan qolgan nodir buyumlardan tashqari, o'zlari to'plagan kolleksiyalarini ham saqlashga odatlanishdi va kelgan mehmonlarni avvalo, o'z pinakotekasini tomosha qilishga taklif etish odat tusiga kirdi.

¹⁶ *Introduction to Museology – the European Approach. Verlag Dr. Christian Muller-Strten. 1998. 29 p.*

Vitruviyning mashhur “Me’morchilik haqida” deb nomlangan traktatida yozilishicha (er.avv. I asr o’rtalarida), tasviriy san’at asarlarini tomosha qilish uchun ma’lum masofadan turib yoki ayrim san’at asarlarini esa yaqindan turib tomosha qilinishi lozim. Shuning uchun tasviriy san’at asarlari namoyish etiladigan bino keng, yorug‘ va baland shiftli bo’lishi hamda, bino shunday yoritilishi lozimki, quyosh nurlari san’at asarlariga to’g’ridan-to’g’ri tushmasligi ta’minlanishi kerek degan fikrni bildirgan. Vitruviy quyosh nurlari san’at asarlarida ishlatilgan bo’yoqlarning eng birinchi dushmani deb hisoblagani uchun ushbu xulosaga kelgan.

Vitruviyning tavsiyalariga amal qilgan orator Gortenziy o’z kolleksiyasidan o’rin olgan Kidiyning “Argonavtlar” asari uchun Tuskulandagi villasida alohida pavilion qurdiradi. Tasviriy san’at asarlarini namoyish etishda tilla suvi yuritilgan ramkadan foydalanilib, kartina maxsus yasalgan moslamaga o’rnatilib, namoyishga qo’yilgan.

Sitseron esa o’z bog’ida maxsus me’morchilik g’oyasi asosida yunon faylasuflarining haykallaridan iborat “Faylasuflar bog’i”ni tashkil etgan. Biroq hamma kolleksionerlarda san’at asarlarini namoyish etishda intellektual yondoshuv kuzatilmagan. Davlat va jamoat arboblari hisoblanmish Lukulla, Krassa, Pompey kabilarning kolleksiyalari betartib va mantiqan noto’g’ri tarzda namoyish etilishi, o’zlari kabi to’pori harbiylar nazdida ulkan madaniyat namoyishi hisoblanardi. Ayrim san’at ixlosmandlari esa ularning didsizligidan goho oshkora, goho pinhona kulishar edi.

Imperator Neron davriga kelib, davlat xazinasida to’plangan san’at asarlarini namoyish etish va ulardan zavqlanish uchun alohida saroy qurish tashabbusi chiqadi va eramizning 60-yillarida Rim markazida 100 gektar yer maydonini egallagan va o’z ichiga Fortuna ibodatxonasi, term, nimfey, uzumzorlar, bog’lar, hayvonot bog’ini olgan ulkan saroy qurilib, uning devorlari beton va g’ishtdan urilib, marmar bilan qoplanadi. Ichki devorlari mozaika, turli naqshlar va fil suyagidan qilingan plastinkalar bilan qoplanadi. Saroyini bezash ishlarida oltindan juda ko’p foydalanilgani uchun, u “Oltin saroy” nomini oladi.

Saroyga davlat xazinasidagi eng qimmatbaho va bebaho san'at asarlari joylashtiriladi. Saroy bog'larida haykallar o'rnatilib, juda hashamdor tomoshagoh vujudga keladi. Ushbu saroy va imperator Neron oddiy xalq orasida, ayniqsa, elladaliklar nazdida eng shafqatsiz va adolatsiz hukmdor deb ko'rilar va Rim imperatorlari ichida faqatgina Nerongina xalq tomonidan yaxshi xotirotlar bilan eslanmasdi¹⁷.

69-yilda Rim taxtiga Flaviylar sulolasi kelishi bilan "Oltin saroy" buzib tashlanadi. Uning o'rninga yangi "Avgustlar saroyi" deb nomlangan saroy, amfiteatr, Mira ibodatxonasi, Tit va Trayan termlari quriladi. Ammo Neron yaratgan bog'lar Uyg'onish davriga qadar saqlanib qolinadi.

Imperator Adrian tomonidan qurilgan, maydoni 120 gektardan oshiq bo'lgan, Rim shahri tashqarisida, Tibur daryosi bo'yida qurilgan villa o'zining beqiyosligi va hashamatliligi bilan ajralib turgan. Shahar shovqinidan uzoqda bo'lgan ushbu yerda imperator qabullar uyi, kutubxona va teatr binolari quriladi. Uzumzor va boshqa mevali-manzarali daraxtlardan iborat bog'-rog'lar bunyod etiladi. Villada Platon va Aristotel akademiyalari bebaho kitoblari, Aleksandriya yaqinidagi muqaddas Serapis shahridan keltirilgan san'at asarlari, Erehteyon yaratgan haykallar, Fidiya va Polikletlar haykallari namoyish etilgan edi. Imperator Adrian bor mahorati va mehri bilan san'at asarlarini namoyish uchun shunday joylashtirgan ediki, ushbu villa kichik Elladani eslatar edi.

Bu davrda qurilgan barcha ibodatxonalar, termlar, forumlar va saroylarning ustunlar bilan o'ralgan galereyalari qismi muhim apartamentga aylanib, galereyaning asosiy vazifasi-san'at asarlarini oddiy xalqqa namoyish etish edi. Ammo oddiy xalq ushbu galereyalarni teatr tomoshasi chog'ida yomg'ir yog'ib qolganida pana joy sifatida ko'proq qadrlar edi.

¹⁷ *Introduction to Museology – the European Approach.* Verlag Dr. Christian Muller-Strten. 1998, 30 p.

Eramizdan oldingi 27–23-yillarda imperator Avgust tomonidan Metella galereyasi qayta qurilib, o‘z singlisi Oktaviya nomi bilan atala boshlandi. Ushbu galereyada, shuningdek, kutubxona, maktab, faylasuflar yig‘ilib suhbat quradigan dargoh ham mavjud edi. Bu yerda Rimning eng bebaho san‘at asarlari yig‘ilgan bo‘lib, o‘zining muhtashamligi va badiiy qiymati jihatidan o‘z zamonasining eng obro‘li galereyasi hisoblangan. Bu yerda Venera va Kupidon haykallari, Fespiy va Antifil tasviriy san‘at asarlari namoyish etilgan. Shuningdek, bu maskanda san‘at asarlarini restavratsiya qilish ustaxonasi ham tashkil etilgan bo‘lib, ustaxonada Gay Asiniy Pollion sa‘y-harakatlari bilan bir qancha san‘at asarlari restavratsiya qilingan.

San‘at asarlarini galereyalardan tashqari ibodatxonalarda ham tomosha qilish mumkin edi. Masalan, Baxt ibodatxonasida Rim sarkardasi Lutsiy Mummiy tomonidan yig‘ilgan kolleksiya namoyish etilgan bo‘lib, bebaho san‘at asarlari orasida Praksitel yaratgan san‘at asarlari, jumladan, “Fespiadlar” va “Tespiadlar” haykallar to‘plami ham namoyish etilgan edi.¹⁸

Eramizdan oldingi I asrda Rimning eng boy kolleksiyalaridan biri Kapitoliy oldida qurilgan yangi ibodatxonada joylashtirilgan edi. Ushbu kolleksiyadan o‘rin olgan haykallar, tasviriy san‘at namunalari va boshqa nodir buyumlar ichida, shu jumladan, mashhur afinalik rassom Nikiyning “Liber ota”, “Dionis” asarini, Zevskidning “Bog‘langan Marsiy” asarlarini hamda noyob ma‘bud haykallarini uchratish mumkin edi. Yunonistonlik er.avv. IV–III asrlarda yashab ijod etgan mashhur haykaltaroshlar – Evfranor, Briaksid, Stennid, Piston va Nike-ratlar tomonidan yaratilgan yunon xudolarining betakror haykallari mazkur kolleksiyaning bebaho javohirlari sifatida baholangan.

Dastabki davrda san‘at asarlarining saqlanishiga javobgar shaxlar – ssenzor va edil, ya‘ni zamonaviy til bilan aytganda, omborchi va hisobchilar bo‘lgan. Ular san‘at asarlarning hisobi, saqlanish texni-

¹⁸ *Introduction to Museology – the European Approach. Verlag Dr. Christian Muller-Strten. 1998, 30 p.*

kasi va xavfsizligiga javobgar bo'lishgan. Bunda ssenzorlar san'at asarlarining turi, qiymati va saqlanish o'rnini belgilab, ularning hisobini olib borishgan bo'lishsa, edillar san'at asarlarining xavfsizligini, galereya yoki ibodatxona binosining umumiy ahvolini va barcha xodimlarning o'z vazifalarini qanday bajaryotganliklarini nazorat qilishgan. Keyinchalik, Rim imperatori devonida maxsus lavozim -kuratorlik lavozimi joriy qilinadi. Kuratorlar imperiyaning butun madaniy boyligini, ularning saqlanishi va foydalanilishini nazorat qiluvchi amaldor bo'lib, ssenzor va edillar unga bevosita bo'ysunuvchi xodimlarga aylanishdi.

Xulosa qilib aytganda, antik davrda kolleksiyalar to'plash va kolleksionerlik faoliyatiga ilk tamal toshi qo'yilib, Yevropa va jahon madaniyatida yangi sahifa ochdi. Antik davr kolleksionerlarining jonbozligi natijasida insonlar haqiqiy san'at asarlarining qiymati va qadriga yetishni, san'at asarlaridan madaniy va ma'naviy zavq olishni o'rganishdi. San'atdan estetik qarashlari yuksalishi natijasida butun Rim imperiyasi xalqi jahon miqyosida keng fikrli va dunyoqarashi o'zga bo'lgan ulkan sivilizatsiya – yangi madaniyat yarata oldi.

Yevropada o'rta asrlarda kolleksiya yig'ish

1. O'rta asr xazinalarining saqlash tartiblari.
2. Buyuk Karl davridagi xazinalar.
3. O'rta asrlardagi xususiy kolleksiyalar.

Yevropada o'rta asrlar deganda, juda katta davrni tushunish qabul qilingan, uning xronologik chegaralari tarqoqligi va aniqlanmaganligi uchun an'anaviy ravishda ilmiy bahslar predmeti bo'lib hisoblanib kelinadi. Rim imperiyasining qulagan sanasi – 476-yil o'rta asrlarning quyi chegarasi sifatida shartli ravishda qabul qilingan, zamonaviy tarixnavislikda Yevropada Angliyada burjuaziya inqilobi yuz bergan XVII asr uning yuqori chegarasi sifatida qayd etiladi. Xorijiy tarixchilar XVI-XVII asrlardagi davrni qoida tariqasida yangi davrga mansub deb hisoblashadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, tarixni bunday umumiy davrlarga bo'lish faqat Yevropa jamiyati rivojining asosiy tendensiyalarini o'zida aks ettiradi. Xalqlarning madaniyati va milliy o'ziga xosligi unga o'z o'zgartirishlarini kiritadi. Shu sababli, o'rta asrlar Yevropa tarixiga xronologik jihatdan ikkita bir-biridan tubdan farq qiluvchi madaniy davrlar kiradi. G'arbiy Yevropada XV asrdan XVII asr boshlarigacha bo'lgan davrni tadqiqotchilar madaniy taraqqiyotning mustaqil davri sifatida ajratadilar va uni "Uyg'onish davri" yoki "Renessans" deb ataydilar. Sharqiy Yevropada esa o'rta asrlar madaniyati o'zining hukmronlik mavqeini saqlab qolgan edi.

O'rta asr madaniyatining chuqur diniy mazmunga egaligi uning bosh xususiyati hisoblanadi. U Yevropadagi barcha mamlakatlar va xalqlar uchun umumiy bo'lgan nasroniylik dunyoqarashi ta'siri ostida rivojlandi, unda yagona axloqiy normalar, qadriyatlar va hatti-harakat namunalari shakllandi. Axloq ilohiy ahdga asoslangan va hech qan-

day asoslashni talab qilmaydigan aniq-ravshan narsa sifatida qabul qilinardi. Ilm-fan teologiya (ilohiyotshunoslik) shaklidagina mavjud bo'lib, "Injil" eng asosli va ishonchli ilmiy va falsafiy dalil hisoblanardi. Tabiatshunoslikda umumiy mulohaza yuritish hukmron edi: u davrda kuzatishga va tajribaga amalda e'tibor qaratilmasdi. O'rta asrlar san'ati to'laligicha diniy-cherkov ehtiyojlariga qaratilgandi, o'sha davr me'morchiligini va haykaltaroshligini ko'pincha bejizga "Toshdagi Injil" deb atashmagan. Rang-tasvir ham asosan Injil sujetlari va mavzularini aks ettirardi, unga savodsizlar uchun o'qish kitobi sifatida munosabatda bo'linardi. O'rta asrlar teatri diniy protsessiyalar va misteriyalarni taqdim qilardi, bu davrda avliyolarning hayoti haqidagi hikoyatlar badiiy asarning eng ommabop janri edi.

O'rta asrlarda antik davrning donishmandlik va go'zallik idealari vayron bo'ldi, ayni vaqtda cherkov otalari va ilohiyotchilar doimo inson tafakkuri dunyo tuzilishining ilohiy sirini bila olmasligini ta'kidlashardi. Cherkov antik davrga xos tanaga sig'inishni butunlay rad qildi; uning o'rniga zohidlikka sig'inishni, asketizmni ilgari surdi, u tana haqida emas, balki qalb haqida g'amxo'rlik qilishni talab qildi.

Bu madaniyatda badiiy asarlarning antik to'plamlariga va tarixiy noyob asarlarga o'rin yo'q edi. Go'zallikka va mukammallikka sajda qiluvchi hayotsevar va hissiyotli antik san'at rad qilindi. U hatto o'tgan davr yodgorligi sifatida ham qiziqish uyg'otmadi, chunki o'rta asrlar kishisi uchun tarix nasroniylikning kirib kelishidan boshlangan edi. Qadimiy sig'inish kitoblarida bayon qilingan voqealargina o'tmish tarix hisoblanardi. Ashyo, agar u nasroniylik aqidasi tasdiqlasagina, nasroniylik tarixidagi shaxslar va voqealar bilan bog'liq bo'lsagina yodgorlik hisoblangan.

Ilk o'rta asrlarning alg'ov-dalg'ovli davri antik dunyo badiiy to'plamlarini to'zitib yubordi. Yunonlar va rimliklarning ayrim ijod namunalari, haykaltaroshlik asarlari "iblisning uyasi" deb hisoblovchi diniy fanatiklar qo'lida halok bo'ldi, ayrim asarlar esa sof amaliy mulohazalarning qurboniga aylandi. Bronza haykallarni eritib, undan

tanga quyishdi, marmarni maydalab, kuydirib ohakka, qurilish materiallariga aylantirishdi¹⁹.

O'rta asr kishisi san'at bilan asosan ibodatxonada duchlashardi. Davrga xos bo'lgan savodsizlik shunga yordam berdiki, qavmdoshlarning ko'pchiligi cherkov urf-odatlarining tashqi tomoninigina qabul qilardi. Shu sababli ibodatxonaning moddiy to'kinligi ko'pincha diniy marosimlar buyumlari va interyerning sifatli bajarilganligiga bog'liq bo'lardi. Insonni o'sha paytda yorqin va yaltiroq narsalar o'ziga tortardi. Chunki ular Xudo va ilohiy poklanishning ramzi bo'lmish nur sifatida qabul qilinardi. Shu sababli diniy buyumlarni oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, perlamutra, javohir kabi qimmat va kamyob materiallardan tayyorlashga harakat qilishardi. Diniy marosimlarni amalga oshirishda ishlatiladigan turli idishlarni qoida tariqasida qimmatbaho metallardan tayyorlab qimmatli toshlar bilan bezatishardi, qo'lyozmalar, ayniqsa, Injil qo'lyozmalari uchun oltin va kumushdan g'illoflar (qoplamalar) tayyorlashardi. Diniy marosim liboslarini, ko'pincha, islom mamlakatlaridan yoki Vizantiyadan keltirilgan parcha, duxoba, shoyi kabi qimmatli gazlamalardan tikishardi. Mohir ustalar tomonidan bajarilgan ushbu barcha ishlar amaliy-bezak san'atining oliy namunalari hisoblanib, katta moddiy hamda badiiy qiymatga ega edi. Shu sababli ularni saqlash uchun kuchaytirilgan xavfsizlik choralari talab qilinardi²⁰.

Cherkovlardagi xazinalar oddiy yopiq shkaflarda saqlanishi mumkin edi, ammo ko'pincha ular maxsus xonada saqlanardi. Mehrob yonidagi alohida xona yoki ibodatxonaga tutash boshqa bino, rohibxonalarda esa alohida bino ana shunday joy hisoblanardi. Bu binolarning cherkov-slavyancha nomi riznitsa (**rizaxona**) deb atalardi (riza – cherkov xizmatchilari diniy marosim paytida kiyadigan libos).

¹⁹ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscripciones 1565. 2013. 26 p.*

²⁰ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscripciones 1565. 2013. 28 p.*

G'arbiy Yevropada cherkovlarda xazinalar borligi haqidagi ilk ma'lumotlar VII asrga borib taqaladi, ammo franklar qiroli, keyin imperator bo'lgan Buyuk Karlning (768–814-yillar) taxtga chiqishi bilan ularning qurilishi haqiqiy avj oldi. U Yevropa xalqlarini zabt eta turib, ular o'rtasida nasroniylikni joriy qildi, bu bilan yangi cherkovlar va rohibxonalar paydo bo'lishiga turtki berdi.

Ahli qavmning badallari va hadyalari ibodatxonalardagi xazinalarni to'ldirishning muhim manbalaridan biri bo'lib xizmat qildi. Buyuk Karlning o'zi ham sahovatpeshalikda nom chiqardi, u o'limidan uch oy avval o'z boyliklarining uchdan birini merosxo'rlariga qoldirdi, qolgan boyliklarini esa qirollikdagi 24 abbatlik o'rtasida taqsimladi. Avarlar va arablar bilan bo'lgan janglar vaqtida tortib olingan harbiy o'ljalar ham nasroniylarning xazinalarini to'ldirdi, XI–XIII asrlarda "g'ayridinlar" qo'lidan "Xudoning tobutini tortib olish" maqsadida Sharqqa qilingan salb yurishlari eski xazinalarni to'ldirishning va yangi xazinalar paydo qilishning muhim manbaiga aylandi.

To'rtinchi salb yurishi aytilgan fikrga ajoyib misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tashqi sabablarga ko'ra u o'zining Misrga qarshi yo'nalishini o'zgartirdi va 1204-yilda pravoslavlarining Konstantinopol shahrini bosib oldi, janglar shaharni vayron qilish va uning boyliklarini talash bilan yakunlandi, madaniyat, san'at yodgorliklariga ham, cherkovlardagi muqaddas ashyolarga ham shafqat qilinmadi. Bunda venetsiyaliklar tomonidan olingan harbiy o'lja Venetsiyadagi mashhur San Marko ibodatxonasi xazinasini yaratishga asos bo'ldi. Salbchilar talonchilik bilan olingan boyliklarning o'zlariga tegishli qismini garov tariqasida qarz olish uchun fransuz qiroli muqaddas Lyudovik IXda berdilar. Qirol esa qarzni qaytarishni talab qilmasdan, qimmatbaho boyliklarni Parijda maxsus tiklangan Sen-Shapel ibodatxonasiga joylashtirdi.

Ibodatxonalardagi boyliklar tarkibiga diniy marosim xizmatlarida ishlatiladigan buyumlardan tashqari Bibi Maryam, havoriylar, din yo'lidagi jafokashlar va nasroniylar olamida ehtirom qilinadigan boshqa shaxslar nomi bilan bog'liq yodgorliklar kirardi. Ruhoniylarning liboslari va

ishlatgan buyumlari, ularning hoki o'ralgan matolar, agar ular jafo tortib halok bo'lgan bo'lsa, azoblash va qatl qurollari shular jumlasidandir. Maxsus kumush yoki qo'rg'oshin idishlarda dafn lam-palari moyi saqlanardi. Injil sujetlari tasviri tushirilgan past bo'yli keng qutilarda Falastin zaminining muqaddas tuprog'i asralardi. Ba'zan u yoki bu yodgorliklar bir necha nusxada mavjud bo'lardi, ularning egalari esa o'zidagi raritetning haqiqiyligini tasdiqlashardi. Masalan, Yevropada kamida 29 ta cherkov va rohibxona aynan o'zida Isoning qo'l va oyog'ini xochga qoqishda ishlatilgan mixlar saqlanishini tasdiqlashardi.

Buyuk Karl imperiyasi tarkibidagi rohibxonalardan birida saqlangan nasroniylilik yodgorliklarining namunaviy tarkibi quyidagicha bo'lgan: "Rabbimizning belbog'i, Uning libosi, Uning poyabzali, Uning oxuri, U iordan daryosidan suv olib ichgan idish, Iisus 5 ming kishini beshta non bilan to'ydirganda o'tirgan tosh, U tug'ilganda nur sochgan chiroq, Favor tog'idan keltirilgan yodgorliklar, Bibi Maryamning ... sochi, Uning libosi va palliy, havoriy Pyotrning soqolidan olingan tuk, uning poyabzali va ko'ylagi, uning stoli, avliyo Pavelning stuli, uning libosi..." va hokazo²¹.

Cherkov tomonidan jafokashlar va avliyolar sirasiga kiritilgan kishilarning xoklari, ayniqsa alohida e'zozlangan. Ularga egalik qilish uchun haqiqiy kurash borgan: ularni sotib olishgan, o'g'rilashgan, qismlarga bo'lishgan. Muqaddas xoklar maxsus idishlarga – relikvariylarga solib qo'yilgan, ularni qimmatbaho metallardan, fil suyagidan, yog'ochdan ishlab, qimmatbaho toshlar, naqshlar bilan bezak berilgan. Relikvariylar ikki tomli uy yoki gotik uslubdagi ibodatxona shaklida ishlangan, ba'zan esa xoch, Silindrik idishlar va boshqa diniy ashyolar ko'rinishida ham bo'lgan. Agar asralayotgan noyob yodgorlik-ashyo muqaddas kishi tanasining qismi bo'lsa, bunda relikvariyo qo'l, oyoq, bosh, barmoq shaklida, ya'ni saqlanishi mo'ljallanayotgan narsa shaklida tayyorlangan.

²¹ Барсов Н.И. Реликвии//Христианство: Энциклопедический словарь. М., 1995. Т.2. 467. с.

Gʻarbiy Yevropa cherkovlaridagi toʻplamlarda antik davr ustalarining ijodiga mansub badiiy hunarmandchilik buyumlari sidqidildan asralgan, oʻrta asr ustalari ularning nusxalarini tayyorlashga layoqatli emas edi. Oʻrta asrlarda ularga nisbatan haqiqiy qiziqish mavjud edi, shu sababli ular bizgacha yetib kelgan.

Ibodatxonalardagi toʻplamlarda gʻayrioddiy maʼdanlar, fil tishlari, palma shoxlari, tuyaqush tuxumlari va dunyo tabiatining boshqa namunalari uchrardi. Ularni Muqaddas Yerdan “esdalik” sifatida asosan ziyoratchilar olib kelishgandi. Cherkovlar va rohibxonalar tarixiy arboblarga tegishli boʻlgan xotira ashyolarini ham asrardi. Masalan, maʼlumki, Kiyevdagi Muqaddas Sofiya ibodatxonasida, u 1202-yilda qipchoqlar tomonidan talangunga qadar, birinchi knyazlarning liboslari saqlanardi. Pskov yaqinidagi Pechora rohibxonasidagi rizaxona rus shohlari Ivan IV va Boris Godunovlar shaxsan kundalik ishlatgan xotira ashyolaridan iborat toʻplam bilan ajralib turardi. Reyms shahridagi kafedral sobor tarixiy yodgorliklarning katta xazinasiga ega edi, bu yerda fransuz qirollarining toj regaliyalari saqlanardi.

Cherkovlardagi xazinalarga koʻpincha daydib yuruvchi xudojoʻylar tashrif buyurardi. Chunki ziyoratga borib turish oʻrta asrlar madaniyatiga xos xususiyat edi. Gʻarb cherkovi mahalliy va xorijiy ziyoratgohlarga “qalbni tuzatish uchun” borib turishni shart qilib qoʻygandi, XIII asrdan esa Gʻarbiy Yevropadagi dunyoviy sudlar ham jinoyatchilarni kafforat sifatida ziyoratga borishga hukm qila boshladi. Yuqori martabali shaxslar uchun imtiyozlar berishga yoʻl qoʻyilardi: ular oʻz oʻrinlariga xizmatchini yoki yollangan shaxsni yuborishlari mumkin edi.

Sharqiy Yevropada, jumladan, qadimgi Rusda ziyoratga borish odati nasroniylik qabul qilingan birinchi asrlardayoq urfga kirgan edi. Rus xudojoʻylari nafaqat oʻz Vatanlaridagi “muqaddas joylarga” tashrif buyurishardi, balki Falastinga, Afonga, Moʻjizakor avliyo Nikolayning qoq murdasi saqlanayotgan Italiyaning Bari shahriga ziyoratga borishardi.

Tantanali ibodat kunlarida alohida e'tiborga molik tabarruk ashyolar sajda qilish uchun namoyishga qo'yilardi, xazinalardagi qimmatli diniy buyumlar ibodat marosimida ishlatilardi. San'at ahli qavm-ning ongi va tuyg'ulariga katta ta'sir ko'rsatardi. Ular yaratgan tasviriy timsoldan cherkov, shak-shubhasiz, badiiy ta'bni emas, balki nasroniylik diyonatini tarbiyalash vositasi sifatida foydalanardi.

Tasviriy san'at va haykaltaroshlik asarlarining mafkuraviy va didaktik funksiyasi uzoq vaqt ularning estetik qiymatidan ustunlik qildi. Shunga qaramasdan, ibodatxonalar baribir xudojo'y odamlarda estetik tuyg'uning rivojlanishiga yordam berdi. Chunki diniy idishlar va interyerni bezatib turuvchi san'at asarlari, shak-shubhasiz, davrning badiiy qarashlarini ifodalardi.

Ibodatxonaning go'zalligi va ichki pardoziyning uyg'unligini qalbdan o'tkazgan kishi ayni vaqtda "dunyoning tuzilishini" anglardi, chunki o'rta asrlar ibodatxonalarining arxitekturalari va tasviriy shakllari "savodsizlar uchun o'ziga xos bibliya" edi.

Gap shundaki, ramzlar bilan fikrlash o'rta asrlar mentalligining o'ziga xos qirralaridan biri edi. G'arb nasroniylik cherkovining otalaridan biri Avgustin Blajenniy (354-430) dunyo belgi-ramzlardan va narsalardan iborat deb ta'lim bergan edi. "Narsalar" – bu insonni o'rab turuvchi moddiy predmetlardir, ammo ular ayni vaqtda boshqa g'ayritabiiy va muqaddas narsalarni aks ettiruvchi belgilar hisoblanadi. O'rta asrlardagi tushunchalarga ko'ra, fikrlash – bu narsalarning pinhoni sirini topish demakdir.

Ramziy fikrlash falsafani, teologiyani, tarixiy voqealarni bayon qilishni va umuman, kelajak haqida fikrlashni ajratib turadi. Simvolika diniy va dunyoviy marosimlarga singib ketdi. Tabiat va san'atda, ayniqsa arxitekturalarda ramzlarning katta makoni ko'rindi. Rang, yo'l, shakl oliy ruhiy kategoriyalarni anglatardi va badiiy timsollarning muakkab simvolikasini tashkil qilardi.

Ibodatxonaning har bir me'moriy detali chuqur ramziy ma'noga yog'rilgan edi. U olamning tuzilishi haqida, samoviy tartib haqida

tasavvur uygʻotishi kerak edi. Soborning oʻzi koinot, “Tangrining uyi”, gumbazlari esa osmon qubbasi, peshtoqi “samo darvozasi” sifa-tida qabul qilinardi.

Ibodatxonada nasroniylik bilimlarining barcha tizimi mujassam-lashgandi, undagi haykaltaroshlik va rang–tasvir shukhi inson oʻz kundalik hayotida amal qilishi kerak boʻlgan qarashlar va tushuncha-larni oʻziga qamrab olgandi. Shu bilan birga, ayrim haykallar, ikona-lar, kartinalar ularni oʻrab turgan muhit-makon bilan bogʻliq boʻlib, ularni alohida holda tasavvur qilib boʻlmasdi, aks holda ular chuqur ramziy maʼnoni yoʻqotib qoʻyardi.

Muayyan konsepsiya asosida yaratilgan, maʼlum kodlashtiril-gan axborotni tashuvchi hamda inson ongi va tuygʻulariga taʼsir koʻrsatuvchi bunday ibodatxonadagi makoniy-predmetli muhitni ay-rim tadqiqotchilar muzey ekspozitsiyasining ilk koʻrinishi (“prafor-masi”) deb hisoblashadi.

Dunyoviy xazinalar va xususiy kolleksiya yigʻish

Oʻrta asrlarda dunyoviy hokimiyat ham qimmatbaho bezaklar, qurol-aslahalar, qimmatli jihozlar va hujjatlarni asrash uchun maxsus binolarni barpo etishga kirishdi. Qator Gʻarbiy Yevropa mamlakat-larida qimmatbaho ashyolarning bunday muhofizxonalari “garderob” deb atala boshladi, chunki oʻrta asrlarda bu termin nafaqat “kiyim saqlanadigan joy” maʼnosida, balki juda keng maʼnoda ishlatilardi, “roba” soʻzi barcha mulkka nisbatan qollanilardi.

Ilk oʻrta asrlardagi eng mashhur xazinalardan biri Buyuk Karlga tegishli edi. U katta davlatning yangi poytaxtiga aylangan hozirgi Germaniyaning Axen shaharchasidagi goʻzal ikki qavatli imoratdan iborat mashhur Axen kapellasida joylashgandi. Antik gemmalar, qim-matbaho kitob muqovalari, ipak va parchadan tikilgan liboslar, taroq-lar hamda arabistonlik va vizantiyalik ustalar fil suyagidan yasagan boshqa osori atiqalar, shuningdek, yevropalik hunarmandlar qimmatli

metallardan yaratgan, naqshdor va emallangan amaliy bezak san'ati asarlari, nasroniylik yodgorliklari – bularning hammasi imperator xazinasiidan joy olgan edi²².

Rivojlangan O'rta asrlarda dunyoviy xazinalar o'zining jozibadorligi va boyligi bilan ajralib turardi. Fransuz qiroli Karl V (1364–1380-yillar) xazinasi tarkibiga katta miqdordagi zargarlik buyumlari, tojlar va tilla servizlardan tashqari, quyidagi diniy ashyolar ham kirardi: oltin va kumush xochlar, Bibi Maryam va avliyolarning tilla haykalchalari, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan relikvariylar, ruhoniylarning qimmatbaho kiyim-kechaklari va liturgiya idishlari...

Xorijiy elchixonalar vakillarining ma'lumotlariga ko'ra, Rus podshohlarining Moskvadagi xazinasiga teng keladigan xazina XVI asrda Yevropada yo'q edi. Bu haqida 1599-yilda forsiyalik Don Xuan shunday eslaydi: "Sakkiz kun mobaynida bizga shaharning diqqatga sazovor joylari, ayniqsa, xazina ko'rsatildi, xazina eshigi oldida ikkita sher tasviri turardi: bittasi, menimcha, kumushdan, boshqasi esa oltindan ishlangandi. Xazinada joylashgan boylikni tasavvur qilish ham, tavsiflash ham shunchalar qiyinki, shu sababli ular haqida so'z ochmayman. Shoh liboslarining muhofizxonasi teng darajada mislsiz boylikni ifoda qilardi. Aslahaxona ham shunchalar buyuk va boy ta'minlangandiki, undagi narsalar bilan 20 ming chavandozni qurol-lantirish mumkin edi"²³.

Xazina shakllanishining boshlanishini tadqiqotchilar XIII asrga borib taqashadi, bu paytda Moskva mustaqil markaziy knyazlikning markaziga aylangandi. Undagi narsalar qaram hududlarga soliq solish, o'zaro urushlar vaqtidagi an'anaviy feodal talonchiliklari, O'rdaga to'lanadigan to'lovlarni kamaytirib ko'rsatish evaziga hosil bo'lgandi. Unda Moskvaning yuksalish uchun olib borgan kurashlari

²² *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptions 1565. 2013. 30 p.*

²³ *Малицкий Г.Л. К истории Оружейной палаты Московского Кремля// Государственная Оружейная палата Московского Кремля.-М., 1957. 520-521с.*

bilan bog'liq barcha voqealar ashyoviy aks topgandi. Chunki qo'shib olingan yerlarga va knyazliklarga tegishli barcha qimmatli narsalar Moskvaga tashib keltirilar edi. Kreml ustaxonalaridagi mohir ustalar hukmdorlar xazinasiga uchun ko'plab chiroyli va yuksak didli buyumlarni tayyorlab berishgandi. Ustalar ham chaqirilgan yoki Rus yerining chekka o'lkalaridan majburan keltirilgan bo'lardi. XIX asrning ikkinchi yarmida Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishi tufayli, Moskva hukmdorlarining xazinasiga ko'chib yuruvchi savdogarlardan sotib olingan qimmatli ashyolar va matolar kela boshladi. XVI asrdan xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarning kengayishi bilan bu xazinaning to'lishiga elchilarning sovg'alari katta ulush qo'shdi. Sovg'alar ichida tilla va kumushdan yasalgan idishlar ko'p miqdorni tashkil qilardi.

Xazinadagi boyliklarning ko'payishi yangi bino qurishni taqozo etardi. Shunday qilib, 1485-yilda Arxangelskiy va Blagoveshchenskiy soborlari o'rtasida maxsus bino qurildi va u "Казенный двор" deb ataldi. Unda hokimiyat ramzlari, elchilarning sovg'alari, oltin va kumush idishlar saqlanardi.

San'at asarlari o'z egalariga va tomoshabinlarga huzur bag'ishlash bilan birga, xazinalar o'ziga xos bank vazifasini ham o'tardi. To'plangan boyliklar ba'zan moliyaviy qiyinchiliklar paytida olinardi va ishlatilardi. Bunda metall eritishga jo'natilardi, qimmatbaho toshlar esa qarz olish uchun garovga berilardi. Masalan, fransuz qirollari bu yo'ldan ko'p foydalanishardi. Cherkov xazinasiga nisbatan bunday ekspropriatsiyalar, ayniqsa, Yuz yillik urush vaqtida (1337–1453-yillar) ko'p amalga oshirilgan edi. XVI asrda Rossiyada "nasliy xazina" va "shohlik xazinasiga" tushunchalari o'rtasida tafovut yo'q edi: ayrim narsalar saqlashga olinsa, boshqalari sovg'alar, rohibxonalar va cherkovlarga vaqf, xorijiy elchilarni qabul qilish uchun olinardi.

Shu bilan birga, dunyoviy xazinalardagi hamma narsa ham moliyaviy zahira sifatida qabul qilinmasdi. Shunday noyob narsalar ham bor ediki, ularni har qanday sharoitda ham asrab qolishga harakat qili-

nardi, chunki ular esdalik qiymatiga ega bo'lib, oilaviy-nasliy yodgorlik sifatida avloddan avlodga o'tardi.

"Kolleksiya yig'ish" tushunchasini o'rta asrlar xazinalariga nisbatan shartli ravishda tatbiq etish mumkin. Chunki ulardagi ashyolar tasodifiy va rejasiz to'planib qolgandi. Ular, asosan, urushlar va feodal talonchiliklari paytida o'lja olingan, kelgindi savdogarlardan xarid qilingan, sovg'a sifatida berilgan, buyurtma asosida yasalgan buyumlardan iborat edi. Ammo o'rta asrlarda to'plamlarga ashyolar tasodifiy ravishda emas, balki yig'uvchining didiga, qiziqishlariga va ehtiyojlariga qarab olina boshladi. Lekin bu harakat Uyg'onish davrida to'la kuch to'pladi va imkoniyatlarini ko'rsatdi.

Tarixda antik arxitektura fragmentlarini o'z uyiga to'plagan rimlik Nikolo Kreschenti (XI asr), Rimda maxsus yig'ilgan osori atiqalarini vataniga qaytargan ingliz yepiskopi Genri Vichesterskiyning (XII asr), o'zining osori atiqalar kolleksiyasini barcha xohlovchilarga tarqatgan kardinal Jordano Orsinining (XII asr) nomlari saqlanib qolgan. Muqaddas Rim imperiyasining imperatori Fridrix II Gogenshtaufen (1220–1250-yillar) qadimiy narsalarning katta muxlisi edi, u Lucher (Italiya) shahri yaqinidagi qasrida o'zi yig'gan raritetlarni saqlardi.

Fransuz qirolli Ioanning kichik o'g'li gersog Jan Berriyskiy (1340–1416-yillar) yevropalik yangi xususiy kolleksionerlarning eng yorqin vakili edi. Ehtirosli yig'uvchi va saxovatli metsenat bo'lgan gersog o'z ijtimoiy mavqeyiga va davr ruhiga muvofiq zargarlik buyumlarini, qimmatli toshlarni, chiroyli gilamlarni, qimmatli matolarni, tilla idishlarni, cherkov ashyolarini sotib olgandi. Ammo uning garderoibi akasi qirol Karl V ning garderobidan farqli o'laroq shunchaki qimmatbaho buyumlarni saqlash joyi emas, balki san'atni nozik his qiluvchi va sevuvchi kishining kolleksiyasi edi²⁴.

O'rta asrlar Yevropa madaniyatida cherkov xazinalari va dunyoviy xazinalar nafaqat moddiy qimmatliklarning muhofizxonasi,

²⁴ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscripciones 1565. 2013. 32 p.*

balki xotiraviy, tarixiy va badiiy qiymatga ega bo'lgan ashyolarning to'plami ham edi. O'rta asrlardagi ibodatxonalar va ularning xazinolari ko'pincha keyingi davrlarda muzeylar bajaradigan ishlar sirasiga kiruvchi vazifalarni bajarardi. Chunki ularda davr qadriyatlari tizimida alohida o'rin egallagan va madaniy an'anani berish uchun muhim bo'lgan ashyolar to'plangan va asralgan edi. Nasroniylar yodgorliklari, ikonalarini, haykallarni, cherkov ashyolarini, shuningdek, xotiraviy va tarixiy ahamiyatga molik boshqa ashyolarni to'plash asosida xolisona ravishda muayyan madaniy-ma'rifiy faoliyat amalga oshirilgan. O'rta asr ibodatxonasi dekoratsiyasining o'zi keyingi davrda kolleksiyalarni ekspozitsiya qilish qoidalarini shakllantirishda katta rol o'ynadi.

Dunyoviy xazinalarni yig'ish va undagi boyliklar shundan dalolat beradiki, ular moddiy boyliklarning muhofizxonasi sifatida paydo bo'lgan hamda harbiy va davlat xarajatlarini moliyalashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan. To'plamlarning tarkibi doimiy harakatda bo'lgan: ba'zi narsalar saqlashga olingan, boshqalar sovg'a, sotish, garov, ulush sifatida to'plamdan olingan. Shu bilan birga vaqt o'tishi bilan moddiy qiymatga ega bo'lmagan ashyolar guruhi shakllangan.

O'rta asrlardagi xazinalarda qulay sharoitlarda muzey shakllanishi mumkin bo'lgan "o'zak" yaratilgan. Drezdendagi mashhur "Moviy gumbaz" muzeyi, Moskva Kremlidagi Aslahaxona (Orujeynaya palata) bunga misol bo'la oladi.

Uygʻonish davri kabinet va galereyalari

1. Uygʻonish davri tushunchasi.
2. Uygʻonish davri galereya va kabinetlari ilk galereya va kabinetlarning qanday koʻrinishga ega boʻlganligi:
 - a) kunstkamera;
 - b) myunskamera;
 - d) vunderkamera;
 - e) shatskamera tushunchasi.
3. Renessans xususiy kolleksiyalari.
4. “Muzey” atamasining Renessans davrida qayta tiklanishi.
5. Studiola.

Uygʻonish davri deyilgan madaniy va maʼrifiy tafakkur yuksalish davri hisoblanadi. XIV-XVI asrlarda Gʻarbiy Yevropada bu davr boshlanib, **Renessans** deb atalgan.

Bu masala bilan shugʻullanuvchi olimlar Uygʻonish davrini oʻrta asrlar turgʻunligidan yangi davrga oʻtish bosqichi deb atashgan. Gʻarbiy Yevropada uygʻonish davri oʻz -oʻzidan yuz berib qolmagan, Gʻarbiy Yevropa Uygʻonish davrining asosiy belgilaridan iborat.

1–insonni ulugʻlash, uning isteʼdodi, aqliy mohiyatlarini yuzaga chiqarish;

2–antik davrlar (qadimgi Yunon va Rim madaniyatini tiklash va boyitish).

Ilm-fan sohasida qoʻlga kiritilgan yutuq va buyuk geografik kashfiyotlar odamlarning olam haqidagi taassurotlarini oʻzgartirib yubordi. Ayni paytda madaniy aloqalarni kengayishiga imkon yaratdi. Uygʻonish davrining vatani Italiya boʻldi. Italiyaning boy savdogarlari manufaktura egalari, bankirlar boʻsh vaqtlarini oʻqish va ilm oʻrganish bilan oʻtkazganlar. Ular kundalik hayotlarini chiroyli qilishga, u dunyoning emas, bu dunyoning hayotiy neʼmatlaridan bah-

ramand bo'lishga intilganlar, qolaversa, ular ilm-fan va san'at ravnaqiga homiylik qilganlar. Badavlat kishilar mahobatli binolar qurishni boshlashgan, ularning ichini suratlar, devoriy bezaklar va haykallar bilan bezashgan, noyob san'at asarlarini yig'a boshlashgan.

Renessans davri o'z taraqqiyotini XV-XVI asrlar boshidan kechirgan, ya'ni madaniyat tarixida Uyg'onish deb nom oldi.

Bu iborani Italiyalik rassom va sanatshunos Jorjo Vazari Italiyada uzoq o'rta asrdan so'ng yana qaytadan uyg'onganligi sababli ishlatgan va asosan Jotto ijodiga nisbatan qo'llanilgan edi. Keyinchalik esa keng mazmunni kasb etib, Italiyada, so'ngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan. O'rta asrlar davridan farq qiladigan san'atni ta'riflash uchun qo'llanila boshlagan. Renessans davri o'z taraqqiyotini Italiyada to'liq namoyon etib, qator bosqichlarni boshidan kechirdi. Bu, asosan quydagilardan iborat:

1. Uyg'onish arafasi davri – Protoressans (XIII–XIV asr 2-yarmi).

2. Ilk Uyg'onish davri – Botrachento (bu atama adabiyotlardagi italiyancha atama), (XV asr).

a) Duchento – XIV asr;

b) Trachento – XV asr;

d) Kvatrachento XVI asr;

e) Chinkvechento XVI asrning ikkinchi yarmi.

3. Yuqori Uyg'onish davri (XV asrning 90-yillari, XVI asrning 20–30-yillari)

4. So'nggi Uyg'onish davri (XVI asrning ikkinchi yarmi)

Uyg'onish davri taraqqiyoti hamma davlatlarda bir xil bo'lmagan. Masalan: Germaniyada So'nggi Uyg'onish davri, Niderlandiyada esa Yuqori Uyg'onish davri taraqqiyotini boshidan kechirmagan. Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim bosqich edi. Bu insoniyat shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarish edi. XV asrda Florensiyada yashab ijod etgan san'atkorlar Mozachcho, Donatello, Bruneleski va

ularning izdoshlari o'z ijodlarida Uyg'onish davri san'ati prinsiplarini namoyon etdilar. Ilk Uyg'onish davrida antik san'atga qiziqish yanada ortdi, hayotni chuqur o'rganish asosida san'atkorlar fikr doirasi yanada kengaydi bu davrda ulkan binolar, g'oyat katta gumbazli va qator ustunli sobor, saroy va ibodatxonalar qurildi.

Renessans kolleksionerlari o'zlarining yig'malarini tarqatishda har xil atamalardan foydalanishgan. Bu atamalar ichida eng keng tarqalgani—galereya va kabinet so'zlaridir.

Galereya – bu uzunchoq shakldagi zal bo'lib, uning bir tomonida qator katta oynalar joylashgan. Bu xonaning yorug'ligi, shinamligi va arxitekturaviy qurilishi tomonidan qulayligi, haykaltaroshlik va rassomchilik namunalarini tarqatishda katta rol o'ynagan.

Kabinet – kichik hajmdagi, kvadrat shakldagi xonadan iborat. Bu yerda turli xil noyob ilmiy namunalar va kichik hajmdagi san'at namunalari saqlangan. Renessans davrining ilk bosqichida Lorenzo Medichi Florensiyada haykallar bog'ini barpo etish to'g'risida farmon beradi. XVII asrdan boshlab saroylarning uzun va katta yo'laklarida haykallar va rasmlar qo'yish urfga kirdi. XVI asrdan boshlab saroy-lar qurilishida alohida rasmlar, haykallar, kitoblar va gravyuralar kolleksiyalar joylashadigan xonalar rejalashtirilgan. Shu vaqtdan boshlab galereya so'zi tijorat maqsadida ham ishlatila boshlangan, knyazlik saroylarida badiiy san'at namunalari uchun alohida xonalar tashkil qilingan. Bu xonalarni kabinet deb atay boshlashgan.²⁵

Birinchi kabinet 1797–1799-yillarda V.Brenning loyihasi bo'yicha ishlangan. Bu kabinet markaziy korpusning tantanalar majmuasi yangi taxt zali bilan bog'langan, ilgari bu yerning birinchi qavatida Kolonadasi qurilgan, shu sababli xona loyihasi murakkab simmetrik bo'lmagan loyiha asosida ikkita har xil kenglikdagi arkaga bo'lingan. Kabinetning devorlari barelyef va dekorativ lepkalar bilan bezatilgan,

²⁵ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptiones 1565. 2013. 34 p.*

avval 3 ta allegorik barelyeflar, amorlar, qurbonliklardan iborat figuralar medalyonlarning takrorlanishidan iborat, bo'lgan. Ular Varsha va yaqinidagi Lazenka qo'riqxonasi oranjereyasining eski devorlarini bezaydi. 1803-yildan boshlab bu kabinetlarni 2 ta ajoyib bronza haykaltaroshlik guruxlari bezay boshlaydi. Bular titanlarni mag'lub qilgan Yupiter va shamollarni boshqargan Yunon deb nomlanadi. Bu yerdagi kamerani Berlin va Lyuksemburg zavodlarining chinni vazalari bezaydi.

Hozirgi vaqtda bu yerda qora yog'ochdan qilingan zarli, oynali, shishadan iborat rasmlar qo'yilgan. Avval kabinet deb kichik qutichani yoki ko'p harakatlanuvchi totrmalardan iborat shkafchalarni aytishgan. Ularda turli xil hujjatlar, bezaklar va qimmatbaho buyumlar saqlangan. Bunday konstruksiyada asosan antik tangalar, gemmlar, zargarlik buyumlari, mayda plastinkalar hamda ilmiy namunalarni saqlashgan. Keyinchalik bu xona shu nom bilan atalgan mebellar bilan jihozlanib, kabinet deb atay boshlangan. Nemis tilida kabinet so'ziga sinonim sifatida kamera so'zi ham ishlatilgan. Alohida bu ikki so'z juda kam ishlatilgan. Ular murakkab so'zlar tarkibiga kirib, birinchi qismi yig'malarning xarakteri haqida.

Myunskamera – tanga va medallar saqlovchi saqlovchi kabinet.

Shatskamera – qimmatbaho toshlar va metallardan tayyorlangan buyumlar xazinasi.

Vunderkamera – tabiatda uchraydigan noyob narsalar saqlanadigan kabinet.

Kunstkamera – inson qo'li bilan tayyorlangan yoki tabiat durdonalaridan tayyorlangan san'at namunalari saqlanadigan kabinet.

Bu xonalar orasidagi farq shartli bo'lib, masalan: badiiy ishlangan Nautilus chig'anog'ini vunderkamerada ham kunstkamerada ham uchratish mumkin bo'lgan. Huddi shuni qimmatbaho toshlar bilan bezatilganini ba'zilar kunstkamerada saqlasa, ba'zilar esa shatskamerada saqlagan. Shuningdek, kabinet va galereya tushunchalari av-

valo arxitektura qurilishining tipini ko'rsatib berib, kolleksiya namunalari saqlanishini birinchi navbatda ularning tarkibi va yo'nalishini ko'rsatib bergan.

Masalan: "Antikvariý so'zi orqali antik davr haykaltaroshlik namunalarini va uning ko'rgazma qilinayotgan joyi tushunilgan. "Studiola" deb kolleksiyalar tushunilgan.

Qadimgi grek va rimliklarning renessans madaniyatini ko'rsatuvchi buyuk yaratmalarga antik ideallarning "Ilmiy oromiga qaytishi", rimliklarning villalardagi hayot tarziga taqlid qilishgan. Italiyan aristokratlarining saroylarida, mashhur shaharliklarning uylarida gumanitar mashg'ulotlar uchun alohida xonalar paydo bo'lib, ular bu yerda o'zining bo'sh vaqtlarini qadimgi yozuvchilarning asarlarini o'qish hamda falsafiy mavzularda bahslar olib borish bilan shug'ullanganlar. Boshlang'ich vaqtlarda studiola nomi bilan atalgan kabinetlar o'z ichiga kutubxonalarni olib, estetik tartiblilik bilan farqlangan. Ammo XV asr davomida kolleksionerlikning rivojlanishi bu atamalarning g'oyasiga va yo'nalishiga o'zgartirishlar kiritdi. Ular ichiga badiiy xarakterga ega bo'lgan kolleksiya:

- 1) gemmlar;
- 2) medallar;
- 3) qo'lyozmalar;
- 4) rassomchilik va haykaltaroshlik namunalari kiritilgan.

Kabinetlarda bo'sh vaqtlarda, dam olish paytida qadimgi yozuvchilarning o'qish bilan birga, endi san'at namunalarini tahlil qilish ham udumga kira boshladi. XVII asr oxiridan boshlab kabinetlar Italiyadan so'ng yevropada urfga kirgan. Galereya va kabinetlar avval shaxsiy maqsadda, keyinchalik jamoatchilik xarakteriga ega bo'la boshladi.

Kunstkamera – bu san'at kabineti ma'nosini anglatadi. San'at ma'nosida insonning qo'li bilan yaratilgan nodir namunalar tushuniladi. Lekin bu yerda san'at deganda, faqat inson tomonidan yaratilgan

noyob va nodir, tabiatdan noyob narsalar tushunilgan. Kunstkamera-ning asos bo'lishiga sabab, insoniyatning noyob narsalarga qiziqishi bo'lgan²⁶.

Kunstkamera – nemischa so'z bo'lib, u tarixiy xarakterga ega bo'lgan badiiy sanoat, tabiiy, ilmiy durdonalarning kolleksiyalari nomini hamda ularni saqlash joylarini bildiradi. Bu yerda har xil ajoyibotlar, kam uchraydigan buyumlar, tarixiy shaxsga yoki hodisalarga asoslangan yig'malar yig'ilgan. XVI–XVIII asrlarda kunstkameralar har bir knyaz hovlisining asosiy mulki hisoblangan. Hozirda bu termin qoldirilgan, ilgari kunstkameralar yopilgan yoki har xil muzeylarga tarqatib berilgan.

Kunstkamera ko'rinishida tashkil etilgan ilk ma'lumotlar 1552-yilga tegishli bo'lib, Venada vujudga kelgan va imperator Ferdinnans Gabsburg nomi bilan bog'liq. Drezden kunstkamerasi tashkil etilgan. Saksoniyalik Kultyursi Avgust II rezidensiyasida, yozma ma'lumotlarga qaraganda 1565-yilda Myunxenda ham kunstkamera bo'lgan ekan. Uning asoschisi Albert Vittelsbarg (1550-1579) bo'lgan. Boshqa yana shunday 2 ta kunstkameraning paydo bo'lishi gabsburglar sulolasi bilan bog'liq. Kunstkamerada faqat tabiat namunalari aks etadigan bo'lsa, ularga albatta, ba'zi mamlakat hamda kontinentlardan turli hayvon turlari, gerbariylar olib kelingan. Tabiat namunalari orasidan mamontlarning suyak qismlari, malyuskalarning chig'anoqlari, kokos yong'og'i, turli shaklda qotib qolgan minerallar, yantar va koral, prematlar orasida magiyaga bog'liq buyumlar bo'lishi mumkin²⁷.

Shunday kunstkameradan, masalan, Rossiyada ilk kunstkamera Buyuk Pyotr tomonidan tashkil etilgan bo'lib, u Gollandiyaga birinchi borishidayoq juda ko'p qushlar, baliqlar va qimmatbaho buyumlarni olib kelish bilan boshlangan. Bu kolleksiya anatomik

²⁶ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptiones 1565. 2013. 34 p.*

²⁷ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptiones 1565. 2013. 35 p.*

preparatlar va anamaliyalar bilan birgalikda Moskvadagi “Arxeatr Arisk” dorixonasida saqlangan. 1714-yili bu to‘plam Peterburgga olib kelinib, eski yozgi saroy kutubxonasida kunstkamera tashkil qilinadi. Kunstkamera Pyotr I ning 1716-yilda Peterburgga qilgan safarida yanada boyidi. Gdanskda mineral, nodir toshlar, rakvinalar, Amsterdamda Ryushning anatomik kabinetida spirtida saqlangan hayvonlar, baliqlar, ilonlar, hasharotlarning to‘plamini sotib olgan. 1718-yili Rossiyaning barcha chekkalaridan har xil arxeologik topilmalarini kunstkameraga olib kelish to‘g‘risida farmon chiqardi. 1722-yilda kunstkameraning kutubxonasi bilan birga binosi qurib bitkazildi. Fanlar Akademiyasini ochilishi bilan kunstkamera hamda kutubxona Fanlar Akademiyasiga o‘tdi.

O‘tgan yillar ichida kunstkameraning to‘plamlari akademiyaning turli muzeylariga tarqatildi. Faqatgina Buyuk Pyotr kabineti saqlab qolindi, bu yerda shohning kiyimlari, quroli, jihozlari, shuningdek, uni o‘rab turgan barcha narsalar va uning qo‘li tekkan narsalar: tokarlik buyumlari va dastgoh modellari va boshqalar saqlanadi. 1837-yilda bu to‘plam tartibga keltiriladi. 1843-yilda esa kema modellari kabinetdan Bosh admeralikka beriladi, Pyotrning kitoblarini esa gidrografik depoda saqlash buyuriladi. Nihoyat, 1851-yilda kabinetning barcha buyumlari Ermitajga berilib, unda alohida bo‘lim tashkil etiladi va bu bo‘lim “Buyuk Pyotrning kabinetlari” deb nomlanadi.

Germaniyada san‘at buyumlari bilan bir qatorda ajoyibotlar kolleksiyalari ham yig‘ila boshlagan, ular *vunderkameralar* edi²⁸.

Vunderkamera – bu ajoyibotlar kamerasidir. Bu kamera yig‘malari Germaniyaning Galle Zazle shaharida joylashgan, “Galladagi Frankning muassasasi” nomi bilan yuritiladi. Bu muassasa ko‘rgazmalari Sank-Peterburgdagi Gyote institutida ochilgan. Ko‘rgazma asosini planshetlar, illyustratsion tarkib va nishonlar vunderkamerasiga XVIII asrdagi prinsiplari kiradi. Ko‘rgazma Ros-

²⁸ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg’s inscriptiones 1565. 2013. 37 p.*

siyada taniqli bo'lmagan nemis tarix varaqlari, madaniyati, shu bilan bir vaqtda, kunstkamera va naturkameralarning Galladagi tarkibi va faoliyati haqida ma'lumot beradi. 1688-yilda asos solingan bu kolleksiya Avgust German Frans Muassaenniniki edi. 1995-yil qayta tiklangan bu kamera hamda Frans muassasasi hozirda Borokkning Germaniyadagi ekspozitsiyasi eng to'liq saqlangan kompozitsiya hisoblanadi. Bu muassasa uzoq vaqt davomida ilmiy va ma'naviy maqsadda foydalanilib, yetimlar uyi bilan bog'liq bo'lgan. Kolleksiya ensiklopediya prinsiplariga asoslanib, o'sha vaqtlardagi kunstkameralarga o'xshab quyidagi qismlardan:

- 1) mineral
- 2) rakvina
- 3) zoologik va botanik noyob turlari
- 4) anatomik preparatlar
- 5) tanga
- 6) medallar
- 7) tarixiy buyumlar
- 8) jahon madaniyati durdonalaridan iborat bo'lgan.

Unda juda ko'p miqdorda ilmiy kitoblar, uskunalar, harakatdagi medallar yetimlar tomonidan amaliyotda qo'llangan, ko'rgazma alohida tibbiyot, farmatsevtika va amaliy yo'nalishlardagi fanlarning bog'liqligini ko'rsatadi. Muzey mebellari ham juda katta qiziqish uyg'otadi, chunki uni ishlash uchun ham, eksponat qo'yish uchun ham ishlatga bo'ladi. Vunderkameralar tashkillashtirish tarixi Galladagi fan va sanoat rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Bu kolleksiya tarkibida Hindistondan, Shimoliy Amerikadan, Janubi-sharqiy Osiyodan yig'ilgan, gallalik Lyuterl, missionerlar va savdogarlar olib kelgan eksponatlar bo'lgan. Ko'rgazmaga kelgan tomoshabinlar XVIII asrning Galladagi va Peterburgdagi kunstkameralarini bir-biriga qiyoslashlari mumkin. Ko'rgazma 2004-yildan tomoshabinlar uchun ochilgan.

Myunskamera – bu nishonlar va medallar saqlanadigan xona bo‘lib, shuningdek, bu xonada qadimiy tangalar ham saqlanadi.

Shatskamera – bu qimmatbaho toshlar va metallar saqlanadigan xazina bo‘lib, bu kameralar har bir muzeyda saqlangan²⁹.

Renessans davrida ekospozitsiyalar va terminalogiya muammosi. O‘rta asrlarda burjuaziya namoyandalari tomonidan kolleksiya tuzish namunalari, terminalogiya muammolari paydo bo‘lgan. Ular o‘z kolleksiyalarini qaysi turga kirishidan qat’i nazar, galereya va kabinet deb atay boshlagan. Keyinchalik Renessans davrida boshqa terminlar ishlatila boshlangan. Galereya so‘zi sifatida “*pinokateka*” so‘zi ishlatilgan. Bu vaqtda bu so‘z rassomchilik kolleksiyasi borasida ishlatilgan. Shuningdek, “*garderob*” so‘zi ham ishlatilgan bo‘lib, bu xazina yoki qimmatbaho buyumlar ombori sifatida qo‘llanilgan. XVI asr oxirlarida buyuk Konstant gersogi Kozimo Medichi garderobida qimmatbaho kiyimlar bilan bir qatorda buyuk musavvirlar rasmlari ham saqlangan.

Renessans davri xususiy kolleksiyalariga, XV asrdagi Medichi kolleksiyasi kiradi. Medichi Florensiyani 15 yil boshqargan va u rassomlar va gumanistlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Katta Kozimo Medichidan boshlab (1429-1464) ular antik davr asarlari va boshqa kolleksiyalarni yig‘ib, haykallar va rasmlar buyurtma qilishni boshlagan. 1429-yilga kelib, ularning buyumlari yuz ming floringa teng bo‘lgan. Bu kolleksiya barcha rassomlar va qiziquvchilar uchun bo‘lib, u yerda florensiyalik rassomlar, shuningdek, angliyalik rassom o‘quvchilar ham tahsil olgan. Ular ekospozitsiya asosini tashkil etishgan.

Fasadlarini antik haykallar bilan bezashgan, ochiq havoda arxeologik bog‘ yaratishgan. 1494-yilda kolleksiyalar soni ko‘payadi, shuning sababli shahar tashqarisida muzey tashkil qilish fikri kelib chiqadi. Eng birinchi kolleksiya to‘plami 1550-yil Venadagi imperator Ferde-

²⁹ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptiones 1565. 2013. 38 p.*

nant Gabsburgga tegishli bo'lgan. XVI - XVIII asrlar ikkinchi yarmining eng boy va taniqli to'plami Venger va Bagim imperatori Rudolfo II Gabsburgga tegishli bo'lgan. Uning qiymati o'sha vaqtda juda katta baholangan.

Rimdagi Papa hovlisidagi kolleksiya. Papalar milliy xazinalarini saqlash uchun qayg'urishgan, ular qazilma ishlar yordamida yoki rejasiz topilgan buyumlardir. Kapitoliy tepaligidagi maydon va Belveder villasi hovlisidagi Laokon haykallar guruhi qadimgi Rim vilasi prinsiplari asosida antikvarlar tuzilgan.

Pavel III ning farmoniga asosan Mikelanjelo Kapitoliyni tartibga soldi. Targ'ibotchilik maqsadida Rim imperatorlari haykallari Papaning siyosiy va axloqiy tomonlarini ko'rsatdi. Bu kolleksiyani siyosatchilar, diplomatlar, gumanistlar, arxeologlar va rassomlar ko'rishgan.

XVI asrda Florensiyadagi Medichi kolleksiyasi. 1532-yilda florensiyalik Medichi taxtga chiqib, monarxiya tuzumini o'rnatdi. Medichilar o'z davlatidagi qazilma ishlarini mablag' bilan ta'minlagan. Rim, Yunon, Misr madaniyati namunalari, haykallar, ajoyibotlar, medallar va miniatyuralar shular jumlasidandir.

1559-yili Ufitssi saroyi quriladi. Kozimoning o'g'li Franchesko II Djorjo Vazariga Palasso Vekkioda haykallar majmuasini yaratishni, ya'ni kolleksiyalar va rassomlar haqida studiola tayyorlashni topshirdi. Siyosiy arboblار bu yerga kelib turishar edi. So'ng u binoning ikkinchi qavatini qurishni boshladi. Birinchi qavatida galereya bo'lib, u yerga tomoshabinlar kelar edi. Keyinchalik ko'prik ostiga ikkinchi saroy orasiga qimmatbaho buyumlar kolleksiyasi qo'shiladi. Sakkiz burchakli xonani qimmatbaho buyumlar bilan yasatishgan, o'rtada esa Franchesko II hayoti tasvirlangan Tribuna zali joylashgan.

Mantuanlik Izabella Estening grotto g'ori. Montuan markizasi XVI asr oxirida yashagan. Istanbulning har xil hududlaridan alohida antik san'at namunalari to'plangan, Di Santio Jordjio sur'atlar galereyasi, studiolasi va haykallar kolleksiyasi (bog'dagi grotto) sh-

ular jumlasidan. Bu yerda antik davr san'ati bilan uyg'onish hozirgi davr san'ati tenglashadi. Bu yerda eng yaxshi rassomlar galereyasi tashkil qilinadi.

Venetsiyalik Grimanining haykallar ko'rgazmasi. Venetsiyalik kolleksioner koordinant Domeniko Grimani 1523-yilda arxeologik topilmalar va rasmlardan iborat boy kolleksiyasini yig'di. Haykallar (beshta haykal, o'n oltita byust, o'n ikkita imperator portreti) Venetsiyaga meros qilib qoldirilgan bo'lib, ular yomg'irlar saroyiga qo'yilgan edi. Lekin oradan 50 yil o'tkach, uni bergan egasi haqida unutishdi va ekspozitsiyasini olib qo'yishdi.

Shunda Jovanni jiyani rasmlarini merosxo'ri sifatida o'zini shaxsiy kolleksiyasini Venetsiyaga shart bilan berdi. Bu shart asosida uni katta ko'rgazma qilib ko'rsatishi kerak edi. Kolleksiyada 217 ta haykallar bo'lib, keyinchalik ular San Marko sobori kutubxonasiga qo'yildi va bu antikvariya g'oyalarini rivojlanishida kerakli bosqich bo'lib xizmat qildi.

Fonteblo kolleksiyasi. 1515-yildan - 1547-yilgacha Fransiya podshosi Fransis Polvar o'z davlatini Italiyada qurolmadi va u o'zining madaniy markazini tashkil eta boshladi. Qasrda xonalar rasmlar va gorelyeflar bilan bezatildi. Rimdan antik haykallar freska qismlari olib kelindi. Qadimgi haykallar nusxalari olindi, juda ko'p Italiya rassomlari va haykaltaroshlarining ijod namunalari sotib olindi. Ular "Vannal" zaliga qo'yildi va rasmlarni ko'pi yo'q bo'ldi"

Gabsburglar kolleksiyasi. Gabsburglar sulolasi Avstriya va boshqa mamlakatlarning 1342-yildan 1918-yilgacha boshqardi. Imperator Maksimelyan va uning nabirasi Karl V ning kolleksiyasi Ispaniyadagi qarorgohlarga va janubiy german shaharlaridan yig'ilgan edi. Ferdinand I qurolsozlik va zargarlik buyumlari, medallar, tangalar, rasmlar, haykallar, san'at namunalaridan 1550-yilda kunstkamera tashkil qildi va u barcha Vena kolleksiyalarini Venaga joylashtirdi. Uning o'limidan so'ng qolgan merosxorlar bo'lib o'tirishdi.³⁰

³⁰ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptiones 1565.40 p.*

Renessans davri antik buyumlar va udumlarni topish bilan bir vaqtda, insoniyat uchun oʻrta asrlarda unutilgan **“muzey”** soʻzini qaytardi va uni yangicha mazmun bilan boyitdi. Avval bu soʻz kolleksiya soʻzining sinonimi sifatida qabul qilingan. 1492-yildan boshlab, **“muzey”** soʻzi alohida yozma ravishda roʻyxatga olina boshlagan. Florensiyalik bankir va Lorenzo Medichining qoʻlyozmalar va genlar kolleksiyasi muzey deb atalgan. **“Muzey”** soʻzi grekcha muzalar uyi degan maʼnoni bildiradi, tarixiy obidalarni saqlash, koʻrgazma qilish, oʻrganish, yigʻish bilan shugʻullanuvchi muassasa hisoblanadi. Ke-yinchalik muzey deb kolleksiyani emas, u saqlanayotgan xonani ham atashgan. 1539-yilda italiyalik gumanist Pado Joto oʻzining yozuvlarida Komodagi villasida saqlanayotgan buyuk insonlar portretini toʻplamini ham **muzey** deb atagan. Yaʼni Javani muzeyi Museum Jovanu, shuningdek, Italiya tabiat tadqiqotchilari ham oʻzlarini xonalarini muzey deb atay boshlashgan. Shundan soʻng Uygʻonish davrida muzey soʻzi kolleksiyalar saqlanadigan xona sifatida yuritila boshlandi. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa hovlilari ajoyib, chiroyli, nodir buyumlar namoyishi bilan ham ajralib tura boshlagan. Bunday toʻplam namunalari sifatida Uffitse galereyasi ham Markaziy Yevropadagi kunstkameralardan hisoblangan. Eng birinchi kolleksiya toʻplami 1550-yil Venadagi imperator Ferdinant Gabsburgga tegishli boʻlgan. XVI-XVIII asrlar ikkinchi yarmining eng boy va taniqli toʻplami Venger va Bagim imperatori Rudolfo II Gabsburgga tegishli boʻlgan. Uning qiymati oʻsha vaqtda juda katta baholangan.

XIX asrgacha muzey faqat tarixiy ilmiy sanʼat namunalari kolleksiyasi sifatida qabul qilingan boʻlsa, XIX asrdan boshlab muzey ishida tadqiqotlar olib borish boshlangan va XX asrning 60-yillardan boshlab muzeylarni tarbiyaviy faoliyati ishi ham boshlangan. 1946-yilda IKOM jahon muzeylar birlashmasi tashkil qilinib, muzeylarni rivojlantirish bilan shugʻullangani. Hozirda dunyoning 115 ta mamlakati oʻz ichiga olgan birlashmaning 27 ming 500 ishtirokchisi bor va ular YUNESKO Butunjahon tashkiloti bilan ish olib boradi.

IKOM har uch yilda bir mamlakatda oʻzining yigʻilishini

o'tkazadi. Qadimgi muzeylarning biri Aleksandriyalik Ptolomey II tomonidan bizning eramizgacha bo'lgan 290-yilda tashkil topgan. Uning tarkibiga xonalar, ovqatlanish xonalari, kutubxonalar, botanik va zoologik bog'lari kirgan. Keyinchalik bu yerga tibbiyot va astronomik uskunalar, hayvonlarni qotirilgan nusxalari, haykallar va byustlar qo'yilib, ulardan o'qitish uchun foydalanilgan. Bu muasasalar museonlar deb atalgan. Museon kutubxonasida 750 mingdan ortiq qo'lyozmalar bo'lib, museon direktori Ptolomey bo'lgan. Antik Gretsiyada ham ibodatxonalarga haykallar, rasmlar, san'at namunalari qo'yila boshlagan. Keyinchalik ular shahar bog'lariga, hammomlarga, teatrlarga qo'yilgan. Boylarning villadagi urushlar natijasida olib kelingan san'at namunalari ko'rsatish udumga aylangan. Rim imperatori Adrean haykallarini va san'at namunalari nusxalari tayyorlashni buyurdi va ular Gretsiya, Misrda katta qiziqish uyg'otdi, bu villa hozirgi muzeylarning ilk qaldirg'ochi hisoblanadi.

Shu jumladan, Osiyoda eramizning II ming yili boshlanishida Xi-toy va Yaponiya ibodatxonalari mahalliy san'at namunalari yig'ila boshlandi. Eng to'la kolleksiya Shosong nomi bilan atalib, Unara ibodatxonasida joylashadi. O'rta asr san'at namunalari (zargarlik namunalari, haykallar, monuskritlar) ibodatxonalar va cherkovlarda ko'rsatish uchun belgilandi. VII asrdan boshlab urushlarda qo'lga kiritilgan boyliklar ko'rgazma qilina boshlagan. Urush vaqtida bu boyliklardan to'lov sifatida foydalanilgan. Shunday qilib saqlanmalarda yo ko'payib, yo kamayib turgan. Masalan, Fransiya'dagi Reyms ibodatxonasi xazinasining miqdori fransuzlarning harbiy g'alabalariga bog'liq bo'lgan. XVIII asrdan boshlab muzeylar Yevropadagi ko'p mamlakatlarning ijtimoiy hayotida muzeylar ajralmas bo'lib qoldi. 1750-yilda Parijda Palas de Lyuksenburg saroyida haftada ikki kun rasmlar ko'rgazmasi bo'lib o'tardi. Birinchi navbatda buni ko'rgani talabalar va san'at namoyandalari kirar edilar. Keyinroq bu rasmlar Luvr kolleksiyasiga berilib, u yerda qirol Fransiskoning shaxsiy

kolleksiyasi bo'lgan yangi tipdagi birinchi muzey 1753-yilda ochilgan bo'lib, unga tashrif buyurish uchun yozma ro'yxatdan o'tish lozim bo'lgan. 1793-yilda Fransiya revolyutsiyasidan so'ng, Luvr ham birinchi muzey bo'lib ochilgan. XVIII asr muzeylariga quydagilar kiradi:

Renessans davrida buyuk grek va rim madaniyatining qaytarilishi bilan birga, antik davrning ilmiy dam olish hayot tarzi ham o'rganila boshlagan. Rim intellektuallari villalarda turli yig'inlar o'tkaza boshlagan. Italiya aslzodalari saroylarda va taniqli shaharliklar xonadonlarida alohida xonalar ajratib, bu yerda falsafiy mavzularda bahslar, qadimgi yozuvchilar kitoblarini o'qish udumga kira boshlagan. Birinchi davrda bu kabinetlar **studiola** deb atalgan³¹.

Studiola tarkibiga kutubxona kirib, alohida tartibi bilan ajralib turar edi. XV asrdagi kolleksionerlikning rivojlanishi bu xonalarni tartibiga o'zgartirishlar kiritdi. Bu xonalarga kolleksiyalar joylashtirila boshlandi. Ayniqsa, badiiy xarakterga ega bo'lgan gemmalar, qo'lyozmalalar, haykaltaroshlik va rassomchilik namunalari shular jumlasidandir. Bu xonalarda kitob o'qish bilan birga, san'at asarlari o'rganila boshlangan. XV-XVI asrlar studiolar kutubxonadan qimmatbaho buyumlar saqlovchi xonaga aylana bordi. Studiolar muzeylarga o'xshatma bo'lib, ular kichik xonalardan iborat bo'lgan. U yerda yorituvchi moslamalar bo'lmagan. Devordagi kolleksiyalar shkafalarda saqlangan. Berk eshiklarda allegorik naqshlar bo'lgan. Bu kolleksiyalarni shkaf eshiklaridagi allegorik naqshlariga qarab, u yerda nima borligini bilish mumkin bo'lgan. Studiolariga faqat ega-lari va uning yaqinlarigina kirishgan.

XV asr davomida kolleksionerlar gurkirab rivojlangani bois, studiolarining funksiyasi va ichki bezatilishiga, uning asosiy g'oyasiga keskin o'zgarish kiritdi. Ularning ichiga badiiy harakatlarga ega bo'lgan kolleksiyalar ham joylashtiriladigan bo'ldi. Gemmalar, qo'lyozma, haykaltaroshlik namunalari insonlarni o'ziga tortar edi. Masalan, Gersog Leonello D Estening Delfore saroyida yaratilgan (1447) kabinetin-

³¹ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptions 1565. 2013. 42 p.*

ing devorlarida 9 ta muza atributlari bilan tasvirlangan edi. Pero Medichining studiolasiga kiraverishda (1459) esa marmardan ishlangan antik relyef joylashgan bo'lib, kabinetning o'zi klassik qadimiy buyumlar bilan to'ldirilgan edi. Renessans davrining kabinetlari o'zgacha dunyoga aylandi, uning xo'jayini adabiyot yoki falsafa mashg'ulotlari bo'yicha vaqtini shu yerda o'tkazardi. Ba'zida oila a'zolari, ba'zida esa jamiyatdagi o'ziga yaqin kishilari bilan intellektual suhbatlar olib borib, estetik orom olganlar.

Chuqur g'oyaviy va kuchli mistik motivlar bilan bezatilgan antik davr predmetlari bilan to'ldirilgan studiolalar antik davr museoni kabi qabul qilinardi. Kolleksionerlikning rivojlanishi sekin-asta studiolaning qiyofasini va unda jamlanib kelayotgan g'oyaviy dasturni o'zgartira boshladi. Studiolalar universal xarakterga ega bo'la boshladi. Bu narsa XVI asrning boshlarida aniq namoyon bo'ldi. Bunga Izabella D Estening dekorativ studiolasini misol qilishimiz mumkin, uning kabinetining maxsus dastur asosida bezatilgan panno emas, balki mashhur rassomlar ishlagan noyob kartinalar bezab turardi. Perudjino, Kost, Monteni, Koradjoning asarlari shular jumlasidandir. Kartinalarning sujeti antik davr adabiyotlaridan olingan yoki saroy gumanistlari tomonidan o'ylab topilgan bo'lar edi. Natijada studiola Izabellaning rangtasvir kolleksiyalari saqlanadigan joyga aylandi, lekin eng kardinal o'zgarishlar Franchesko I Medichining studiolasida yuz berdi. U 1579-yili Verokkioning Florensiya palatssosida Jorj Vazari rahbarligida bir guruh rassomlar tomonidan yaratilgan edi. Dasturni filolog va tarixchi Vinchenso Borjeni ishlab chiqqan edi. Franchesko I studiolasi gumanistik mashg'ulotlar uchun mo'jallangan kabinet sifatidagi ahamiyatini butunlay o'zgartirdi. Endi unda nafaqat san'at asarlari, balki tabiiy ilmiy namunalar, ekzotik haykallar, baliq rasmlari tushirilgan asarlar joy oldi. Qadimiy va noyob buyumlar esa shkaflarga joylandi. Shkaflarning eshiklari mifologik tasvirlar bilan bezatilgan edi.

Shunday qilib, XV-XVI asrlar davomida studiolalar kutubxona ko'rinishidan to galereya ko'rinishigacha o'zgardi. Lekin uni kolleksiyalar tashkil etish prinsipi Renessans davri muzeyi deb

hisoblashga asos bo'la olmaydi. Uni faqat Protomuzey deyish mumkin. Studiolar uncha katta bo'lmagan xona bo'lib, saroylarning ulkan zallari oldida juda kichkina hajmi bo'yicha kontrast ko'rinardi, chunki studiolar o'sha saroy zalining yonidagi xonaga joylashtirilardi.

Antikvariya uyg'onish davrida antik davr haykallari, ularning fragmentlari kolleksionerlikning eng zaruriy obyektlaridan hisoblanardi. Ularni maxsus maqsadga yo'naltirilgan arxeolog qazilmalar natijasida yoki qurilish ishlari olib borilayotgan hududlardan topish mumkin edi. Lekin arxeologik qazilmalar sistemasiz olib borilib, o'g'rilik xarakteriga ega edi. Bu topilmalar bilan saroy villalarining bog'lari bezatildi. Haykaltaroshlik kolleksiyalarining shakllanishiga qarab, ularni tartib asosida yig'ishga talab paydo bo'ldi. Renessans madaniyatida antik davr plastikasi va u namoyish qilinadigan joyni antikvariya deb atashgan.

Birinchilar qatorida Rimdagi kapitoliyada antikvariya tashkil etilgan. Rimning siyosiy va ma'daniy markazi bo'lishidan oldin Kapitoliya maydoni, o'rta asrlar davrida shahar bozori vazifasini o'tagan. 1471-yil Sikst I taxtga o'tiradi va kapitoliyaga Papa Lateryanski saroyi oldida turgan qadimgi bronza haykallarini qo'ydiradi. U bu asarlarining qonuniy egasi Rim xalqi hisoblangani uchun shu ishni qilgan. Sikst II ning sovg'alari orasida Rimning emblemasi bo'lgan. Etrusk ustalari tomonidan yaratilgan mashhur ona bo'ri, qo'lidan tikanni olib tashlayotgan bola haykali — "Spinario", "Kamill" — qurbonlik olib kelayotgan xizmatkorning haykali ham bor edi. Bir necha o'n yilliklardan so'ng "Lateran" maydonidan kapitoliya maydoniga imperator Mark Avreliyning otliq bronza haykalini ko'chirishadi.

O'rta asrlarda xristian dinini davlat dini deb e'lon qilgan imperator Buyuk Konstantin deb o'ylashgani uchun, saqlanib qolingani ilk davrlarda kapitoliya antikvar to'plami deyarli ekspozitsiy qilingan edi. Ya'ni atrof-muhit me'morchiligi va landshaftga uyg'un emas edi, haykaltaroshlik asarlari saroy fasadlari ichini bezardi. Lekin Pavel III davrida Mikelanjelo loyihasiga ko'ra qurilish ishlari boshlanib, kapitoliya

saroylari bilan antik haykaltaroshlikni yagona ansamblga bog'ladi. XVI asr o'rtalariga kelib, yangi asarlar bilan to'ldirilgan Kapitoliya antikvariyesi juda mashhur bo'ldi va Kapitoliya muzeyiga aylandi. Bugungi kunda ham u yerda Sikst IV sovg'alari saqlanadi. Shuning uchun, uning tashkil etilgan sanasi 1471-yil hisoblanadi va u dunyodagi eng keksa muzeylardan biridir.

Boshqa Rim antikvariyesi Papa Yuliy II ning nomi bilan bog'liq (1503-1513). Yuliy II Rimni Italiyaning siyosiy va ma'naviy markaziga aylantirishga intilgan. Saroy va ibodatxonalarni bezatgan, ko'priklar qurdirgan, yangi tantanalikni barpo ettirgan. Papalik va xristian cherkovini ulug'lovchi noyob asarni buyurtma qilgan Yuliy II juda tirishqoq va intiluvchan bo'lgani uchun klassik davr qadimiy buyumlarini kolleksiyalashtirishga ham vaqt topgan. Uning kolleksiyalari orasida "Laokoon" haykaltaroshlik asari bebaho asarlardan biri hisoblanadi. Uni 1506-yili imperator Tit binosining qoldiqlari bo'lgan joydagi uzumzorni buzib, qurilish ishlari boshlayotgan paytda topishgan. Bu voqeadan sal oldin mazkur haykal haqida yozuvchi Pliniy Kattaning asarlari orqali ma'lumot olingan edi. Shuning uchun "Laokoon" asari noyob topilma deb olindi.

Rim kapitoliyasidagi ilk antikvariya Avgust Mozaliyda Avgust maqbarasidan olingan rafiqasining haykali hamda rimlik qo'mondon Germanikning haykali turar edi. Bu haykallardagi chuqurchalar bug'doy va tuzni o'lchash uchun ishlatilar edi. Kapitoliya saroyiga chiquvchi zinada haykallar guruhi turar edi. Ular sher hamda tulporning haykali edi. Bular adolat timsoli hisoblanar edi. Bu yerda o'lim jazosi berilar edi. XV asrlar o'rtasiga kelib kapitoliya antikvariyesi yangi topilmalar bilan katta dong taratdi va buning natijasida kapitoliy muzeyi paydo bo'ldi. Bu muzey eng qadimiy muzeylardan hisoblangan. Yuliy II Papasi tashkil qilgan Rim antikvariyesi Rimni Italiyaning madaniy-siyosiy markaziga aylantirilishida katta rol o'ynadi. Yuliy II saroylar va ibodatxonalarni qurib bezadi, ko'priklar qurdi. Yangi katta ko'chalarni tashkil qildi,

san'atni qo'llab-quvvatlab, buning natijasida xristian ibodatxonasini va Papasini qo'llab-quvvatlashda katta xizmat qildi. Papa kolleksiyasining eng nodir durdonalaridan biri Leokar yaratgan Apollon haykalidir. Bu haykal nusxasi marmardan tayyorlangan edi. Yuliy II uni kordinallik vaqtida qo'lga kiritib, Papalik vaqtida Belveder saroyi hovlisiga qo'ydirgan edi. Shuning uchun uni Apollon Belvederskiy deb atashgan, Belveder saroyidagi haykallar antikvariya-sini ochilishi Vatikandagi butun dunyoga taniqli muzeylar tarixini boshlanishiga sabab bo'ldi.

Lev X papalik taxtiga chiqqanidan so'ng, Jovanni Medichi nomi bilan Belveder saroyiga yo'lni ochib berdi. O'sha vaqtlarda Belveder saroyi Yevropaning eng tabarruk qadamjolaridan hisoblanar edi. 1521-yilda Adrean IV papalikni qo'lga olgandan so'ng, Belveder antikvariya-si yopildi. U san'at bilan shug'ullanishni gunoh deb hisoblar edi. Haykallar yog'och to'siqlar bilan berkitib qo'yildi. 1579-yilda gersog Franchesko Medichi studiolasida juda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Florensiyadagi Palatsso Vek-kio maydonida Djordjo Vazari boshchiligidagi bir guruh rassomlar va tarixchilar va falsafashunos Vinchenso Borgene loyihasi asosida o'zgarishlar qildilar. Bu ko'rgazmada allegorik obrazlardan keng foydalanilgan. Markazda Promiteyga kvars kristallini topshirishi kompozitsiyasi turadi. Devorlarni bir metr balandlikdagi rasmlar bezagan. Ularda tabiat boyliklari hamda tabiiy ofatlarni sujetlari bor edi. Devor oraliqlariga sakkizta haykallar qo'yilgan edi. Franchesko II ning studiolasida gumanistik mashg'ulotlar o'tadigan xona sifatida ishlamay, san'at namunalari, har xil ajoyibotlar, taniqli rassomlar suratlari joylashtiriladi.

Bu rasmlarda hayvon va o'simliklar aks ettiriladi. Qadimgi topilmalar va ajoyibotlar allegorik rasmlar orqasidagi devoriy shkaflarga joylashtiriladi. Bu studiola o'zini har xil buyumlari hamda miniatyuralardagi olam nomi bilan yuritilgan. X-XV asrlarda bu studiola kutubxona va mashg'ulotlar o'tish xonasidan xazinaga aylanib qoladi. Bu studiolarini Renessans muzeyi emas, balki uni muzey muas-

sasa deb atash mumkin edi. Chunki bu yerda nafaqat ko'rgazmalar, balki mashg'ulotlar o'tkazilgan. Studiola kichik hajmdagi xonalardan iborat bo'lib, saroy zallardan keskin farq qilar edi. Undan faqat Franchesko I studiolasida omma uchun ishlatilmas edi. Bu studiola egasi va uning yaqinlari uchun ishlar edi. Uyg'onish davrida antik haykallar va ularning qismlari kolleksionerlikning asosi hisoblanar edi. Uffitsi galereyasi ilk tashkil qilingan paytda antik davr va zamonaviy haykaltaroshlik asarlarini joylashtirish uchun yaratilgan edi. Lekin bir necha yillardan so'ngina mazkur to'plam universal xarakterga ega bo'ldi.

Uffitsi galereyasi konselyariyalar galereyasi ma'nosini bildirib, Florensiyada 1560 — 1581-yillarda qurilgan. Hozirda bu Yevropadagi san'at asarlarini o'zida saqlovchi muzey hisoblangan edi.

Uffitsi tarixi 1559-yil iyul oyida boshlandi. Bu vaqtda Florensiya qiroli Kozimo Medichi ma'muriy xizmatchilarini bir saroyga to'playdi. Ishni boshlash uchun saroyga Jorj Vazari taklif etildi. 1560-yilda Vazari o'z ishini boshlaydi, lekin 1574-yilda Vazari vafot etadi va uning ishini Bernardo Buontalenti davom ettiradi.

1575-yilda Uffitsi binosida Medichi muzey tashkil etadi. Uffitsi galereyasi Florensiya markazida joylashgan bo'lib, shimol tomondan bu bino Palazzo Vekki va Palazzo della Signoria bilan va janub tomoni esa Ariosto daryosi bo'ylariga chiqadi. "Uffitsi" so'zining ma'nosi ofis so'zidan kelib chiqqan. Kozimo II me'mor sifatida Jordjo Vazari taklif qiladi. U Palazzo della Signoria kvartalini buzib tashlab, buzilgan toshlarni qurilishda ishlatishni buyuradi va ish tez rivojlanadi, biroq Kozimoga ham Vazariga ham bu binoni tugallash nasib etmaydi. Bino qurilishi 1580-yilda tugatiladi. Uffitsi binosi oval shaklida bo'lib, tor fasad bilan daryoga chiqadi. Bu bino to'liq mukammal bo'lmagan bir necha qurilishlarni o'z ichiga olgan, bular sarasiga San Pietro cherkovi va tangalar hovlisi kirib, bu yerda 1252-yilda birinchi oltin florinlar tayyorlangan edi. Uffitsining bezash ishlari bilan taniqli rassomlar Allori, Besseri va Peronilar shug'ullanishgan. Deylanse ravoqida osma bog'lar tashkil etilgan va ikkinchi qavatida teatr bo'lgan.

Uffitsi muzeyining san'at asarlari to'plamlari asosan Medichi oila a'zolarining buyurtmalari va topilmalarini tashkil qiladi. Masalan, Ferdinando II Uffitsi galereyasining eng taniqli Venera haykalini va haykallar kolleksiyasini sotib olgan. Shuningdek, o'zining xazinasidan barcha buyumlarni olib kelgan. Ferdinando II esa o'ziga meros qolgan rasmlar kolleksiyasini bu yerga olib kelgan. Kordinant Leopolda ham muzey tashkil etishda ishtirok etib, o'zining turli rassomlarning avtoportretlari va rasmlari kolleksiyasini olib keladi. 1737-yilda Medichilarning so'nggi vakilini o'limidan so'ng, bu xazina Florensiya shahri ixtiyoriga o'tadi³².

³² *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptions, 1565. 2013. 45 p.*

Italiya muzeylari

1. Florensiya. San-Marko muzeyi.
2. Milan.
3. Neapol.
4. Venetsiya.
5. Florensiya. Uffitsi galereyasi.
6. Turindagi Yegipet muzeyi.
7. Aksel Munte uy-muzeyi.
8. Rivolidagi Zamonaviy san'at muzeyi.
9. Spada galereyasi Rim muzeyi.
10. Fenis qasridagi mebellar muzeyi.
11. Sfors qasri muzeyi.

Muzey tushunchasi ilk bor XV asrda kirib kelgan. Muzey atamasi birinchi bor Medichilar kolleksiyasiga nisbatan qo'llanilgan. Hozirgi kunda muzey so'zining bir qator tushunchalari mavjud bo'lib, bu terminga olimlar turlicha yondoshadi. XX-XXI asr insoniyatga yangi tipdagi muzeylarni nafaqat ekspozitsiyasi balki, o'ziga xos atrof-muhit, turli madaniy jarayonlarning lavhalarini, inson faoliyatining turlarini ko'rsatish mumkin. Masalan, ochiq osmon ostidagi muzeylarning asosini an'anaviy kolleksiya emas, balki o'zining atrof-muhitida taqdim etiladigan xalq turmushini aks ettiruvchi me'moriy yodgorliklar tashkil etadi. Muzeylarning tashkil etilishidan maqsad, madaniy-tarixiy yodgorliklarni targ'ib qilish va ularni o'rganish ishlarini olib boradi.

Italiya Respublikasi – Yevropaning janubidagi, O'rta yer dengizi markazida joylashgan davlat hisoblanadi. Shimoli-g'arbda – Fransiya, shimolda – Shveytsariya va Avstriya, shimoli-sharqda – Slovaniya mamlakatlari bilan chegaradosh. Mamlakat Apennin yarim oroli,

Padan tekisligi, Janubiy Alp tog'larini, Sitsiliya, Sardiniya va bir qator mayda orollarni egallab turadi. G'arbda Liguriy va Tirrens dengizlari, sharqda – Adriatika dengizi, janubda esa – Ionik va O'rta Yer dengizi suvlari yuvib turadi. Mamlakatda, harakatdagi Vezuviy va Etna vulqonlari mavjud bo'lib, yer qimirlashlar ko'p bo'lib turadi. Iqlimi – mo'tadil O'rta Yer dengizli. Asosiy daryolari: Po, Arno va Tibr, ko'llari esa: – Garda, Lago Italiya 16 hudud (viloyat) va 5 avtonom tumanlarga bo'lingan. Avtonom viloyatlarda o'zining parlamentlari – o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'lgan mahalliy viloyat kengashlari va hukumatlari – djuntalari mavjud.

Aholisi va dini. Aholining – 94% italiyaliklar. Shuningdek, Italiya-da Yevropaning boshqa mamlakatlaridan chiqqan ko'pchilik xalqlarning 99% i istiqomat qiladi. Davlat tili – italiyan tili. Dini: katoliklar.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida, hozirgi Italiya hududlariga – italiyaliklar qabilasi ko'chib keladi. Ba'zi vaqtdan so'ng illiriylar, so'ng taxminan 900—800-yillarda – etrus qabilalari va nihoyat, VIII asrdan boshlab - asosan Appenin yarim orolining janubiy qismi va Sitsiliyaga kelib joylashgan – yunonlar paydo bo'lishgan. Italiyaning haqiqiy tarixi – Rim va rimliklarning qudrati kuchayib ketishidan boshlanadi. 395-yili Rim imperiyasi g'arbiy va sharqiy (Vizantiya) qismlarga ajralib ketadi. 1922-yil Benito Mussolini fashistik davlatni barpo etadi. 1946-yilning iyun oyida Italiya qiroli taxtdan voz kechib, mamlakatni tark etadi. 1947-yili Italiya – Respublika deb e'lon qilinadi. Tinchlik bitimiga ko'ra, mamlakat o'z hududi va Bolqondagi barcha mustamlakalardan mahrum bo'ladi. Triest shahri BMTning erkin zonasi uchun ajratib beriladi. 1949-yili Italiya NATOga a'zo bo'ldi. 1964-yili – Triest shahri Italiya Respublikasi bilan birlashib ketadi. 1983—1986-yillar Italiya hukumatining “qotil jamoalar” va mafiyaga qarshi jadal suratdagi harakatlari boshlangan davr. Italiya – BMT, uning maxsus tashkilotlari, NATO, Yevropa Ittifoqi, OBSE, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti a'zosi hisoblanadi.

Ma'lumki, Italiyada muzeylar soni juda ko'p va ularning hammasi haqida ma'lumot berish juda ko'p vaqt talab qiladi. Lekin ayrim muzeylar borki, ularni ziyorat qilish va bilish shart.

Florensiya. San-Marko muzeyi

San-Marko muzeyi 1869-yilda ochilgan. U 1866-yilda davlat mulkiga aylangan qadimgi ayollar monastiri binosida joylashgan. Arxitektor tomonidan yaratilgan xonalar Fro Beato Anjeliko (1395 - 1455) asarlari bilan bezatilgan. U monaxlarni alohida va birdamlikdagi ibodatida hamrohlik qiluvchi, juda g'aroyib rassomchilik siklini ishlab chiqqan.

Milan

Milan o'zining muzeylarida saqlanayotgan ajoyib va beqiyos san'at asarlari bilan g'ururlanishga haqli. Shahardagi eng mashhur muzey — Pinakoteka Brera. Galereyada yirik va katta ahamiyatga ega bo'lgan rassomchilik kolleksiyasi taqdim etilgan: XV asr lombard maktabi-ning rassomchiligi, "Isoni cho'qintrish" — Paolo Veroneze, "Madonna go'dak bilan" — Berganonedan, XV-XVI asrlar lombard va pemont rassomchiligi, XV-XVI asr Venetsiya rassomchiligi, Rafaelning "Bibi Maryam nikoh marosimi" asarlari. Sforks qasrining muzeyi — antik davr haykaltaroshligining kolleksiyasi, shuningdek, o'rta asr va Uyg'onish davri san'ati taqdim etilgan. Ambroziana kutubxonasi — Leonardo da Vinchi marvaridlarini (asarlarning) o'zida mujassam etgan asarlar qo'yilgan. Zamonaviy san'atshunoslik galereyasi va shunga o'xshash muzeylar Milan shahrida juda ko'p³³.

Neapol.

O'zining takrorlanmas qadim grek va rim kolleksiyalari bilan Neapolning milliy arxeologik muzeyi dunyodagi madaniyat markazlari orasida alohida o'rin egallaydi. Birinchi qavatda antik davr haykalla-

³³ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 293 p.*

riga bag'ishlangan, qavatdagi 40 ta yoki undan ko'p zallarning 15 ta-sida ko'pgina shedevrlar joylashgan. Afina, Afrodita, shuningdek, eng mashhur "Dorifor" ("Kapenosets" kamon tashuvchi) haykallari alo-hida qiziqishni uyg'otadi. Eng hayratomuzlari "Farnezlik Gerkules" va "Farnezlik Buqa" – bizgacha yetib kelgan eng katta antik davr haykaltaroshlik kompozitsiyasi hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi qa-vat bo'shliqlari Pompeyning afsonaviy mozaikalari bilan bezatilgan; o'ngda Neapol tarixi bilan bog'liq eksponatlar qo'yilgan. Ikkinchi qa-vatda ko'p sonli Neapol xazinalari mavjud. Pompey va Gerkulanuma freskalari bilan bezatilgan zal va ichida haqiqiy ehromdagi narsalar va san'at asarlari joylashgan, Pompeydagi Izida ehromining qisman tiklangan zallarini ziyorat qilish eng qiziqarlisi.

Venetsiya

Hozirda Venetsiyaning ko'pgina saroylarida muzeylar joylashgan. Ularning ichida Peggi Gugenxeyma kolleksiyasi (Italiyada zamo-naviy san'atning eng kattasi hisoblanadi), Venetsiya muzeyi, harbiy-dengiz muzeyi (kemalar modeli va harbiy qurol-yarog'lar), Akademi-ya Galereyasi, Korrer nomli shahar muzeyi (tarixiy va rassomchilik kolleksiyalari), Avliyo Rokkoning Bratstva maktabi (Tintoretto asar-lari) va b. k.

Qadimgi rimliklar – Kolizey buzilmasa, Rim ham turadi, Kolizey buzilsa, Rim yo'q bo'lib ketadi, u bilan butun dunyo ham yo'q bo'ladi deyishgan. Kolizey 2 ming yoshda. Kolizey Palatina, Seliev va Es-kvilin tepaliklari orasidagi vodiya qurilgan, sirkning tosh qolipini namoyon etadi. Flaviya va Kolizey amfiteatrlari Rimning qadimdagi kuch-qudratining isboti va ramzi hisoblanadi. Kolizey vaqt o'tganni sayin o'zining haybatini yo'qotib, bahaybat va ijodiy ruinalardan ibo-rat bo'lib qoldi. Barcha boshqa tarixiy inshootlar shoh amfiteatri oldida xira tortishadi, shuning uchun uning ulug'vorligini ovoza qilishgan. Kolizey hamma vaqt bunday nomga ega emas edi.

Teatrni bunday nom bilan XVIII asrda atay boshlashgan. Kolizey nomi kelib chiqishining 2 ta taxmini mavjud. Ayrim olimlar, bunday nom Kolizey maydonining o'Ichamiga qarab kelib chiqqan deyдилar, boshqalar esa, imperator o'zi uchun maxsus qo'ydirgan, bahaybat (koloss) Neron haykali nomidan kelib chiqqan – deb hisoblayдилar.

Rimlik ommaning asosiy shiori – “Non va tomosha” (Xleba i zrelit) edi. Aholi davlat, Sezardan, senatdan asosan shuni talab qilgan. Agar non oshig'i bilan tarqatilgan bo'lsa, tomoshada hech qanday kamchiliklar bo'lmagan. Bular antik davrdagi davlatning mavjud bo'lishi uchun ikkita muhim shartlardan bo'lgan. Sirk arenasida ijro etilgan barcha tomoshalar rimliklar tomonidan xudolar uchun sovg'a bo'lgan. Shuningdek, ilohiylashtirilgan imperatorning qo'l ostidagilariga sovg'asi edi. Dunyo boshqaruvi sahnasida rimliklar faoliyat yuritgan, zamondashlari—greklar, asosan sport musobaqalarini va teatr tomoshalarini xush ko'rishar edi. Rimliklar esa umuman aks tomoshani—qonli va o'tkir janglar talabgorlari bo'lishgan. Ular yoqtirgan shou – gladiatorlar jangi bo'lgan.

Tomosha – har doim sirk kabi o'tkazilgan. Rimning har bir shahrida o'z tomoshasi bo'lgan. Butun shahar bo'yicha eng katta va boy arena poytaxtda joylashgan. Kolizey Butun umrli shahar ramzini bildirgan. Bu Imperiya obro'sining ramzi. Aynan shu yerda jangchilar olomon ermagi uchun yirtqich hayvonlar bilan kurashishgan. Ayrim vaqtlarda arenada imperatorning o'zi ham ishtirok etgan. Masalan, eng ekssentrik boshqaruvchi imperator Kommodusning o'zi vaqti-vaqti bilan tomoshada ishtirok etgan va afsonaviy qahramon “roli” dan zavq olgan.

Amfiteatr qurilishi Flavivlar dinastiyasining birinchi imperatori, Vespasian tomonidan boshlangan. U Neron taxti uchun bo'lgan jangda g'olib bo'lgan, harbiy boshliq edi. O'n yildan so'ng amfiteatr ochilgan. Lekin uning davomiy qurilishi 25 yilga cho'zilgan. Amfiteatrni Vespasianning o'g'li Tit ochgan. Bu kun e.a. 80-yilda bo'lgan, Rim 100 kun Kolizey ochilishini bayram qilgan. Kolesnitsalardagi poyga-

lar, ulug'vor janglarning rekonstruksiyalari, gladiatorlar jangi, bayram dasturidan joy olgan.

Tarixda Kolizey devorlari – haykallar bilan bezatilgan, attik bilan tugallangan uch yarusli arkadlarni tiklagan arxitektorning ismi saqlanib qolinmagan. Bu orderlar o'sha davr me'morchiligining eng mashhuri bo'lgan. Eng oddiy va eng kamtarini – toskancha order edi. Eng go'zali-ioncha order. Eng boyi – korinfscha order bo'lgan. Yuqorigi yaruslarning pilyastrlari aynan korinfscha usulda ishlangan. Amfiteatr maydonining taxminiy o'lchamini tassavvur qilish uchun, minbarga 50 000 kishi joylanishidan bilsa bo'ldi (XX asr boshlarida 90 000 kishi ketadi deb yuritilgan).

Kolizey 4 asrdan buyon gladiator janglari o'tkazilmayotgani tufayli, VIII asrdayoq harobalarga aylana boshlangan. Shunda kardinal, Papaning jiyani, o'zining yangi qasri qurilishiga Kolizey toshlaridan olib ishlatgan. Baxtimizga, keyingi antik yodgorlikning toshlarini tashib ketishlarga Papa Pavel III chek qo'ygan. Boshqa Papalar Kolizeyni uncha ehtiyot qilishmagan. Faqat XVIII asrdagina uni qo'riqlay boshlashdi. Hozirda Italiya hukumati kelajakda teatr sahnasiga aylantirish maqsadida, amfiteatrda ko'proq restavratsiya ishlarini bajarishmoqda³⁴.

Florensiya. Uffitsi galereyasi

Uffitsi galereyasi — Italiyaning nafaqat 1560-yilda asos solingan eng qadimiy muzeyi hisoblanadi, shuningdek, XIII asrning Italiya milliy maktabining boshlanishidan to asrlardagi Italiya rassomchiligi uzoq va yirik ko'tarilishlardan so'ng, yiqilishlarga ko'nika boshlagan payti — XVIII asr asarlarigacha, dunyodagi italiya rassomchiligining yirik jamlanmasi hamdir. Uffitsida saqlanayotgan Italiya Uyg'onish davrinin jamlanmasi o'zining to'la mukammalligi bilan beqiyos hisoblanadi. Djotto, Fro Beato Andjeliko, Botticelli, Rafael, Leonardo da Vinchi, Filippo Lippi, Mantenya, Pero della Francheska, Karavadjo,

³⁴ *Building National Museums in Europe 1750-2010*, 297 p.

Titsian – barcha Apennada yorqin nur sochgan, rassomchilikning yirik titanlari mana shu ajoyib muzeyda shedevrlar qatorida taqdim etilgan. Bu muzeyda butun boshli Italiya san’ati tarixini o’rganish mumkin.

1560-yil 23-martda hozirda Uffitsi galereyasi – Italiya tilidan tarjima qilinganda “kanselyariya” yoki oddiygina “xizmat” degan ma’noni bildiradi, – joylashgan bino, magistrlar binosining qurilishi boshlandi. Franchesko Medichi 1581-yil bu binoni muzeyga aylantiradi. Muzey sifatida ommaviy e’tiborni Uffitssi galereyasi XVIII asrda erishdi. Rassom va arxitektor –Djordjo Vazari qo’l ostida magistrlar binosi-ning loyihasi ishlab chiqilgan.

Medichi avlodi (bir necha yuz yildan bari taxtni boshqarib kelayotgan) o’zining ilk kolleksiyasi bilan mashhur Florensiya muzeyiga boshlang’ich qadamni qo’yib bergan. Uffitssi galereyasi Uyg’onish davrining ko’pgina ko’rinarli shedevrlarini saqlab kelmoqda. Lekin ko’pgina vaqtdan beri va hozirgacha Sandro Bottichelli (1445-1510) ning asarlari muzeyning tashrif qog’ozi bo’lib kelmoqda. Uni omadsiz zargar va “Xudodan berilgan” rassom va san’atshunos sifatida bilishadi. Eng asosiysi, Renessans muzeyi, Uyg’onish davri an’analari va gotika uslubida ishlagan ustalarning asarlarini omma e’tiboriga havola etadi.

Ko’pgina kartinalar buyuk Bottichelli qalamiga mansub, bizning davrimizgacha yetib kelganlari, injildagi his-tuyg’ularni aks ettirgan bo’lib (injildagi sahnalarni aks ettirgan), ustaga Kvatrochento kabi unutilmas, go’zal qilib tasvirlagan antik avliyolar obrazi mashhurlik keltirdi. Hattoki, Bottichellining, bizning davrimizgacha yetib kelgan, ko’pgina kartinalarida injil sahnalari va qahramonlari aks ettirilgan bo’lsa-da, buyuk rassomni Rimning antik avliyolari tasvirlangan Kvatrochento mashhur qildi.

Sandro Bottichelli mashhur rassom bo’lgan va ko’pgina beqiyos kartinalar yaratgan. U Buyuk Lorensoning qo’l ostidagi rassomlaridan biri edi. Uni Sikstin IV kapellaning ichki devorlarini freskalar bilan bezash uchun Rimga taklif etgan. Keyinroq rassom Savo narola boshchiligidagi Papa va Medichiga qarshi bo’lganlar safiga qo’shiladi.

U avliyo ota bo'lgan va Florensiyani shahar uslubidagi monastir qilish orzusida edi. O'sha vaqtda Bottichelli ham antik davr xudolariga va qahramonlariga bag'ishlangan kartinalarining ko'p qismini yo'q qilib yuborgan. Ana shu kartinalar va san'at asarlari, kitoblar, kiyimlar, zebu ziynatlar Sinori maydonida yoqilgan gulhanda yonib ketgan. Hozirgi vaqtda dunyo Bottichellini Uffitssi kolleksiyalari qatorida saqlanayotgan "Veneraning yaralishi", "Bahor" asarlarining muallifi sifatida tanishadi.

Ana shu katta mifologik asarlar sikli ustida rassom, 1482-yil Rimdan qaytganidan so'ng ishlay boshladi. Shu asarlarda konturning aniqliligi, ranglarning go'zal berilgani va gotika haykallarining odatiy gratsiyasi yuzaga chiqdi, eng sirli va baxslashuvga sabab bo'lgan asar "Bahor" bo'ldi.

Uffitssi galereyasi – Italiyadagi kabi, dunyoda ham eng qadimiy muzey hisoblanadi. U qadimiy Florensiya shahrining qoq markazida joylashgan. Bu shahar Renessansning, shuningdek, uning eng a'lo asarlarining vatani bo'lib qoldi. Shaharni ko'p yillar davomida boshqargan Medichi avlodining kolleksiyalari mashhur muzeyning yuragi hisoblanadi. Muzey yaratilish davrida XVI asrning ikkinchi yarmida u eng boy va eng zo'r kolleksiya bo'lgan. Bottichelli, Djotto, Leo-nardo da Vinchi, Mikelandjelo, Rafael, Karavadjo, Titsian... Aynan shu muzeyda Mikelandjeloning Sikstin kapellasidan keyingi yagona yirik asari, avliyolar oilasi tasvirlangan mashhur tondosi saqlanadi.

Mana shu rassomlarning nomlari, ko'p sonli go'zallikni qadrllovchilar yuraklarining go'zallik oldida to'xtab qolishga majbur qiladi. Bu, albatta, antik davr san'ati, shuningdek, fransuz, olmon, flamand rassomlarining eng zo'r asarlari qatoridagi eng zo'r rassomlar, eng zo'r asarlar.

Uffitsida ko'pgina ajoyib va qimmatbaho kolleksiyalar hamda eksponatlar mavjud. Bu yerda mashhur rassomlarning g'aroyib avtoportretlari kolleksiyasi bor. Albatta, mashhur yoki kam mashhur mo-hir qalam ustalarining avtoportretlari har qanday muzeyda mavjud.

Lekin bu kolleksiya yillar davomida bir maqsadda to'plangan. Koleksiya, bir so'z bilan aytganda, "ijodiy yaratuvchilik" namoyandalari-ning "hurmat taxtachasi" hisoblanadi.

Bu qadimiy va zamonaviy mohir rassomlar portretlarining qadrli kolleksiyasiga, mashhur Medichi oilasining oxirgi vakili kardinal Leopoldo Medichi XVII asrda asos solgan. Kardinal nafaqat san'atni qadrllovchi bo'lgan, balki o'z davrida ilm bilan ham shug'illangan.

Avtoportretlar kolleksiyalarini to'play boshlaganda, Avliyo Luka Rim Akademiyasidan ana shu janrdagi ko'pgina asarlar kolleksiyasini sotib olgan (Evangel Lukani san'atni qadrllovchi va saqllovchi sifatida qadrlashgan, hattoki unga Bibi Maryamning birinchi tasvirini olib kelib berishgan). U qadimiy rassomlarning avtoportretlarini sotib olayotganda, zamonaviy rassomlarni ham unutmagan. Mashhur zamondosh rassomlarning avtoportretlari ham uning kolleksiyasini to'ldirgan. Keyingi avlod ham galereya to'g'risida qayg'urishgan. XVIII asrda gersog Petro-Leopold kolleksiya uchun Abbat Patsiining kartinalar to'plamini sotib oldi. Shunga qaramay, rassomlarning o'zlari kartinalar manbasi bo'lib qoldilar. Ba'zan ularning o'zlari avtoportretlarini jo'natar edilar, odatda, galereya egalari buyurtma qilishar edi. Bunday buyurtma olish juda obro'li edi, chunki muallif tarixning bir qismiga aylanar edi.

Asarlari ana shu mashhur to'plamda mavjud bo'lgan, rassomlar ro'yxati bir nechta sahifalarga uzayib ketgan. Dyurer, Rembrand, Rubens, Velaskes kabi dohiylar tug'ilgan ismlar oldida, XVIII asrning san'ati kabi Bushe singari noma'lum ismlar ko'p. Lekin rus ismlari alohida e'tiborni tortadi: Ayvazovskiy, Kiprenskiy, Kustodiyev, Ivanov va boshqalar.

1819-yil Florensiya rassomchilik Akademiyasidan birinchi bora rus rassomiga Uffitsi galereyasi uchun avtoportretga buyurtma tushdi. Bu rassom Orest Kiprenskiy edi. Yana 12 yildan so'ng bunday sharaf Karl Bryullovga berilgan. Lekin u nima uchundir ishiga sovuqqonlik bilan qaradi va ishini tugallamadi. Hozirda ana shu portret Pe-

terburgdagi muzeyda saqlanadi. 1874-yil kolleksiya o'z davrining mashhur rassomi bo'lgan Ivan Konstatinovich Ayvazovskiy avtoportreti bilan to'ldirildi.

Turindagi Misr san'ati muzeyi

Turindagi San-Karlo maydonida bebaho eksponatlarining kolleksiyalari bilan mashhur Misr muzeyi joylashgan. Muzey juda ulug'vor bo'lib, madaniy va tarixiy o'rinda o'zining birinchiligini Qohira muzeyiga bo'shatib berishi mumkin. Misr muzeyida 30 000 dan ortiq turli xildagi eksponatlar saqlanadi: xo'jalik buyumlari, zebu ziynatlar va buyuk misr sivilizatsiyasiga oid artefaktlar bor. Muzeyning ichida rekonstruksiya yordamida, zamonaviy insonga huddi ularni ichkaridan tomosha qilayotgandek hissini beradigan, qadimiy Misrning ko'rinishi yaratilgan.

Muzey buyumlarining to'planishi, muzey binosining qurilishidan oldin boshlangan. 1730-yilda Sardin qiroli Karl Emmanuel III ning qo'liga Izida ehromi mehrobining taxtachasi (tablichka) tushib qoladi va Misrga ayonlari orasidan Vitalino Donati ismli olimni, yana boshqa qadim misr qoldiqlarini topib kelish uchun jo'natadi. Keyinchalik, Turin kolleksiyalaridagi papiruslar ustida ishlayotgan olim Shampalon ierogliflarni yechishga erishganini e'lon qiladi va Yevropada egiptomaniya to'liqini ko'tariladi.

Muzeyga 1824-yilda asos solingan. Shu vaqtda sirli Misr shahriga katta qiziqishi va san'atga chuqur muhabbati bo'lgan Karlo Alberto di Svoyya, Fransiya general elchisi tomonidan taqdim etilgan Misr kolleksiyasiga ega bo'lgan. Kolleksiya dengiz bo'ylab Genuyaga borgan, keyin quruqlik bo'ylab ozgina sayohatdan so'ng Turinga yetib kelgan. Ma'lum kattalikka ega bo'lgan haykallarni maxsus, otlar bilan egarlangan g'ildiraklarga o'rnatilgan platformalarda tashishgan. Kolleksiyalarning keyingilari turli xildagi savdosotiq yo'llari bilan to'ldirilgan: alohida shaxslardan, auksionlarda, antikvar do'konlardan.

1894-yil Misrga arxeologik ekspeditsiyani uyushtirgan Ernesto Skyaparelli Misr muzeyining direktori etib tayinlandi. Bu Italiya ta-rixida 1903-yildan to 1920-yilgacha bo'lgan davrda, muzey muta-xassislari faoliyatidagi birinchi ekspeditsiya bo'ldi. Muzey shu yillar davomida 17 000 ta eksponatga ega bo'ldi. Arxeologik va ta-rixiy zarvara-qalarida muhim o'rinda me'mor Kxa va uning turmush o'rtog'i Meritning topilmasi bo'ldi. Yana bitta qiziqarli eksponat ser-qoya Ellisey ehromi – 1967-yil muzey kolleksiyasini boyitdi. Ehrom er. avv. XV asrda Faraon Tutmos III ning boshqaruvi, yangi shohlik davrida qurilgan. Bu bebaho me'moriy va tarixiy obida Misr hokimi-yati tomonidan qadimiy Nubiy sivilizatsiyasining merosini qo'riqlash va minnatdorchilik belgisi sifatida taqdim etilgan.

Sues kanalining qurilishi davrida, ehromga Assuan platinasi xavf sola boshladi, to'plangan suv miqdori katta miqdordagi ajoyib qadimiy qurilmalarning saqlanib qolinishiga xavf soldi. Shunda Italiya hozirgi vaqtgacha hech qayerda eshitilmagan aksiyani o'tkazdi – “Qutqaruv” YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan dastur asosida Qadimiy Misr-ning 24 ta ajoyib me'moriy obidalarini saqlab qolindi. Bir qismi shahar-ning turli xavfsiz tumanlariga ko'chirildi, bir qismi esa turli shahar muzeylariga jo'natildi. Masalan, Diobod ehromi Madridda, Dendur ehromi esa AQSH da. Turindagi Misr muzeyining masshtabli va ma-hobatli haykali zallarida e.a. XIII asrda paydo bo'lgan sfinksining 2 ta boshpanasi, shuningdek, butun qora granit palaxsasidan ishlangan faraon Ramzes II ning haykali topilgan. Ikkinchi qavatda mumiyalar, mumiyolashda ishlatiladigan asbob-uskunalarining kolleksiyalari va hatto mashhur Murdalar Kitobidan tortib haqiqiy papiruslar saqlanadi.

Eng qiziqarli va bilim orttirishga ahamiyatli ekspozitsiya – Misr amaldorining “Abadiy dunyosi”ga olib ketmoqchi bo'lgan, shax-siy buyumlar to'plamidir. Arxeologlar qabr ichidan tilla buyumlar, turli asboblari, idish-tovoqlar va hatto ovqat zaxiralarini topishgan. Muzeyda o'z ko'zlaringiz bilan uch ming yil oldin yopilgan haqiqiy Misr nonini ko'rish mumkin, to'g'ri, hozir bu bo'laklar guvala loyni eslatadi, lekin bu fakt!

Turindagi kolleksiyalar ro'yxatini davom ettirish mumkin, lekin hozirda ular qandaydir ma'noda qadrsizlandi va unutilish xavfi ostida turibdi. Muzey mavjudligining ko'p yillik davrida uning asbob-uskunalari eskirib ketdi, vitrinalardagi, eksponatlardagi ayrim ma'lumotlar, oxirgi tekshiruvlardagi ma'lumotlar bilan to'g'ri kelmaydi. Oxirgi bir necha yilda muzeyga tashrif buyuruvchilar soni ham birmuncha kamaydi³⁵.

Aksel Munte uy–muzeyi

San Mikele villasida joylashgan Aksel Munte uy muzeyi Kapri orolidagi sayyohlar davomati juda katta bo'lgan sayyohlik obyektlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi ko'rinishga villa XIX asr oxirlarida ega bo'lgan. Shved yozuvchisi, arxeologi va shifokori Aksel Munte o'zining orzu-niyatlarini amalga oshirish uchun, uzoq yillardagi qidiruvlardan so'ng topilgan ajoyib joyi hisoblanadi. Aynan shu yerda ajoyib artefaktlar va yodgorliklar ekspozitsiyalarining kolleksiyalari bilan to'ldirgan uy muzeyini qurishni boshladi. San Mikele villasi ezgu orzular ushalishining yaqqol isboti. U o'zining ulkan, g'aroyib bino ko'rinishi bilan qandaydir imperator qasrini eslatadi. Lekin uy muzeyiga tashrif buyuruvchilar eksponatlar asl nusxa ekanligini bilib hayron qoladilar. Chunki ular antik davr eksponatlaridir.

Ular muzeyga San Mikele villa xo'jayini Aksel Muntening ko'p yillik mehnati evaziga kelgan. Uning hayot tarixi oddiy, lekin Kapri orolining ajoyib jozibasi bilan to'la.

1876-yil Upsalsk universiteti, Tibbiyot fakultetining iqtidorli talabasi Munte sog'lig'i tufayli o'qishni to'xtatib, shifokorlarning maslahati bilan orolga kelib qolgan. Shifokorlar o'pka ichki qon ketishini davolash uchun, janub iqlimida, dengiz bo'yida davolanishni maslahat berishdi. Shuning uchun Munte Fransiya janubidagi Monpele universitetiga ko'chirildi. 1880-yil Fransiyadagi yosh, oliy ma'lumotli, diplomli shifokor, yashash uchun Kapri oroliga jo'nab ketadi. XIX

³⁵ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 301 p.*

asrlarda Kapri orolining shifobaxsh iqlimi Yevropa amaldorlari orasida mashhur bo'lgan. Kapri oroli bilan bo'lgan birinchi tanishuvdan so'ng, Munte dilida shu yerlarda o'zining shaxsiy uyini qurish orzusi tug'iladi.

O'z davrida Munte ajoyib inson edi. O'zining bemorlarini noan'anaviy uslubda davolagan Munte, amaldor shaxslar orasida ma'lum va mashhur edi. Masalan, uning qo'lida shved qirolichasi davolangan, shu bilan birga, Munte kambag'allarni bepul davolagan. Neapolda xolera kassalligi aniqlanganda, Munte o'zining majburiyatini unutmasdan, birinchilardan bo'lib yordamga oshiqqan. Aynan o'sha yerda uning adabiyotga bo'lgan iste'dodi ochildi. Munte mahalliy shved ro'znomasiga maqolalar yozishni boshlaydi. Lekin unga haqiqiy mashhurlikni, Aksel hayoti davomida villa qurilishi bilan bog'liq xotiralarni aniq yozib o'tgan "San Mikele haqida Afsona" nomli kitob—avtobiografiyasi keltirdi. Ana shu kitob tufayli Aksel Munte ismi shved mualliflari ichida eng kitobxoni ko'p uchlik ichiga kiradi.

San Mikele villasi eng baland tepalikda joylashgan. Aksel Munte ni ziyorat qiluvchilar tog' yo'lining eng qiya yo'li bilan muzeyga ekskursiyaga borishadi. Lekin ana shu Kapri orolining panoramali ko'rinishi, villa galereyasidan Vezuviyga va dengiz oqimiga ochiladigan ko'rinish dunyodagi eng go'zal manzaralardan hisoblanadi. Munte shaxsiy uy qurilishi uchun sotib olingan yer joyida qachonlardir imperator qasri bo'lgan. Shuning uchun quruvchilar guruhi bir necha bora turli xildagi buyumlarni topib olishgan. Keyinchalik ular Aksel Muntening San Mikele villasi kolleksiyalarining bir burchagidan joy olgan. Tepalikda topilgan eksponatlardan tashqari, minnatdorchilik sifatida bemorlar sovg'a qilgan buyumlar, auksionda yoki xususiy kolleksionerlardan sotib olingan va antik davr ajoyib buyumlari Munte to'plamiga kiritilgan edi. Kolleksiya Munte chel el safarlaridan keltirilgan buyumlar bilan tez to'lg'izilar edi. Hozirgi vaqtda Aksel Munte uy muzeyi turli davrlarga bag'ishlangan ekspozitsiyalar, antik davrdan boshlanib to XX asr san'ati to'plamini namoyish etadi.

Freskalar va arxitektura elementlari ko'rinishidagi klassik asr madaniyati (rim, misr, etrusk) juda boy tarzda ochib berilgan. Keng ko'lamdagi kolleksiyalar autentik interyer bilan faxrlansa bo'ladi, ayniqsa, pushti marmardan ishlangan Misr sfinksi haykali San Mikele villasining g'ururi hisoblanadi.

Haykal tashrif buyuruvchilarga teskari devorga yuz qilib o'rnatilgan, shuning uchun sayyohlar uzoq dengizlar ortiga boqib turgan sfinksning sirli yuzini ko'ra olishmaydi.

Keyinchalik Aksel Munte tomonidan butun tepalik sotib olingan, bunday ishga qo'l urgani esa bu insonning go'zal xarakterini ko'rsatib beradi. Tepalikda har yili to'rg'ay ovchilari yig'ilishar, qushlarni ovlab, tamaddixona va restoranlarga, eng mazali ovqat tayyorlash uchun sotishar edi. Munte bir necha bora ovchilarni to'xtatmoqchi bo'lgan, lekin uddalay olmagan. Faqatgina butun tepalikni sotib olgan holda bunga erishadi. Hozirgi vaqtda tepalikdagi restavratsiya qilingan qadimiy qasrda ornitologlar markazi joylashgan.

San Mikele villasining qurilishi Aksel Munte 90 yoshligida tugatilgan. O'sha paytda doktor Muntening ko'zlari xiralashib qolgan edi. Umrining oxirgi yillarini Gustav V ning shaxsiy mehmoni sifatida qirolik rezedensiyasida o'tkazdi. Butun umr mehnatini — San Mikele villasini shved hokimiyatiga topshirdi, shuning uchun shvedlar Kapri orolida o'zining shaxsiy burchagiga — Aksel Munte uy muzeyiga ega.

Rivolidagi zamonaviy san'at muzeyi

Italiyaning Rivoli shaharchasidagi zamonaviy san'at muzeyi 1984-yil omma e'tiboriga havola etildi. Iqtidorli arxitektor Andrea Bruno keyinchalik Italiyaning mashhur zamonaviy san'ati muzeyiga aylantirish maqsadida, 1979-yildan boshlab Rivoli ovchilik saroyini qayta tiklab qurdi. Muzey ekspozitsiyasida Arte Povera (Bechora san'at) art harakati birlashmasi ishtirokchi rassomlarning ajoyib to'plamlari taqdim etilgan. Ular Renessansdan keyin Italiya san'atidagi yangi va mashhur yo'nalish bo'lib qoldi.

Rivoli saroyi aslida Savoysk qirollik dinastiyasining rezidensiyasi bo'lib, me'moriy obida va tarixiy obyekt sifatida ham ko'proq qiziqish uyg'otadi. Saroy qurilishining tarixi IX–X asrlarga borib taqaladi, birinchi yozuvli ma'lumotlarni, saroyga bo'lgan haq-huquq Turin yepiskoplariga biriktirilgani to'g'risida, 1159-yildagi Barbarossa imperatori Fridrix I ning sovg'a qilingan yorlig'ida uch-ratish mumkin. Rivoli saroyining mavjudligini tarixda qoldirgan Savoysk sulolasidagi birinchi monarx Amadey IV bo'lgan. Aynan u 1330-yil qasrni graflik bo'limining muhim ma'muriy – hokimiyat kengashi yig'ilishining maskaniga aylantirdi. Rivoli saroyiga yana bir tarixiy sana mashhurlikni keltirdi, ya'ni Pemont provinsiyasining Turin plashanitsasi nomli mashhur artefakti ilk bora aynan Rivoli saroyida ommaga havola etildi.

1559-yildagi Kato Kambreziyskiy kelishuviga muvofiq, gersog Emmanuel Filibertiga toki birinchi merosxo'r o'g'il tug'ilmaguncha, Turin saroyida yashash man etilgan. Gersogga Rivoli saroyini o'ziga moslashtirishdan o'zga chora yo'q edi, saroy restavratsiyasi ustida arxitektor Askanio Vitots mehnat qilgan. Uch yildan so'ng merosxo'r tug'ilgach, gersog Turinga qaytib boradi.

1644-yil saroyda Savoysk sulolasining pinakotekasiga bag'ishlangan, "Uzun yeng" nomini olgan, g'aroyib me'moriy imorat qurgan Karlo va Amedeo di Kastellamonte ismli arxitektorlar ishlaydilar. Hozirda u XVII asrdan beri saqlanib kelinayotgan regiondagi yagona bino hisoblanadi.

1683-yil fransuzlar Rivolini egallaganlarida, pinakotekaga katta zarar yetdi. Maroderlar kolleksiyaning ko'p qismini o'g'rilab ketdilar, saroyga esa o't qo'yib yubordilar. Kartinalar galereyasi izlari tarixda yo'qolib ketgan ko'pgina qimmatbaho suratlaridan ayrildi. Saroyning butunlay qayta tiklanish davri, fransuzlarning ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng va ularni shahardan butunlay quvib yuborgach, 1706-yilda boshlandi. Saroyning rekonstruksiyasini va qurilish ishlarini me'mor Mikelandjelo Garove boshqardi. Katta hajmli ishlar juda uzoq davom etib, keyinchalik boshqa me'mor – Filippo

Yuvarra tomonidan davom ettirildi. Lekin u ham Savoysk monarxlari rezidensiyasining fasadlarini o'zgartirish loyihasini butunlay namoyon eta olmadi.

Keyin Rivoli saroyi, avvaliga taxtdan voz kechgan, so'ngra fikridan qaytib, taxtni qaytarib olishda omadsizlikka uchragan Viktor Amadey II — qirolning surgun qilingan maskani bo'ldi. Natijada saroy oynalari temir panjaralari bilan to'silib, Savoysk pinokotekasiga kirish taqiqlandi. Bundanda ayanchli taqdir Viktor Amadeyni quvg'in qilishgach sodir bo'ldi, saroy butunlay tashlab qo'yildi va u sekin-asta yemirila boshladi.

1863-yil shahar hokimiyati Rivoli saroyidagi Savoysk uyi mebelarining bir qismini ko'chirib, harbiy kazarmani joylashtirish uchun berib yubordilar. II Jahon urushi davrida saroy katta zarar ko'radi: ustki tomonidan buzilib ketdi va bir necha o'n yil bo'shab yotdi. Faqatgina 1979-yil o'zining devorlari yonida mingga yaqin sayyohlarni qabul qilish uchun yangi ko'rinishda yaralish imkoniga ega bo'ldi. Zamonaviy san'ati muzey 1984-yilda ochildi va o'sha vaqtdan boshlanib Kastello di Rivoli kolleksiyasi butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'ldi.

Urbanistik Arte Povera harakati Turinda urushdan keyin katta masshtabli industrialga uchraganidan so'ng paydo bo'ldi. 1960-yillarda Turinda talabalar hayajonining to'lqini bo'lib o'tdi. Aynan mana shu ikkita voqea "Bechora san'at"ning ma'nosini anglab yetishga sabab bo'ldi. Asarlar hayot tarzida doimiy ishlatiladigan buyumlar va xom ashyodan yaratilgan: daraxt, tuproq, temir, kiyimlar, plastika, rezina, gubka va hatto chiqindilardan (shisha qoldiqlari, eski ro'znomalar, arqonlar va h.).

"Bechora san'at" Rivoli saroyining devorlarida juda ham o'zgacha ko'rinishga ega. Tantanovor zallarining devorlarini va shiftlari bezab turgan xom, dag'al, asketik galereyalar, freskalar juda noodddiy materiallardan ishlangan "bechora san'at" asarlari bilan juda go'zal va ajoyib uyg'unlashib ketgan.

Mana shu uyg'unlashuvda qadimiylik va revolyutsion rassomchilik harakati o'zining yengilligini va odamiyligini saqlab qolgan holda, san'at va atrof olam orasida yangi munosabatlarni bildiradi³⁶.

Spada galereyasi

Spada galereyasi — Rimdagi unchalik katta bo'lmagan muzey bo'lib, u yerga borgan sayyohlar ekskursiyaga ketgan vaqtlariga va moddiy tomondan afsuslanmaydilar. Kardinal Spada va nevarasining shaxsiy san'at kolleksiyasi muzeyning asosiy kolleksiyasini tashkil etadi.

Muzey sifatida Spada galereyasi o'z faoliyatini 1927-yil boshlagan. Bino kardinal hokimiyati tomonidan 1926-yilning kuzida, saroy devorlari orasida hokimiyat Kengashini joylashtirish uchun o'zlashtirilgan. Lekin galereya ommaning tashrifi uchun kam havola etilgan, II Jahon urushi boshlanganda yopib qo'yilgan. Urush Spada galereyasidagi bir qator qimmatbaho rassomchilik asarlarining sirli ravishda yo'qolishiga xalaqit bermadi.

1951-yil Spada galereyasi yana o'zining ekspozitsion faoliyatini davom ettirdi. II Jahon urushidan keyingi qolgan va asrab qolingan kartinalar to'rtta zallarga joylashtirildi.

II Jahon urushidan keyin muzey ochilishiga katta tashabbus ko'rsatgan inson Rim galereyasining Bosh inspektori, professor Akila Bertini Kalosso bo'ldi. O'sha davrda muzey boshida turgan professor Frederi Kosseri ham ekspozitsiyalarni qayta tiklashga katta hissasini qo'shdi. Natijada Spada galereyasi — hozirgi kungacha devorlaridagi polotnolar zalning boy interyeri va dekori bilan uyg'unlashadigan, qadimiy va zamonaviy haykallar saroy mebellari bilan a'lo darajada mos tushadigan qadimiy klassik rassomchilik galereyasining yorqin namunasi.

³⁶ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010. 308 p.*

Spada Galereyasi sobiq kardinal Djirolama Kapodiferoning shaxsiy mulki bo'lgan, saroyning qanotida joylashgan qasr XVI asrning ikkinchi yarmida Kapodifero oilasiga mansub bo'lgan yer-joylarga qurilgan. Qasr qurilishiga arxitektor Bartolameo Borromini boshchilik qilgan. Istiqbolli galereya – muhim diqqatga sazovor Spada galereyasining muallifi hisoblanadi. Galereya saroyning chap tomonida joylashgan bo'lib, istiqbolli galereyani o'rtacha kattalikdagi daraxtlar ekilgan bog' o'rab turadi Daraxtlarni o'sha davrda turli yaratuvchilikka qiziqadigan Borromini o'tkazgan.

Galereyaga qaralganda juda katta, 40 metrli bo'lib, yo'lak oxirida esa katta qanotli haykal ko'rinadi. Lekin tomoshabinlar galereya bo'ylab aylanishganda, yo'lak atigi 8,82 metr ekanligi bilinadi, haykalning bo'yi esa odam bo'yidan sal pastroq. Bunday optik effektga Borromini quyidagicha erishdi: shift galereya oxiriga borib pastlashadi, pol esa aksincha, tepaga ko'tariladi. Galereya yo'lagingning bo'shliq maydoni konussimon bo'lib, torayib, ko'zda chuqurlik effektini berib, yer shakllarining illyuziyasiga ishonasiz.

Birinch qavatda joylashgan rassomchilik galereyasi sahiy met-senat va Borokko davri san'atining ixlosmandi kardinal Bernardino Spadaning shaxsiy to'plamlaridan san'at asarlari qo'yilgan. Keyinchalik kolleksiyalar burchagi Spada oilasi vakillari bilan to'ldirildi: Virdjinio, Oratsio i Fabritsio, Spad Galereyasining kolleksiyalari, asosan XVI – XVII asr mohir ustalarining rassomchilik polotnolaridan iborat. Ularning ichida alohida Gvido Renining kartinalarini aytib o'tish kerak, bittasida kardinal Bernardo Spadaning portreti bor. Titsianning ilk ishlaridan “Musiqachi portreti”, yana bitta Gverchino tomonidan ishlangan kardinalning portreti.

Shu yerda hattoki shaxsiy freskasiga Il - Djezy soborining bezakli gumbazini ishlagan Djovanni Batista Gaulining eskizlarini ko'rish mumkin. Galereyada mashhur Karavadjo uslubini o'z asarlarida ishlatishni xush ko'rgan – italiyalik va fransiyalik rassomlarning ishlari mavjud. Shuningdek, Spada Galereyasida Rubens polotnosi, katta

Breygelya, Djentileskining ham kolleksiyalari mavjud. Muzey qimmatbaho buyumlari deb polotnolarning asl nusxalarini emas, Spada oilasidan boshlab, asl ko'rinishini yo'qotmagan qasr interyerlarini (mebel, antik haykallar, klassitsistik peyzajlar) aytish mumkin.

Galereyada joylashgan haykallar orasida, Spada galereyasining ikkinchi darajali e'tiborga sazovor buyumi — antik Pompey haykali hisoblanadi. O'rta asrlarda haykal Kampodi – Foridan uzoqda bo'lmagan joydan topilgan. Unga qiziqish shunchalik ortib ketganki, haykalga erishish uchun kurash ketgan. Chunki tarixchilarning gapi bo'yicha, Pompey haykalining ostida qachonlardir Yuliy Sezar sui-qasdchilar tomonidan o'ldirilgan ekan. Bunday kurashni to'xtatish uchun Rim papasi Yuliy III marmar haykalni o'ziga oldi. Oxirida esa kardinal Djirolamo Kapodiferroga berib yubordi, u esa Pompey haykalini saroyga olib keldi³⁷.

Fenis qasridagi mebellar muzeyi

Italiyaning shimoliy qismida Valle d'Osta san'atshunoslik provinsiyasi, sayyohlar orasidagi mashhur chang'i kurorti, d'Osta provinsiyasi markazidan uncha uzoqda bo'lmagan joyda Fenis qasri joylashgan. Bir asr oldin hokimiyat xususiy mulkchilikdan sotib olib, uzoq muddatli restavratsiyalardan so'ng 1936-yil bu yerda ajoyib mebellar va interyerlar muzeyi ochildi. O'rta asrning yorqin namunasi bo'lgan qasr o'zining vazifasi bo'yicha ishlatilmagan – harbiy yoki himoya maqsadida foydalanilgan. Lekin hozirgi vaqtda uning ko'rinishi yaxshi saqlanib qolingan. Uning qurilishi to'g'risidagi aniq ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Fenis qasri provinsiyaning janubi-g'arbidagi Sen Jyulen tog'lari etagida, hamma tomondan o'ralgan yerda joylashgan.

Fenis qasri to'g'risidagi birinchi yozma ma'lumotlar 13 yuz yillik sanalari yozilgan qo'lyozmalarda uchraydi. O'shanda qasr Vikonta d'Osta oilasiga qarashli bo'lgan. 1242-yildan boshlab qasr Shallan

¹⁷ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 306 p.*

oilasining uy-joy mulki bo'lgan, lekin afsuski, 1230-yilgacha Eymon de Shallan qasrga egalik qila boshlagan yillargacha qasr to'g'risida ma'lumot yo'q. Deyarli 100 yil, 1330-yildan to 1426-yilgacha, avval Eymon, so'ngra o'g'li Bonifitsiy I tomonidan boshqarilgan yillar qasr uchun eng muhim davr bo'lgan.

Qasrni modernizatsiya qilish Eymon tomonidan 1340-yilda boshlanib, Bonifatsiy tomonidan davom ettirilgan. Afsuski, Eymonning nevaralari va evaralari ham XIV asrga olib chiqilgan qasrning me'moriy statusini saqlab qola olishmadi. XV asrda Fenis qasrining qayta qurish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, ko'p sonli taxt talashuvlari yoki qasr egalarining tasodifiy o'limlari tufayli amalga oshmagan.

Shallan oilasi XVII asr oxirigacha qasrga egalik qilishgan. Oxirgi 10 yilliklar ichida qasrda hech qanday restavratsiya va xonalarni qayta qurilish ishlari olib borilmagan. Qurilish ishlari doim qilinmasdi, agar bajarilgan taqdirda ham yuzaki oqlab qo'yish bo'lgan. Qasr devorlari nafaqat o'zining sekin-asta yemirib borilishidan tashqari, qasr xo'jayinlarining ham o'limlariga guvoh bo'lgan.

1716-yil Salyuche-Pezana oilasi qasrni 90 ming livrga sotib olib, unga egalik huquqini kiritdi. Qasr 20 yil bo'shab yotgani sababli, uning pollari yorilib, shiftlari qulab tushadigan ko'rinishga keldi. XVIII asr davomida qasrni xo'jalik binosi sifatida foydalanilishining hayratlanarli joyi yo'q. Birinchi qavatni og'ilxona va otxona qilindi, ikkinchi qavatdan esa omborxona sifatida foydalana boshlashdi. Ana shunday ho'rlangan holda, qasrdan to 1895-yilning sentabr oyida Italiya elchisi Jozef Rosse egalik qilgunicha, salkam ikki yuz yil foydalanildi.

Elchi Fenis qasrining yangi xo'jayini sifatida atigi bir kun faoliyat ko'rsatdi, ertasiga qasrni hokimiyatga sotib yubordi. Ana shu kundan foydalanib qasrning muzey sifatidagi faoliyati boshlandi. Uzoq muddatli restavratsiya va rekonstruksiyalardan so'ng, qasr hududida mebellar va interyerlar muzeyi ochildi. Bunda kelgan tomshabinlarga turli tarixiy davrlardagi uy-joy holati, mebellari taqdim etilgan.

Qasrning arxitektura ko'rinishi beshburchakli bo'lib, har bir burchagida doira shakldagi minoralar joylashgan, janubi-shar-

qiy va janubdagi minoralar qolganlaridan farqli ravishda kvadrat ko'rinishida. Qasrning, Donjon, bosh minorasini parapet aylanasi bilan birlashgan qo'riqchi minoralar ikki qavatli devori bilan himoya qiladi. Ilgari qasrga xavf tug'ilganda panjara bilan to'siladigan kvadrat minora orqali kirilar edi.

Qasrning birinchi qavatida tomoshabin parad zali, omborxona, oshxona, mashqlar uchun zal va Shalla oilasi qo'l ostidagilaridan oladigan soliqlarni yig'ish uchun mo'ljallangan xonalarni ko'rish mumkin. Ikkinchi qavatida esa uy kapellasini va kichkinagina qabul-xonani hamda qasr egalarining shaxsiy Vikontlar xonasi deb ataluvchi xonalarni ko'rish mumkin. Qasrning ichki devori yog'ochli, terrasali, yarim aylana zinapoya bilan ishlangan. Fenis qasrining devorlaridagi freskalar asosiy e'tiborni tortadi. Tarixchi tekshiruvchilar bu freskalarni 1425—1430-yillarga oid deb hisoblashadi. Ishlar Jakerio rassom tomonidan ishlangan — mashhur rassom Djakomo Jakerio san'at maktabida ta'lim olgan shogirdlarni shunday nom bilan atashar edi.

Freska sahnalari qahramon Georgiy Pobedanossaning ilonni o'ldirayotgan jasoratiga, shuningdek, qo'llarida nasihat va aforizmlari eski fransuz tilida yozilgan qadimiy manuskriptlari bilan turgan turli payg'ambar va donishmandlarga bag'ishlangan³⁸.

Sfors qasri muzeyi

Milan shahrining qoq markazida shaharning ko'p asrlik tarixi bilan bog'langan Sfors qasri joylashgan. Ko'p yillar davomida mustahkam devorlari tashqi dushmanlarning ber necha bora qilgan hujumlaridan va shahar ichidagi taxt talashuvlaridan aziyat chekkan, katta yoshli qasr bir necha marotaba qayta tiklangan. XX asr boshlarida taniqli arxitektor va restavradorlar qasrga hozirgi vaqtgacha tashrif buyuruvchilarni hayratga solayotgan ko'rinishini berishgan. Hozirgi vaqtda qasrda bir qator (musiqiy asboblarni muzeyi, qadim misr muzeyi, tarixga oid va b.) muzeylar mavjud.

³⁸ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 308 p.

Bizning davrimizda ajoyib va magʻrur qasr Milan tarixiy markaziga joylashdi. Qadimda XIV boshlarida, qasrning ilk gʻishtlari terilayotganda, uni markazdan chetqoqqa qurish rejalashtirilgan edi. Umuman olganda, qasr himoyalovchi, mustahkam mudofaa vazifasini oʻtash uchun qurilgan. Inshootning tamal toshi, sulolasi Milanni ikki asr (1277 - 1447) boshqargan gersog Galeatsso II Viskonti boshqargan paytdan, 1368-yilda qoʻyilgan. Sfors qasrining qurilishini esa Milan hokimiyatini 1450-yilda bosib olgan Franchesko Sfors boshqardi.

1466-yil Franchesko Sfors vafotidan soʻng, uning vorislari qasrni gersog qarorgohiga xos koʻrinish berib qurilishni davom ettirishadi. Bezak ishlariga oʻsha davrning mohir ustalari Leonardo da Vinchi, Bramante, Filaretelarni chaqirishadi. Aynan shu davrda qasrning hozirgi vaqtgacha oʻzining goʻzalligini yoʻqotmagan, muhtasham interyerlari yaratilgan. Qasrda ichki hovlichalar, arkadalar bilan oʻralgan goʻzal maydon paydo boʻldi.

XV asr oxirlarida qasr eng goʻzal va boy qasrlardan biri boʻldi. Italiya urushi boshlanganidan soʻng qasr xoʻjayini Lyudovik Sfors qasrni tashlab qochib ketdi, uning barcha mol-mulkini fransuz qiroli Lyudovik XII egallab oldi.

Biroq uning vakili Fransisk I qasrga nisbatan sovuqqon boʻlgan, chunki u fransuz Shamborini va italyan Montenblo qasrlarini xush koʻrar edi. Qasr doimiy boʻsh turaverdi, 1521-yil chaqmoq taʼsiridan Filiarete minorasi qulab tushdi, omboridagi poroxning portlashi natijasida katta talofat koʻrdi. Yaxshiyamki, atrofdagilarga zarar tegmadi. Ispanlar boshqaruvi davrida qasr oʻzining asl mudofaa vazifasini oʻtadi. Shahar mudofaa binolarini mustahkamlash vazifasi bilan ispan yer egasi Ferrante Gonzaga shugʻullanib, qasrni yulduz shaklidagi qurilishlar qatoriga qoʻshdi.

Napoleon boshqaruvi paytida, vatanparvar gersoglar hukmronligiga qarshi xalq bir necha marotaba imperatorga gersoglarning gʻururi boʻlgan Sfors qasrini fransuz Bastiliya qasriga oʻxshab buzib tashlash talabi bilan chiqishgan. Lekin imperator bu talabni rad etib, fransuz harbiylarini joylash uchun qalʼaning bir qator eski qurilmalarini qayta tiklashga buyruq berdi. Koʻp sonli zallar va eskirib ketgan fortifikat-

sion inshootlar buzib tashlanib, qasming katta hududi skverga aylangan. 1833-yil qasrda katta masshtabli restavratsion ishlar boshlanib, Sfors qasri o'rta asrlar ruhidagi romantik uslubini qayta tiklab oldi.

Qasrning qayta tiklash ishlari ancha cho'zilib ketdi. 1861-yil umumiy mustaqil Italiya davlati qayta tiklangach, yangidan kuch to'planib qurildi. Qasr birinchilardan bo'lib qayta tiklanuvchi inshootlar ro'yxatiga tushib, rekonstruksiyasining loyihasi milanlik arxitektor Lukoy Bertrami tomonidan taklif etilgan. Loyiha qasrning VI asrlik umri davomidagi turli yozishmalarda keltirilgan ta'riflarga, qasrning mudofaasi tasvirlangan suratlarga qarab, ularni o'rganib chiqib ishlab chiqilgan.

Qayta tiklangan qasrga ilk tashrif buyuruvchilar 1900-yilning bahor oyida kirishga musharraf bo'lishgan. Rasmiy restavratsiya ishlari 1905-yilda tugallangan. Shundan keyin qasr shahar va shahar aholisiga sovg'a qilingan. O'tgan asrlar davomida qasrda bir qator muzeylar shakllana boshlandi.

Qasrning birinchi qavatida muzeyning barcha boy eksponatlari joylashgan: Leonardoning freskasi, Bellinining polotnosi, Mantene, Korredjo, Lippo va b.. Qasrdagi eng e'tiborga sazovor eksponat deb, buyuk Mikelandjoning oxirgi ishi, tugallanmagan haykal — "Petu Rondanini" hisoblanadi. Ikkinchi qavatdagi tinch galereyada musiqa asboblari galereyasi va Sfors oilasiga tegishli bo'lgan o'rta asrning ajoyib gobelenlar (devorga osib qo'yiladigan suratli gilam) kolleksiyasi joylashgan.

Ispaniya muzeylari

1. Prado muzeyi.
2. Tissen – Bornemis muzeyi.

Ispaniya qirolligi — Yevropaning janubi g'arbida, Pireney yarim orolida joylashgan davlat. O'rta dengizdagi Balear, Atlanta okeanidagi Kanar orollari, Afrikaning shimoliy orollaridagi Seuta va Melilya shaharlari va unga yondosh Velesde-la-Gomera, Alusemas orollari ham Ispaniyaga qaraydi. Maydoni 504,75 ming km². Aholisi 47,27 mil. kishi. Ma'muriy jihatdan o'z parlamentiga ega bo'lgan 17 muxtor regionga, ular, o'z navbatida, 50 ta viloyatlarga bo'linadi. Poytaxti — Madrid shahri.

Ispaniya parlamenti monarxiya. Amaldagi konstitutsiyasi 1978-yil 6-dekabrda milliy referendumda ma'qullangan, o'sha yili 29-dekabrda kuchga kirgan.

Aholisining $\frac{3}{4}$ qismi ispanlar, qolganlari katalonlar, galisiylar, basklar. Rasmiy tili — ispan tili. Ko'pchilik dindorlar — katoliklar. Aholining 78,4% i shaharlarda yashaydi. Ispaniya hududida odamlar quyi paleolit davridan yashaydi. Leridadan Kadisgacha bo'lgan hududlarda mezolitga oid qoyatosh suratlari ko'p topilgan. Miloddan avvalgi VII asrdan Ispaniyaning janub va sharqiy sohil bo'ylari finikiyaliklar va yunonlar tomonidan o'zlashtirila boshlangan. Mil. avv. 700 — 500-yillarda O'rta dengiz sohilida iberlar madaniyati paydo bo'ladi. Mil. avv. V-III asrlarda Pireney yarim oroli orqali kelgan keltlar iberlar bilan qo'shib ketishi oqibatida kelipiberlar shakllangan.

Asosiy tarmoq dehqonchilik qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymatining yarmiga yaqini uning ulushiga to'g'ri keladi. Mamlakat maydonining 71% ida dehqonchilik qilinadi. Ispaniyada vino tay-

yorlanadi, sitrus mevalar, bug'doy, sholi, bodom, tamaki, paxta, sabzavot yetishtiriladi. Oliy nav zaytun yog'i birinchi o'rinda turadi. Chorvachilik yaxshi rivojlangan: qoramol, cho'chqa, echki, qo'y boqiladi. Baliq va dengiz jonivorlari ovlash va qayta ishlashda dunyodagi o'nlikka kiradi.

Ispaniyada 57 ta yirik kutubxona, jumladan, Madriddagi milliy kutubxona va universitet kutubxonasi, Barselonadagi Kataloniya kutubxonasi bor. Ispaniyada 90 ga yaqin muzey bor, Kordova, Valensiya va Seviyadagi badiiy muzeylardir.

Tasviriy san'atga oid qadimiy yodgorliklar Ispaniyada ancha-gina saqlangan. Bular Altamira va boshqa g'orlarning devorlariga chizilgan hayvonlar tasvirlari, mamlakat sharqidagi go'rlardan topilgan kulollik buyumlari va ov, urush manzaralari tasvirlari.

O'zbekiston- Ispaniya munosabatlari. O'zbekiston va Ispaniya o'rtasida VI asrlardan oq aloqa o'rnatilgani, 1404-yilda Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixo Samarqandga kelgani va Amir Temur saltanati haqida estaliklar yozgani tarixdan ma'lum.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, Ispaniya bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda hamkorlik yo'lga qo'yila boshladi. Ikki davlat rasmiy delegatsiyalarining o'zaro tashrifi chog'ida hamkorlikning shartnomaviy huquqiy negizini yaratuvchi bir qancha hujjatlar kelishib olindi. Ikkala mamlakatning savdo- iqtisodiy aloqalari O'zbekistonning Yevropa ittifoqqi bilan munosabatlari doirasida rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Fanlar akademiyasi bilan Ispaniya Milliy tadqiqot kengashi o'rtasida quyosh energiyasini fotoelektr usulida o'zgartirish, yarim o'tkazgichli materialshunoslik sohalarida hamkorlik yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi jahon tillari universiteti Ispaniyaning Granada, Madrid, Alkade de Enares universitetlari bilan aloqa o'rnatgan. Toshkentdagi shu universitetda ispan tili va madaniyati markazi ochilgan. Granada va Buxoro universitetlarining hamkorlik qilishi haqida kelishib olingan.

Prado muzeyi

Muzeyning ochilish tarixi. Prado muzeyi — bu rassomlik va haykaltaroshlik milliy muzeyi hisoblanadi. U 1819-yilda ispan qirolligi va ibodatxona kolleksiyasi sifatida tashkil topdi va omma uchun ochiq deb eʼlon qilindi. Hozirda bu yerda 8600 ta polotno mavjud. Ammo muzeyda joy etishmaganligi sababli ekspozitsiyalarni hammasi qoʻyilmagan. Ispan qirolligining 300 yil mobaynida toʻplangan kartinalari muzey kolleksiyasi asosini tashkil etadi. Avvaliga bu kartinalarning barchasi asosan saroy va cherkovlarni bezatish uchun moʻljallangan edi. Ammo XVI asrdan boshlab Ispaniyaning boshqa Yevropa saroylari bilan madaniy aloqalari kengaydi. Ispaniya tarixida arab bosqinchilariga qarshi kurash — Pekonkista muhim rol oʻynadi. U bir necha yuz yillar davom etdi. Bu urush natijasida Leon, Kastiliya, Aragan qirolligi vujudga keldi. Keyinchalik ular birlashib, hozirgi ispan qirolligiga asos solindi. Koʻp asrlar davomida Ispaniyada sanʼat asarlariga katolik cherkov va monaxlardan tashqari katta buyurtmachilar va badiiy kolleksiya toʻlavchilar boʻlmagan. Anʼanaga koʻra qirol vafotidan soʻng uning kolleksiyasi sotib yuborilgan, yangi qirol yangi kolleksiyalar toʻplay boshlagan. Shuning uchun ham hozirgi Pradoda Kastiliya qirolligi kartinalari yoʻq.

Ispan monarxiyasi arablardan qutulib, turli bosqinchilik rejasini tuzganlar. Ispanlar yangi dunyoda birinchilardan boʻlib oʻrnashib oldilar. Ispaniya oʻziga Niderlandiyani boʻysundirdi. Oʻz badiiy kolleksiyasini saqlab qolishga harakat qilgan birinchi ispan qirolli Karlos I, shuningdek, muqaddas Rim imperatori Karl V Gabsburglar boʻlgan (1500-1558). Karl V chet el rassomlari asarlarini ham toʻplay boshlagan. Uning eng yaxshi koʻrgan rassomlaridan biri Titsian edi. Karl V unga oʻzining ot ustidagi suratini ishlatadi (1548)³⁹.

Karl V ning ot ustidagi portreti. 1548-yilda Titsian Angburgga kelib

³⁹ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 854 p.*

laqat portretlar yaratdi. Mallasariq osmon fonida oldinga intilgan, qora otda bo'lajak g'alaba qozonuvchi, yaltiroq qurol –yaroqlari bilan Karl V tasvirlangan. Qo'lida qilich — Rim imperatorlari ramzi. Imperator kartinada katolik dini himoyachisi sifatida tasvirlangan. Ajoyib ranglar yechimi aks etgan manzara jangga ketayotgan qahramonning maqsadga intilib, ishonch bilan ketayotganini ta'kidlab turibdi.

Karl V Ispaniya poytaxtida aytarli yashamagan. Uning Bryuself shahridagi saroyida noyob rangtasvir kolleksiyalari saqlanar edi. Keyinchalik ular ispaniyaga jo'natildi va Prado muzeyidan joy oldi. Uning o'g'li Filip II taxtga o'tirgach, qirollar kartinalari kolleksiyalarini yanada kengaytirdi va Prado chekkasidagi saroyini shu asarlar bilan bezadi. Karl V va Filip II Ispaniyaga eng yaxshi san'at asarlarini keltirishdi. Italiyadan Monteni, Belini asarlari sotib olindi. Titsian, Tintoretto Veroneze asarlariga buyurtmalar berildi.

Filip IV davrida qirollar kolleksiyasi yanada boyidi. U Velaskes ijodini yuqori baholar edi. Filip IV Makedonskiy iborasini qaytardi: "sendan boshqa hech kim mening rasmimni chiza olmaydi". Qirol o'z so'zida turdi. 1660-yilgacha 40 yil davomida Velaskes ijodi qirollik oilasi va uning yaqinlariga bag'ishlandi. Ko'rgazma xronologik tarzida Velaskesning Rimga sayohati paytidagi kartinalardan boshlangan. U birinchi marta Rimga o'qish uchun borgan. U ko'plab shaharlarda bo'lib, qirol uchun Titsian polotnosini sotib oldi, Tintoretto, Veroneze asarlarini oldi. Muqaddas Luka Rim imperiyasining a'zosi bo'ldi. Uning Rim Papasi Inokentiy portreti hammani lol qoldirdi. Ushbu asar ko'rgazmaga qo'yildi. Madridda Velaskes yosh qirolicha Margaritta portretini yaratdi.

Ko'rgazmaning 3-bo'limi saroy portretlaridan iborat, ularni rasomning shogirdi chizgan. 1628-yilda Madridga Niderlandiyaning diplomatik topshirig'i bilan Buyuk Rubens keladi. Diplomatik roli uni Ispaniyada rangtasvir bilan shug'ullanishiga xalaqit bermadi. U yerda ishlagan asarlarini Ispaniya qiroli sotib oladi. Rubensning vafotidan so'ng, asarlari auksionga qo'yiladi va keyinchalik Prado muzeyiga olib kelindi.

XVIII asrda ispan jamiyatining yetakchilari ommaviy muzeylar tashkil etish lozimligi haqidagi fikrni ilgari surishadi. Ispaniyada bu davrda tabiiy bilimlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham birinchi muzeylar tabiiy ilmlarga bag'ishlangan. 1785-yilda muzey uchun katta parkda joy ajratildi. Shundan muzeyning nomi kelib chiqqan. Karl IV madaniyat ishlariga nihoyatda salbiy qaraydi. 1814-yilda bino qurilishini yakunlash uchun buyruq chiqaradi. Lekin bino fransiyaliklar tomonidan talofat ko'rgan edi. Bino bitgach, muzeyga Madrid va Oranxaesk saroylarida joylashgan badiiy xazinalarni olib kelishadi. Avvalgi Proleoda kartinalar soni kam edi. Muzey uchun asarlar nihoyatda jiddiy tanlanar edi. Kiyimsiz figurali asarlar umuman qo'yilmagan. Avvaliga bunday kartinalarni yoqib yuborish bo'yicha qaror ham chiqqan. Vaqt o'tishi bilan Prado muzeyi fondlari kengaydi. Muzeyga Dello Frinidad va Eskarealdagi kartinalar olib kelindi. Keyinroq Prado qirollik saroyi tarkibida yanada keygaydi. Muzey dekoratsiyasini qabul qilishda yuqori tabaqali kishilardan tashqari san'at ahillari qo'shildi.

Muzey Madrid markazida joylashgan bo'lib, bir necha kvartalni o'z ichiga oladi. Yonida yana ikkita muzey bor: Tissen va qirolicha Sofiya. Ular birga san'at uchburchakligini hosil qiladi. Prado yaqinida ko'plab yodgorliklar joylashgan.

Prado muzeyining nomi "ulug'" so'zidan kelib chiqqan va u ispancha Prado ma'nosini beradi. Muzey binosi Karl III buyurtmasi bilan qurilgan, 1819-yilda ochilgan. Ammo 1830-yilgacha ham to'liq qurib bitkazilmagan. Oldiniga u tabiiy tarix muzeyi qilishga mo'ljallangan edi. 1811-yilda hali bitkazilmagan bino fransuzlar urushida dushman armiyasi uchun otxona bo'lgan. 1814-yilda qirol Ferdinand II muzeyda kartinalar galereyasini ochishga ahd qildi. 1819-yilda qirol farmoni bilan yangi binoda qirollik muzeyiga asos solindi. Muzeyga qirollik kartinalari kolleksiyasining bir qismi berildi.

Prado muzeyi 2007-yilda to'la qayta ta'mirlandi va maydoni ham

kengaydi. U yerda turli ko'rgazmalar o'tkaziladi, ekspozitsiyalar boshqa davlatlarda ham namoyish etiladi.

Har yili bu yerga 2 mln.ga yaqin turist tashrif buyuradi. Muzey 1819-yili 19-noyabrda rasman ochilgan. Uning asoschisi qirol Ferdinand VII ning rafiqasi Izabella Bragandskaya bo'lgan. O'sha davrda kolleksiyani faqat aslzodalar tomosha qilishgan. Faqat oz qismi, ya'ni diniy mavzulardagi suratlar omma uchun mo'ljallangan. Avvaliga muzey ispan rassomlari ko'rgazmasi sifatida rejalashtirilgan, ammo asta-sekin ekspozitsiya kengaydi va hozirgi kunda Prado muzeyida italyan, fransuz, niderland, nemis, flamand rassomlari asarlari bor. Prado namoyishiga qo'yilgan ispan maktabi Bosx, Velaskes, Goya, Murilyoning to'la asarlar to'plamidan iborat. Masalan, Goya kolleksiyasi 30 ta polotnnoni tashkil etadi, ularning barchasi xronologik tartibda joylashtirilgan. Uning ijodi barcha davrlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u yerda ispan rassomchiligining XII asrdan boshlab XIX asrgacha bo'lgan davrini kuzatish mumkin. Flamand maktabidan Bosxning asarlari qo'yilgan.

Italiya maktabi zalidagi asarlar ilk uyg'onish davridan boshlab to XVIII asrgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Karavadjo va Jentileskiy kartinalari 1-qavatda joylashgan. Italiya rassomlarining ko'plab asarlari qirollar Karl V, Filip II, Filip IV lar tomonidan sotib olingan. Ayniqsa, Venetsiya rassomlari ishlari ko'plab olingan.

Flamand rassomlari ishlari muzey kolleksiyasida tasodifan paydo bo'lgani yo'q. Hozirgi Belgiya, Niderlandiya, Lyuksenburg viloyatlari bir yarim asrdan ko'proq ispan tojiga qarashli bo'lgan. Shu sababli ko'plab flamand rassomlari Ispaniyada ishlashgan. 1-qavatda XVIII asr flamand rassomlarining ajoyib asarlari joy olgan: Rubens, Van Deyk, Breygel.

Muzeyda ispan rassomlari asarlari keng namoyish etilgan, ularda turli davrlardagi asarlar o'rin olgan. 1-qavatda El Greko, Velaskes, Ribera, Murilyo va boshqa rassomlar kartinalari o'rin

olgan. Ispaniya rangtasviri ansambli 1 va 2-qavatda Goya asarlari bilan tugallangan.

Nemis maktabi kolleksiyasi uncha ko'p emas, ammo mashhur asarlardan tashkil topgan. XVI-XVIII asr rassomlarining asarlaridan iborat. 1-qavatdagi zallardan biri Albrex Dyurer, Lukas durdonalari bilan to'ldirilgan.

Hozirda muzeyda ingliz rassomlari asarlari kolleksiyasi XVIII asr portretlarini, ya'ni Angliyaning madaniyati rivojlangan davrni va XIX asr asarlarini o'z ichiga oladi. 1-qavatda Geynsboro, Reynolds va Lourens kartinalari kolleksiyasi joylashgan.

XVII asrdagi Ispaniya va Fransiya o'rtasida yaqin munosabatlar hamda ispan qirollari Filip IV va Filip V tomonidan san'at asarlarini sotib olinishi, Pradodagi fransuz rassomchiligi kolleksiyasining asosini tashkil etadi. 1-qavatda Pussen va Loren asarlari namoyish etilgan. Muzeyda 4000 mingtaga yaqin rasmlar bor. Ularning orasida eng yirik kolleksiya Goya rasmlari va estamlari, u rassomning 500 ta asarini o'z ichiga olgan.

XVI-XIX asrlarda Italiyaga olib kelingan 220 dan ortiq klassik haykallar bu janrning arxaika davridan ellinizm va Rim davriga qadar rivojlanganini ko'rsatadi. Kolleksiyani haykaltarosh Leon asarlari to'ldirib turadi.

Muzey zallarida XVI-XVIII asrlarga tegishli haykallar, yozuv stollari, kulollik buyumlari va kichik haykalchalar qo'yilgan. Ular Filip V ga otasidan meros qolgan. Bugungi kunda muzeyda tematik ko'rgazmalar o'tkazib turiladi. Muzey eksponatlari muntazam ravishda boshqa davlatlarga olib chiqib, ko'rgazmalar qilinadi. 2006-yili Budapeshtda Ispan rassomchiligining 500 yilligi ko'rgazmasida Prado kartinalari namoyish etildi⁴⁰.

⁴⁰ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 859 p.

Prado muzeyi xronologiyasi

1809-yil — rassomlik muzeyini ta'sis etish bo'yicha Jozef Bonapard qirollik farmonini chiqaradi.

1810-yil — Bonapard o'z farmoni bilan Plasio Bulnaviste saroyi-da rangtasvir galereyasini ta'sis etadi.

1811-yil — Prado deyarli bitkaziladi, ammo Xuan de V vafot etadi. Fransuz qo'shini Madridni qo'lga oladi va binoni otxonaga aylantiradi.

1818-yil — qirollik muzeyi tashkil topadi.

1819-yil — muzeyning rasman ochilishi marosimi Ferdinand VII tomonidan o'tkaziladi.

1838-yi — jang harakatlari tufayli Pradoga Madrid atrofidagi saroylardan kartinalar keltiriladi.

1869-yil — qirolicha Izabella II ning taxtdan tushirilishi bilan muzey xalq ixtiyoriga o'tgan.

1883—1889-yillari — bino oxirigacha quriladi, yangi zallar qo'shiladi.

1889-yil — gersoginya Pastranda muzeyga 200 ta kartina sovg'a qiladi.

1915-yil — Pablo Bosx vafot etadi va vasiyatiga ko'ra asarlari Pradoga o'tadi.

1980-yil — havo konditsionerlari qilingan birinchi zal ochildi.

1988-yil — qirolicha Sofiya san'at markazi ochildi, unga Pradodan ko'plab ishlar berildi.

1990-yil — 3 tomli kartinalar nashri chiqdi.

1999-yil — muzeyni kengaytirish uchun birinchi bosqich prezen-tatsiyasi 5 ta binodan tashkil topdi.

2007-yil — muzeyning asosiy binosi qayta ta'mirlandi.

Prado muzeyi tarixi va durdonalari bilan tanishib, butun davr bilan to'qnashish mumkin. Filip V muzeyga 1500 ta polotno sovg'a qilgan. Uning o'limidan so'ng, Izabella o'z opasidan merosni sotib oladi va kartinalar ispan toji mulkiga aylanadi. Muzeyning 100 yilligi

nishonlanishi arafasida Dofin Kladdan 11 ta kubok o'g'rilangan, ular Filip V ga meros qolgan edi. Fuqarolik urushi davrida esa kolleksiya 1-qavatga ko'chirilib, qum qoplar bilan yopib qo'yilgan. Ayrim buyumlar Zenevaga olib ketilgan. Ikkinchi jahon urushi vaqtida ko'p suratlar Madridga qaytgan. Urushdan so'nggi inqiroz tugashi bilan muzey yana ochildi. XX asrda muzey fondining ko'payishi, uning ko'rgazma zallarini kengayishiga olib keldi. Binoni orqa tomoniga hovlilar qilinib, tomi yopildi. 1971-yilda maydonni kengaytirish uchun Cansondel Buen Retiro uyi muzey hisobiga o'tdi. Shunday qo'shimcha binolarga qaramay, muzey fondining bir qismi doimiy ekspozitsiyaga kirmaydi. Shuning uchun qo'shimcha bino qurilgan. Shunday qilib, vaqtincha ekspozitsiyaga joy ajratildi: restavratsiya ustaxonasi, auditoriyalar, kafe va ofis xonalari.

Prado muzeyining ispan rangtasviri kolleksiyasini dunyoning boshqa muzey kolleksiyalari bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Umu-man olganda, muzeyning 16 ta zali italyan asarlari bilan to'la. Prado bugun ham, avvalambor, badiiy maktablar, in'omlar bilan to'la — ular ispan monaxlari injiqliklarini ifoda etadi.

Muzeyda Titsianning "Veneraga ta'zim" asari kishini o'ziga jalb qiladi. Rafaelning "Madonna baliq bilan" asari ham juda go'zal ishlar-dan. El Greko asarlarini esa so'z bilan ifodalash qiyin. Masalan, uning "Qo'li ko'ksidagi ritsar portreti" asari. Hech kim unda kim tasvirlan-ganligini bilmaydi. Balki bu rassomning avtoportreti degan taxminlar ham bor.

Velaskesning 50 ta kartinasi orasida eng ommabopi "Menini" kar-tinasidir, unda rangni va yorug'likning ajoyib xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Prado muzeyining kolleksiyasi. Ushbu muzeyda kartinalardan tashqari, amaliy san'at asarlari va 400 ta klassik haykaltaroshlik namu-nalari ham bor. Kartinalar 9000 mingta. Uning chorak qismi qo'yilgan. Chunki muzeyda joy etishmas edi. Shu sababli u o'z filialini ochdi. Bu

yerda Velaskes, Goya, El-Greko asarlari bor. Nemis rassomlaridan Albrext Dyurer, flamandlardan Piter Breygel, Rubens, Van Deyk, Bosx, Veyden asarlari mavjud. Italiyadan Boti-chelli, Rafael va Titsian asarlari qo'yilgan. Muzey ekspozitsiyasi uch qismga bo'linadi:

1 — ispan kartinalari (Karl V davridan boshlab)

2 — cherkov mavzusidagi kartinalar

3 — muzey mablag'iga sotib olingan asarlar.

Muzeyning eng shedevr asari bu — ikkinchi Mona Lizadir. Leonardo da Vinchining “Mona Liza” asarini singlisi deb talqin etiladigan ushbu kartina Prado muzeyida joylashgan. Ushbu nusxa kartina juda qimmat ahamiyatga ega. U ham o'sha davrda chizilgan, hatto u da Vinchi ishlagan ustaxonada yaratilgan. Muzey vakillari bu kartina original asardan nusxa ekanini tasdiqlashadi.

Kartinani restavratsiyasidan keyin uni flamand rassomi chizgan degan xulosaga kelishgan. Ammo ekspertlar asardagi qora fon avvalroq chizilganligini tasdiqlashadi. Uning ostida esa Italiya landshafti borligi aniqlangan. Uning o'lchamlari ham asl nusxaga o'xshaydi. Uni XVI asrda yaratilgan degan xulosaga kelishdi, biroq asar o'sha vaqtdan bizgacha yetib kelgan ko'pchilik asarlarga qaraganda juda yaxshi holda etib kelgan⁴¹.

Ermitaj durdonalari Madridda. Madriddagi Prado muzeyi zal-larida Ermitajdagi eng yaxshi asarlar qo'yilgan. Ularga Mixail Petrovskiy rahbarlik qiladi. Ularni tomosha qilish uchun san'at ixlos-mandlari Ispaniya poytaxtiga butun mamlakatlardan tashrif buyuri-shadi. Prado muzeyi Ermitaj durdonalarini vaqtincha qabul qildi. Unda Frans Xals, Van Deyk, Karavadjo, Pikasso va boshqalarning asarlari mavjud. Prado va Ermitaj o'zaro shartnoma tuzishgan va u yerda ko'rgazmalar o'tkazib turiladi. 2011-yilda Prado va Ermitaj bir-biri bilan eksponatlar almashishdi. Ispan rassomlarining asarlari Budapeshtda ham namoyish etildi. Ushbu o'tkazilgan ko'rgazma “Ispan rassomchiligining 500 yilligi” deb nomlandi.

⁴¹ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010. 862 p.*

Tissen-Bornemis muzeyi

Madridagi Tissen-Bornemis muzeyi “San’atning oltin uchburchagiga” kiradi. Qirolicha Sofiya san’at markazi va Prado muzeyi bilan birga hozirda u Davlat kartina galereyasi, 1993-yilgacha xususiy kolleksiya edi. 2004-yilda qo’shimcha bino qurildi. Ushbu muzey jahon madaniyatida katta ahamiyatga ega. U Yevropa rangtasviri paydo bo’lgan XIII asrdan XX asr oxirigacha bo’lgan davrdagi ekskursiyaga taklif etadi. Muzeyda 50 ta jahon madaniyati durdonalari joylashgan: Karpachcho, Dyurer, Karavadjo, Rubens, Frans Xals, Van Gog, Klel, Xopez — bularning hammasi jahon tasviriy san’atining mashhur kishilaridir.

Jahonning mashhur xususiy kolleksiyalaridan birini Ispaniya poytaxtida joylashtirish to’g’risidagi qarorida Madrid san’atga bo’lgan e’tiborini ko’rsatdi. Tissen muzeyi shaharning eng go’zal rayonlaridan birida joylashgan, ajoyib uchburchak cho’qqisi, ya’ni san’at hiyobonida jahon san’ati xazinasi joylashgan⁴².

Muzey ochilish tarixi. Avgust Tissen Germaniyada yashab ijod etgan (1846-1926), nafis san’at shaydosi bo’lgan, aynan u xususiy kolleksiya yig’ishni boshlagan, avlodlari esa davom ettirgan. Baron Genrix Tissen-Bornemis kolleksiyaning asosiy qismini yig’gan, u Yevropadagi eng boy kishilardan biri bo’lgan. Otasidan ko’plab san’at asarlari va biznes ishi unga meros bo’lib qolgan. Avgust Tissenning kichik o’g’li 1920 — 1947-yillar oralig’ida 500 dan ko’p kartina yig’gan. Ularning oilasi Shvetsariyaga ko’chib o’tadi va u yerda xususiy galereyada o’z buyumlarini qo’yadi. Shu tariqa kolleksiya jahonga taniladi. Oilaviy biznes va kartinalar Genrix vafotidan so’ng merosxo’rlar o’rtasida taqsimlandi. Katta o’g’li baron Gans Tissen-Bornemis otasining merosini kengaytirdi, u italyan rangtasviri bilan qiziqdi, faqat kartinalarni emas, gabilenlarni, zargarlik buyumlarini, keramikani, billurlarni, qadi-

⁴² *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 876 p.*

miy mebellarni yig'di. 1985-yilda Gans uylandi. Uning rafiqasi go'zallik tanlovi g'olibasi edi (Karmen Tissen- Bornemis baro-nessa). Baron to'plamning asosiy qismini Madridga yubordi, u yerda kolleksiyalar Vilyamos saroyiga qo'yildi. Bornemis kolleksiyasi uchun bir qancha mamlakatlar kurashdi.

Hukumat uning asosiy qismini 350 mln. AQSH dollariga sotib oldi. Ammo bu summa real narxidan uch barobar oz edi. Hozirgi ekspertlar u yerdagi kolleksiyalarni taxminan 700 mln AQSH dollariga baholashmoqda. Baronessa Tissen-Bornemis erining vafotidan so'ng kolleksiyalarni ko'paytirdi, ispan hukumati bilan kelishib, to'plamdan o'ziga tegishli qismini davlatga ijaraga berdi. Shartnoma muddati har yili uzaytirildi. Hozirda unga tegishli asarlar alohida korpusda ekspozitsiyaga qo'yilgan, ushbu bino 2004-yilda qurilgan.

Tissen-Bornemis fondini namoyish etish, qayta ta'mirlash, san'at asarlarini saqlash va o'rganish maqsadida tuzilgan, muzeyda turli mavzulardagi konferensiyalar va hattoki konsertlar ham uyushtirilib turiladi. Fond maktab o'quvchilari va sayyohlarni san'at asarlari bilan yaqindan tanishishlari uchun maksimal darajada sharoitlar yaratadi. Ushbu muzey Prado muzeyi ro'parasida joylashgan, uning asosiy kolleksiyasi merosdan olingan. Tissenlar oilasi kolleksiyani 1920-yillardan boshlab to'play boshlaganlar. Unda G'arbiy Yevropa san'atining ilk italyan va flamand ustalarining asarlaridan ekspresionistlari va pop-art asarlarigacha bo'lishi ko'zda tutilgan. Kolleksiyadan barcha Yevropa malakatlari rassomlari asarlari joy olgan. Shuningdek, muzeyda zamonaviy san'at asarlari ham mavjud.

Impressionistlar asarlaridan Vinsent Van Gogning "Yomg'irdan keyin Ovyor ko'chasi" (1988), Tuluz Lotrek — "Gaston Bonfua" (1891), Sezann — "Dehqonlar portreti" (1900), Gogen "Matte Mia", Pikasso "Ko'zguli arlekin" (1923) kabi asarlar bor. Haligacha muzey kartinalar sotib oladi va ular zalda namoyishga qo'yiladi. Muzeyning yangi binosi juda ajoyib qurilgan.

Shimoliy Amerika XIX asr rangtasviri o'ziga xos bo'lib, kolleksiyadan joy olgan. 2004-yilda yangi zallar ochilib, ekspozitsiyalar yanada kengaydi. Ularga shaxsiy kolleksiya ham qo'shildi, ya'ni Karmen to'plagan kartinalar, u 200 ta asarni o'z ichiga oladi. Ko'rgazmalar muzey hayotida muhim o'rin tutadi. Ko'rgazma das-turi yiliga 3 ta an'anaviy ko'rgazmani o'z ichiga oladi.

Bu yerdagi kolleksiyalar soni 800 taga yetadi, unga yana 200 ta kartina qo'shilgan, ya'ni Karmen Tissen-Bornemis kolleksiyasi. Bu muzey Pradoga ajoyib qo'shimcha hamda qirolicha Sofiya markazlariga ham Tissen muzeyini boshqa muzeylardan ajratib ko'rsatadigan tomoni: boshqa ispan muzeylarida qo'yilmagan uslub namunalarining kolleksiyasi mavjudligi: italyan primitivizmi, nemis uyg'onish davri, XVII asr golland rangtasviri, XIX asr Amerika rangtasviri, nemis ekspressionizmi, rus konstruktivizmi, geometrik abstraksiya va pop-art.

Ispaniya hukumati tomonidan 1993-yilda sotib olingan kolleksiya Baron Xals Genrix Tissen-Bornemis va uning otasi baron Genrix tomonidan to'plangan. Baron Genrix o'z kolleksiyasini o'tgan asrning 20-yillarida yaratgan, 525 ta polotno yig'gan. Uning o'limidan so'ng 1947-yilda kartinalar merosxo'rlar o'rtasida taqsimlandi. Ammo uning o'g'li baron Xals otasini kolleksiyasini ko'paytirish maqsadida qarindoshlaridan qolgan asarlarni ham sotib oldi. Otasining Shvetsariyadagi Lugano shahridagi uyida kolleksiyalar saqlangan, biroq bu yer barcha kartinalar uchun torlik qilgan. Baron boshqa joy qidira boshladi. Prado muzeyi yaqinida Ispaniya hukumati tomonidan taklif etilgan bino baronni o'z kolleksiyasini Madriddagi Viyaermost saroyiga ko'chirishga undadi. Bu bino XVIII asr oxirida qurilgan.

Muzey kolleksiyasi. Muzey kolleksiyasi o'z ichiga Yevropa rangtasvirining XIII asrdan XX asr oxirigacha bo'lgan davrini o'z ichiga olgan. Kolleksiya xronologik tartibda joylashgan, ular italyan primitizmidan syurrealizmgacha va 60-yillardagi pop-artgacha bo'lgan oqimlarni kuzatish imkonini beradi.

U yerda Italiya rassomlari (Duchcho di Buoninsenya — “Iso va samarityanka”) va niderlandlar (Yan Van Eyk - Diptix “Cho‘qintirish”) asarlari bilan bir qatorda muzey to‘plamidagi qiziqarli mavzu portretlar hamda kundalik sahnalar, interyerlar va XVII asr golland rassomlari yaratgan manzaralar o‘rin olgan.

XVII asr flamand rangtasviri (“Venera va Kupidon” — Rubens), XIX asr Shimoliy Amerika rassomlari (“Shluz” — Konstabl) va impressionistlar Gogen, Dega, Van Gog, Mone va Renuar asarlari, shubhasiz, estetik zavq bag‘ishlaydi. Kolleksiya syurrealizm va pop-art rassomlari Raushenberg va Lixtoshteyn asarlari bilan yakunlanadi.

Asarlar ko‘pligi sababli eng muhimini tanlash qiyin. Muzey ma‘muriyati fikri bo‘yicha eng qiziqarlisi, Karavadjoning “Avliyo Katalina” hamda Karpachoning yosh ritsar tasvirlangan asarlari hisoblanadi. Boshqa muhim asarlardan “Klarnet ushlagan odam” (Pikasso) va Kandinskiyning “Uchta qizil dog‘li kartina” asaridir.

Keyinchalik Karmen Tissen-Bornemis kolleksiyasini joylashtirish uchun muzeyni kengaytirish loyihasi paydo bo‘ldi. Ispaniya hukumati kolleksiyani sotib olmagandan so‘ng, Tissen-Bornemis oilasi Baronessa yordami bilan yangi ishlarni sotib olib, to‘play boshladi. Hozirda ular 16 ta zalga qo‘yilgan. Kengaytirish loyihasi bo‘yicha ikkala bino ham ajoyib muzey ko‘rgazmasini sig‘dira oladigan darajada katta bo‘shliqqa aylanishi maqsad qilib qo‘yilgan edi. Yangi Tissen muzeyi binoni eski ko‘rinishi bilan yangi dizayni uyg‘unlashtirilgan. Baronessa kolleksiyasini taxminan 300 tasi ijaraga qo‘yilgan va ularning aksariyati manzara janrida ishlangan. XIX asr rangtasviri, Shimoliy Amerika maktabi va nihoyat, kolleksiya yadrosini impressionistlar va postimpressionistlar ishlari tashkil etadi. Tarixiy panorama XX asrning birinchi avangardchilari ishlari bilan tugallangan, bunda asosiy e‘tibor nemis ekspressionizmiga qaratilgan.

Yangi bino qo'shilgandan so'ng, muzeyning yuqori qavatida kuzatuv terassasi qilindi. U yerdan Madridning o'zgacha chiroyini ko'rish mumkin. Bu ajoyib joyda yoz mavsumida restoran ishlab turadi. Vestibyl qanotida suvenirlar va kitob do'konlari joylashgan⁴³.

Tissen-Bornemis kolleksiyasi fondi. Fondning vazifasi kolleksiyasini saqlash, o'rganish, namoyish etish va san'at asarlarini, ya'ni Tissen-Bornemis muzeyi kolleksiyasidagilarni tarqatish. Domo o'zgartiriladigan dasturlar muzeyning kolleksiyasi bilan samarali tarzda tanishib chiqish imkoniyatini beradi va o'quvchi, san'atshunos, sayyoh bo'lishidan qat'i nazar, bilimlarini oshirishga yordam beradi. Tissen o'z fondini namoyish etishdan tashqari, ularni tadqiq etish ishlarini olib boradi, ta'lim va axborot dasturlarini amalga oshiradi. Shuningdek, fond jamiyatda badiiy madaniyatni tarqatishga katta e'tibor qaratadi. Muzey hayotida vaqtincha ko'rgazmalarni tashkil etish muhim o'rin tutadi. Ko'rgazma dasturi yilda 3 ta an'anaviy dasturni o'tkazadi. Bu esa hamdo'stlikni rivojlantirish dasturida hamda reklama aksiyalarida aks etgan.

Ispaniya muzeylari

Prado muzeyi

Qirolicha Safiya muzeyi

Kostyum muzeyi

Tissen-Bornemis muzeyi

Serralbo muzeyi

Temir yo'l muzeyi

Arxeologiya muzeyi

⁴³ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 880 p.*

Portugaliya muzeylari

1. Milliy karetnlar muzeyi.
2. Ajuda milliy saroyi.

Portugaliya Respublikasi — Yevropaning ja-nubi-g'arbida, Pirenei yarim orolida joylashgan. Atlantika okeanidagi Azor orollari va Madeyra arxipelagini o'z ichiga oladi. Poytaxti — Lissabon shahri. Ma'muriy jihatdan 2 muxtor viloyat, 22 okruglarga bo'linadi. Shundan 18 tasi materikda joylashgan.

Atlantika okeani sohillari, past tekislik, qumli, kam parchalangan. Shimolda Meseta yassi tog'ligining chekka qismlarida joylashgan. G'arbida tog'lar dengiz bo'yi past tekisligiga tik tushadi. Teju daryosi janubida Portugaliya past tekisligi bor. Eng chekka janubini Serra-daleshtrella past tog'lari egallagan. Volfram, qalay, mis, temir, qo'rg'oshin, marmar, oltin, kumush konlari topilgan.

Aholisining 99%i portugallar, ispanlar. Rasmiy tili — Portugal va mirandes tillari. Shahar aholisi 35%ga yaqin. Dindorlar — katoliklar. Yirik shaharlari: Lissabon, Portu, Amadora.

Portugaliya hududida poleolit davridan boshlab manzilgohlar bo'lgan. Mil. avv. IV-III asrlardan bu yerda Luzitanlar ya-shagan. Miloddan avvalgi I asr oxirida Rim ixtiyoriga o'tib, uning Luzitaniya viloyati bo'lib qoldi. Mil. avv. V asrning birinchi yarmida svevlar, VI asrning ikkinchi yarmidan vestgotlar hukmronlik qildi. Portugaliya 1992-yilda BMT a'zosi bo'ldi. Xalq monarxiyachi partiyasi 1974-yilda tuzilgan, xalq partiyasi 1995-yilda tashkil topgan.

Portugaliya industrial-agrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 30%, qishloq xo'jaligi ulushi 6% atrofida. Qishloq xo'jaligini asosini dehqonchilik tashkil etadi. Por-

tugaliya hududning 50%i ishlanadi. Shundan 30%i haydaladigan yerlar, 10%i bog' va tok, zaytunzorlar, asosiy oziq-ovqat ekinlari: bug'doy, arpa, iyuli, kartoshka. Orollarda shakarqamish, banan, ananas yetishtiriladi. Chorvachiligida qoramol, cho'chqa, qo'y boqiladi. Sohillarida baliq ovlanadi. Ammo oziq-ovqat aholi ehtiyojini qoldirmaydi. Transportning asosiy turi dengiz kema qatnovidir.

Portugaliya hududida mil.avv. I asrning birinchi yarmidan boshlab rejali uylardan iborat istehkomli manzilgohlar saqlangan. Rimliklardan Evordagi Diana ibodatxonasi harobalari, vetsgotlardan 3 nefli bazilika tipidagi muhtasham saroylar, Aran madaniyatidan guvala turar joylar qolgan. XII-XIV asrlarda ko'plab shahar soborlari va monastir majmualari roman va gotika uslubida qurulgan. Tugab borayotgan romantizm milliy bezak uslubi — "manuelin" uchun asos bo'ldi. Ispanlar hukumronligi davrida qurilish inqirozga yuz tutdi. XVII asr oxiri XVIII asrda shaharsozlik rivojlandi, me'morchilikda borokko va rokoko ustun bo'ldi.

Tasviriy san'ati. Paleolit davridan boshlab qoya rasmlari, neolit davridan dolmenlar, sopol idishlar saqlangan. XII-XV asrlarda gotika uslubidagi haykaltaroshlik rivojlandi. XV-XVI asrlardan Portugaliya rassomligi niderland san'atidan ta'sirlanib taraqqiy etdi. XVII-XVIII asrlarda borokko uslubi mahobatli haykaltaroshlikda namoyish bo'ldi. XVIII-XIX asr boshlarida rassomlikda so'nggi italyan borokko san'ati an'analari klassitsizmning akademik talqini bilan almashdi.

O'zbekiston — Portugaliya munosabatlari. O'zbekiston va Portugaliya o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning me'yoriy huquqiy asoslari shakllangan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov 1996-yil 2 - 3-dekabrda Portugaliyaga rasmiy tashrifi chog'ida havo transport qatnovi va turizm sohasidagi hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolandi. Ikki

mamlakat o'rtasidagi savdo-sotiqda eng ko'p qulaylik yaratib berish haqida kelishib olindi. 2002-yil O'zbekiston va Portugaliya o'rtasidagi Tovar aylanmasi 9,53 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekiston va Portugaliya sarmoyasi ishtirokida "Osiyo to'qimachilik assotsiatsiyasi" korxonasi paxta tolasini qayta ishlash va kalava ipdan mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullangan.

Portugaliyaning to'liq rasmiy nomi — Portugaliya Respublikasi kontinental Yevropadagi eng g'arbiy davlat. Poytaxti — Lissabon shahri. BMT a'zosi.

Milliy karetnlar muzeyi

1726-yilda italyan me'mori Djakomo Adzolini qurgan binoda avval Belenk qirollik saroyi joylashgan, bu yerda aslzodalar otda yurishni o'rganishgan. 1905-yilda Ameliya farmoniga binoan maneji Qirollik karetnlari muzeyiga aylantirildi. Muzeyga kiruvchilar soni juda ko'p. Ularni soni yiliga 200 ming kishini tashkil etadi.

Muzeyda XVII–XIX asrlarda Portugaliya, Italiya, Avstriya, Ispaniya va Fransiyada tayyorlangan karetnlar qo'yilgan. Bosh galereya Luish XVI davri uslubidagi qirollik oilalari karetnlari bilan to'ldirilgan. Ichidan ular qizil va yashil duxoba bilan, tashqarisidan tilla suvi yurgizilgan qirollik gerbi tasviri tushirilgan naqsh va xayoliy sahnalar bilan bezatilgan. Zal oxirida 3 yirik karetna joylashgan. U Vatikandagi Portugaliya elchisi uchun Rimda tayyorlangan, u elchi Juan V tomonidan yuborilgan. Bu karetnlar tilla suvi yurgizilgan haykachalar bilan bezatilgan.

Keyingi galereyada ikkita o'rinli karetnlar qo'yilgan. Pombala davri karetnasi ham juda qiziqarli (XVII asr oxiri). Ular Lissabonning birinchi taksilari hisoblanadi. Ular qora va yashil rangda, bu ranglar 1990-yillargacha taksilar uchun firma rangi hisoblangan.

Eng qadimiy karetnlardan biri — qizil charmli bezak berilgan yog'och karetna, u Ispaniyaning qirolli Filip II ga tegishli bo'lgan.

Milliy muzeyda ajoyib 5 tonnalik, odam bo'yi bilan barobar, tilla haykalchalar bilan bezatilgan kretalar ham qo'yilgan. Shuningdek ikki g'ildirakli kabrioletlar, hashamatli qirollik kretalari, faetonlar va lando qo'yilgan.

Muzey eksponatlarini tomosha qilib, o'sha zamon kishilarining dunyo qarashi, mashhur kishilarning hayoti va odatlari haqida bilib olish mumkin. Milliy kretalar milliy muzeyi — Lissabonning odam eng ko'p kiradigan muzeylaridan biridir. Bu yerda qirollar va kardinallarga tegishli bo'lgan kareta va aravalar joy olgan. Kolleksiyaga portugal, ingliz, fransuz, ispan, avstriya, italyan kretalari kiritilgan. Ularning aksariyati XVII - XIX asrga taalluqli⁴⁴.

Muzeyning ochilish tarixi. Kretalar muzeyi Belem sa-royinining sharqiy qanotida joylashgan. Muzey rasman 1905-yil 23-mayda ochilgan. Uni ochilishini Portugaliya qirolli Karlos I va uning rafiqasi qirolicha Ameliya tashkil etgan. Oldiniga u "Qirollik transport muzeyi" deb nomlangan, unda 29 ta eksponat bo'lgan. Barcha bezaklarda zalning yuqori qismida otda yurish motivlari ko'zga tashlanadi. Shift ostida tuxumsimon medalyonlar shaklidagi bezakli kartinalar joylashgan. Kartinalarning birida Portugaliyani tasvirlovchi kinjal hamda 4 ta kontinentni ramzi hisoblangan 4 ta ayol figuralari ham tasvirlangan. Har bir figura yonida kontinentni bildiruvchi hayvon tasvirlangan: ot — Yevropa, tuya — Osiyo, timsoh — Afrika, to'tiqush — Amerika. Bu kartinaga 300 yil bo'lgan. Ispan qirolli unda 1619-yilda Portugaliyaga borgan kareta yog'ochdan ishlangan.

Portugaliya qirolli Manuel I Lissabon ko'chalarida tilla kretalarda yurgan. Oxirgi yuz yil ichida muzey eksponatlari Ispaniya, Fransiya va boshqa davlatlar kretalari bilan to'ldirib borilgan. Hozirda muzeyda to'plangan jamiki kretalar ikki qavatli binoga sig'mayotganligi sababli, muzey uchun yangi bino qurilmoqda.

Kretalar muzeyi — inson shuhratparasligining bir ko'rinishidir. Rimda 5 ta hashamatli kareta portugal rassomlari eskizlari asosida

⁴⁴ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 676 p.

tayyorlangan. Hozirda ushbu karetalardan 3 tasigina saqlab qolingan. Karetarlar muzeyida turli davrlarga tegishli bo'lgan hamda ko'plab qirollarni qo'shni mamlakat qirollariga, zodagonlariga sovg'a tariqasida bergan karetalari ham yo'q emas. Misol uchun, qirol Kliment XI Portugaliya qiroli Joan V ga sovg'a qilgan "Rim karetsi"ni ham ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, ushbu muzeyni tomosha qilib, qirolicha Mariya Antuanetta, ispan monarxi Filip II, Filip III larni qanday karetalarda yurganliklarini guvohi bo'lish mumkin. Ular XVI asrga taalluqlidir.

Filip II ning karetsi juda oddiy bo'lgan, vaqt o'tishi bilan ushbu muzeydagi karetarlar qiymati yanada qadrlandi, ularni tomosha qilish uchun dunyoning turli burchaklaridan sayyohlar tashrif buyurishadi⁴⁵.

Ajuda milliy saroyi

Ushbu saroy – klassitsizm uslubidagi me'morlik namunasi, Portugaliya qirollik oilasining eng so'nggi rezidensiyasi hisoblanadi. XV-XVII asrlarda boshqaruv monaxlarining qirollik sulolasi uchun Lissabonning Ajuda hududida yog'ochdan saroy qurilgan. Jahon tarixidagi eng kuchli 1755-yilgi Lissabon zilzilasi qirollik uyini ham chetlab o'tmadi. Uni qaytadan yog'ochdan qurishdi. Ammo u 1794-yilda yonib ketdi va ushbu qasrni toshdan qurish rejasi tuzildi. Qurilish ishlari boshlab yuborildi. Me'mor Manuel de Souza rahbarligi ostida kechki borokko uslubida saroy, minora pavilyonlarining pastki qavatlarini qad ko'tardi. Keyinchalik saroy qurilishining dastlabki rejasiga tuzatishlar kiritildi va ko'rinishi o'zgartirildi.

Portugaliya Napoleondan ozod bo'lgach, Ajuda saroyining qayta qurish va tiklash yo'lga qo'yildi. Bu ishlarga me'mor Oakin Possidomo Marsiso de Salva boshchilik qildi. Saroyning ichki tuzilishiga katta e'tibor qaratildi.

1862-yilda g'arb tomonidan hali qurib bitkazilmagan saroy

⁴⁵ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 680 p.*

yotoqxonasiga Luosh I va rafiqasi Maria Pia Lavoyskaya ko'chib kirishdi, aynan shu yerda merosxo'r shaxzodalar don Karlos va don Afonsolar dunyoga kelishdi.

XVIII - XIX asrlarda Portugaliya qirollari qarorgohi bo'lgan Ajuda saroyi Portugaliya monaxlari uylari bilan o'ziga xos xayrlashuv ramzi edi. 1910-yilgi inqilob voqealari monarxiyani yo'qotdi va qirollik saroyini milliy boylikka aylantirdi. 1968-yildan bu yerda muzey faoliyat yurita boshladi.

Ajuda saroyining 30 dan ortiq zallari o'sha davr interyerini tasvirlaydi. Tilla naqshli mebel, geraldika belgisi bosilgan gobelenlar va qirollik hukmronligi ramzlari, rasmlı devorlari, ichki haykali favvoralar, chinnilar kollekssiyasi, mashhur bil-lur qandillar hamda mashhur rassomlarning polotnolari, qirollik oilasi a'zolarining haqiqiy suratlari nafis va chiroyliligi bilan taassurot qoldiradi. Ayniqsa, juda qiziqarli qishki bog', Taxt zali, Xitoy va Laksoniya xonalari, badiiy ustaxonalar o'ziga xosdir. Bu yerga ko'plab sayyohlar tashrif buyurishadi. Saroyda keng omma qiziqishi va e'tibori qirollik kutubxonasiga qaratiladi. Bu yerda juda ko'plab qadimiy, noyob kitoblar mavjud⁴⁶.

Milliy saroyda hozirgi kungacha Portugaliya yuqori tabaqali shaxslarining rasmiy uchrashuvlari va davlat darajasidagi bayramona marosimlar o'tkazib turiladi.

Lissabondagi Ajuda milliy saroyi — Portugaliya qirollarining oldingi qarorgohi, poytaxtdagi neoklassik binolardan biri bo'lgan. Uning qurilishi 1755-yilda zilziladan so'ng boshlangan, avvaliga uni borokko uslubida qurmoqchi bo'lishgan, bu haqda minoraning pastki qavatlaridan bilish mumkin. Ammo 1802-yildan loyihaga Xose de Kostan bosh bo'lgan va unga italyan ustasi Fransisko hamkorlik qilgan. Ular saroy me'morligini butkul o'zgartirib yuborishdi, zamonaviy neoklassik uslubni tanlashdi. XIX asr oxirida Portugaliya g'aznasi bo'shab qoldi. Natijada

⁴⁶ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010. 682 p.*

dastlabki loyihani qirol qaytadan tuzdi va qurilishini qisqartirdi. 1861-yildan Luis I hukmronligida qirol sulolasi saroyda doimiy yashay boshladi. Saroy ko'rinishi butunlay o'zgardi, yon tomonidagi fasadi bosh fasadga aylantirildi. Saroyning yorqin, oddiy bezatilgan devorlari keng yashil bog' o'rtasida ajralib turibdi. Saroy ichkarisida ichki hovli bor, sharqiy tomondagi ikkita minora fasadga aylantirildi. G'arbiy qismi esa tugallanmagan holatda.

Saroy interyeri XIX asrning mashhur portugaliyalik rassomlari tomonidan eklektika uslubida bezatilgan, saroy zallaridan XV-XVII asrlar amaliy san'ati kolleksiyasi joy olgan. Bu yerda qimmatbaho mebellar, haykallar, tilla, kumush va kulolchilik buyumlari bor. Qirol san'atni juda yaxshi ko'rgan. Qirolicha esa taqinchoqlar kolleksiyasini yaratgan, shaxsan o'zi turli xildagi narsalar tikkan. U har kuni yangi libos kiygan, eskilarini esa Karlisha va Alfanso teatriga yuborgan. U saroyini bezagan qimmatbaho mebellar, gilamlar, idish-tovoqlarga buyurtmalar bergan u yerdagi mebellar sakson chinni bilan bezatilgan.

1889-yilda qirol Luish vafot etadi, qirolicha kambag'allarga muruvvat ko'rsata boshlaydi. 1908-yilda qirollik ekipaji o'qqa tutiladi va qirolichaning o'g'li Karlosh I va nabirasi Luish Filippe vafot etadi. 1910-yilda monarxiya to'ntarilgandan so'ng, qirolicha Mariya Piya Portugaliyani tashlab, Italiyaga ketadi. 1911-yilda vafot etadi. Ajuda saroyida esa o'sha davrdan buyon hech kim yashamagan. Portugaliya iqlimi yumshoq bo'lgani uchun hamda u yerda urush bo'lmagani uchun ham saroy bugungi kungacha juda yaxshi saqlangan. G'oya eskizlar bo'yicha qilingan gobelenlar, chinni va dub xonalar, qishki bog', qirolichaning brilliant tugmachali portreti, gilamlar, hammasi muzey eksponatlariga aylangan.

Ajuda milliy saroyi — Praso-du-Komersiu maydonidan g'arbda, 7 km uzoqlikda joylashgan. Ajudaning eski binosi Lissabon yer qimirlashidan so'ng 1761-yilda qurilgan. Bu paytda

qirol Joze oilasi bilan Belensk saroyida bo'lgan. Joze buyrug'iga binoan, Ajudaning tepalikda joylashgan hududida yangi yog'och saroy qad ko'targan.

Saroyning barcha zallari 1938-yilda omma uchun ochilgan. Qirollik saroyining katta qismini muzey egallaydi. Boshqa xonalarda Ajuda kutubxonasi, Madaniyat vazirligi joylashgan. Farmonlar zali, musiqa zali, qirolicha yotog'i, badiiy ustaxona va qishki bog'ni barcha muzeyga keluvchilar ko'rishi mumkin. Bunday hashamatli buyumlarning saroyda ko'pligi XVIII asrdagi boylikdan dalolat beradi. Aynan shu davrda Braziliyada ochilgan elchixonasi banketlar zali, raqs zali o'zining ajoyib ko'rinishi bilan hammani lol qoldiradi. Saroyda hozirgi kungacha Portugaliya hukumati rasmiy marosimlarni o'tkazib turadi⁴⁷.

Portugaliya muzeylari

Milliy karetnalar muzeyi

Arxeologiya muzeyi

Etnologiya va etnografiya muzeyi

Kostyum muzeyi

Azulejush milliy muzeyi

Xarbiy muzeyi

Marionetok muzeyi

Ajuda milliy saroyi

⁴⁷ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010.*, 712 p.

Buyuk Britaniya muzeylari

1. Buyuk Britaniya muzeylari tarixi.
2. Hozirgi kunda Buyuk Britaniyada mavjud muzeylar.
3. London Milliy galereyasi.
4. Britaniya muzeyi faoliyati.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi (ingl. *United Kingdom of Great Britain and Nortxern Ireland*) – Shimoli-g'arbiy Yevropadagi davlat. Buyuk Britaniya oroli (mamlakat hududining 90 %i shu orolda) va Irlandiya orolining shimoli-sharqiy qismida hamda ularga yondosh mayda orollar (Anglsi, Uayt, Normand, Orkney, Gebrid, Shetlend va boshqalar)da joylashgan. G'arbdan Atlantika okeani, sharqdan Shimoliy dengiz o'rab turadi. Buyuk Britaniya mamlakati asosiy qismining nomi bilan ko'pincha Angliya deb ataladi. Poytaxti – London shahri. Tarixan tarkib topgan va milliy jihatdan har xil bo'lgan 4 ma'muriy siyosiy qism (Angliya, Uels, Shotlandiya va unga yondosh orollar, Shimoliy Irlandiya) dan iborat. Normand orollari mustaqil ma'muriy hudud hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada 200 dan ortiq muzeylar mavjud. Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyada muzeylar keng yoyilgan. Ularni barchasining alohida tarix va o'rni mavjud. Bu davlatlarda muzeylar tashkil etish va ularni rivojlantirish borasida keng ishlar olib borilgan. U yerdagi muzeylar dunyoga mashhur muzeylar sirasiga kiradi va har yili ko'plab tomoshabinlarni o'ziga jalb etadi.

Muzeylar turli yo'nalishlarda faoliyat yuritadi. Masalan, milliy muzeylar, uy muzeylari, davlat va tarix muzeylari, qurolli kuchlar muzeyi va boshqalar. Milliy portretlar muzeyi Shotlandiyaning tarixi va bugungi kuniga oid insonlar portretlari bor.

Shotlandiyada "Shotlandiya milliy galereyasi" bo'lib, u yerda davlatning tarixi va bugungi kundan so'zlovchi asarlar namoyish etiladi. Undan tashqari, "Shotlandiya milliy muzeyi" ham mavjud.

U yerda Shotlandlarning milliy kiyimlari, urf-odatları va hayoti haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Bo'lajak muzeyshunos sifatida shuni ta'kidlashim joizki, Shotlandiyada bu sohaning son jihatdan emas, sifat jihatdan rivojlanishiga e'tibor berilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Britaniyada 20 dan ortiq muzeylar mavjud va ularning asosiy qismi Angliya shaharlarida joylashgan. Ularning har biri tomoshabinlarni jalb etish borasida dunyo muzeylari orasida yetakchi o'rinda turadi. Misol tariqasida, London shahrida joylashgan "Madam Tyusso" muzeyini keltirishimiz mumkin. U yerda dunyo tanigan shaxslarning haykallari namoyish etiladi. Hayratlanarlisi shuki, muzeyga kirgan tomoshabin jonli shaxslarni ko'rgandek taassurot oladi.

Londondagi yana boshqa muzeylar: Imperiya qurolli kuchlari muzeyi. London shahar muzeyi, dunyoga mashhur izquvar Sherlak Xolms uy-muzeyi, Tabiiy tarix muzeyi, Viktoriya Alberta muzeyi, Milliy portretlar muzeyi, Britaniya muzeyi, London milliy galereyasi, Teyt galereyasi va boshqalarni ko'rishimiz mumkin.

Undan tashqari, Manchester shahar muzeyi, Lidsdagi Qirollik qurollar palatasini ta'kidlash mumkin⁴⁸.

Angliyada tashkil etilgan birinchi muzeylar tarixi

Ilmiy-ta'lim yo'nalishiidagi birinchi Ingliz muzeyi 1683-yilda Oksford universitetida ochildi va keyinchalik "Ashmol muzeyi" nomini oladi. Bu muzeyning asosini ota-bola Treydeskantlar kolleksiyasi tashkil qiladi. 1656-yilda "Treydeskantlar muzeyi" nomi bilan birinchi katalog nashr qilinadi. Mazkur katalogni nashr qilish va bir tizimga keltirishda Djon Treydeskant (o'g'li)ga uning do'sti huquqshunos va kolleksioner Elias Ashmol yordam beradi. Keyinchalik u Treydeskantlar muzeyi merosxo'riga aylanadi. Muzeyga o'zining

⁴⁸ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 101 p.*

kitoblari va numizmatika to'plamlarini qo'shib, Oksford universitetiga alohida xonada kolleksiyalarni ko'rgazma qilish sharti bilan topshiradi. 1683-yilda muzeyning tantanali ochilishi bo'lib o'tadi.

Milliy darajadagi birinchi muzey Angliyada bir necha o'n yilliklardan keyin ochildi. Uning asoschisi London Qirollik jamiyati prezidenti, shifokor va naturalist Xen Sloun (1660-1753) hisoblanadi. O'sha davrning eng ziyoli kishilaridan bo'lgan Xen Sloun ilmiy ishini kolleksiyalar yig'ish bilan qo'shib olib borgan.

Olim o'zining uzoq hayoti davomida 43 ming kitob, 7 ming qo'lyozmalar, 12.5 ming o'simlik turlari, 334 tom gerbariy, juda ko'p hayvon va o'simlik turlari, 23 ming tanga va medallar, 80 mingdan ortiq san'at asarlari to'plami, etnografiyaning nodir turlari hisoblangan asarlar va cholg'ular to'plagan.

Sloun o'z kolleksiyasini qiroлга meros qilib qoldiradi. Bu merosni joylashtirish uchun London atrofida, Blumsbyerda 40 ming funt sterlingga Montegyu-xaus qasri xarid qilinadi.

Muzey mulki tarkibiga Robert Xarli, Lord Oksfordskiyning ajoyib qo'lyozmalari, Robert Kottonning kitob, tangalar, manuskriptlaridan iborat kolleksiyalari kiritildi. 1759-yilning yanvarida "Britaniya muzeyi" nomini olgan yangi muzey tantanali ochiladi⁴⁹.

Hozirgi kunda Buyuk Britaniyada mavjud muzeylar

Buyuk Britaniya muzeylari ro'yxati

Nomi	Shahar	Elektron manzillar
Britaniya muzeyi	London	http://www.thebritishmuseum.ac.uk/
London milliy galereyasi	London	http://www.nationalgallery.org.uk/
Teyt galereyasi	London, va Liverpul	http://www.tate.org.uk/home/default.htm

⁴⁹ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 104 p.*

Milliy portretlar muzeyi	London	http://www.npg.org.uk/live/index.asp
Viktoriya va Alberta muzeyi	London	http://www.vam.ac.uk/
Imperiyari qurolli kuchlari muzeyi	London va boshqa shaharlar	http://www.iwm.org.uk/
Milliy dengiz muzeyi	Grincinch	http://www.nmm.ac.uk/
Shotlandiya milliy muzeyi	Edinburg	http://www.nms.ac.uk/
London shahar muzeyi	London	http://www.museumoflondon.org.uk/
Manchester muzeyi	Manchester	http://museum.man.ac.uk/home/index.htm
Eshmola muzeyi	Oksford	http://www.ashmol.ox.ac.uk/
Kassik Arxeologiya muzey	Kembridj	http://www.classics.cam.ac.uk/museum/default.html
Tyorks va Kaykos milliy muzeyi	Gran-Tryoj	http://www.tcmuseum.org/
Shotlandiya milliy portretlar galereyasi	Edinburg	http://www.natgalscot.ac.uk/
Shotlandiya milliy galereyasi	Edinburg	http://www.natgalscot.ac.uk/
Qirollik qurollar palatasi	Lids	
Tabiiy tarix muzeyi	London	http://www.nhm.ac.uk/
Sherlok Xolms muzeyi	London	http://www.sherlock-holmes.co.uk/
Tauer	London	http://www.sherlock-holmes.co.uk/
Madam Tyusso muzeyi	London	

Sherlok Xolms muzeyi. London shahrida joylashgan mashhur izquvar Sherlok Xolmsning muzeyi mashhur muzeylar qatorida hi-

soblanadi. Kitobxonlar u haqida detektiv asarlar o'qishni yoqtirishadi. Chunki u aql bovar qilmas jinoyatlarni ham fosh etadi va barchani lol qoldiradi. Hozirgi kunda u haqida ko'plab filmlar suratga olingan bo'lib, tomoshabinlar e'tiborini qozonmoqda.

Londondagi Madam Tyusso muzeyi. London shahrida joylashgan ushbu muzeyda 400 dan ortiq figuralar va portretlar joylashgan. U yerda joylashgan figuralar huddi tirikdek, ba'zilar uni haqiqiy emasligiga ishonishmaydi. Muzeyga yiliga 2,5 million tomoshabinlar tashrif buyuradi. Ular hech qachon yuzma-yuz ko'rmagan mashhur odamlar bilan suratga tushishlari mumkin. Muzeydagi eksponatlarga tegish mumkin. U shunday mashhurki, yaqinda AQSHda filiali ochilgan. Nyu-York va Las-Vegas shaharlaridagi filiallarida Amerikaning barcha mashhur insonlarini ko'rish mumkin. Yana Gollandiya va Gonkongda filiallari ham bor.

London dengiz muzeyi. Bu muzey Buyuk Britaniya poytaxti London shahrida joylashgan. Bu milliy dengiz muzeyi 1934-yil parlament qarori asosida tashkil etilgan va 1937-yil 27-aprelda ochilgan.

London kino muzeyi. Bu muzey 1998-yil Londonning kino instituti vakili Devid Frensi va Lesli Xardkastlom boshchiligidagi tashkil etilgan.

Londondagi Viktoriya va Alberti muzeyi. Londondagi Viktoriya va Albert muzeyi 1852-yilda ochilgan. O'zida katta va kichik hajmdagi kolleksiyalarni jamlagan va 150 ta zaldan iborat⁵⁰.

London Milliy galereyasi

1824-yili 11-mayda Angliyada ilk bor rangtasvir Milliy galereyasi ochildi. Galereya tashkil etish uchun mister Angersteynning 38 ta kartinasi asos bo'ldi. Kartinalarning orasida Klodning manzaralari, Sebastiano del Poboning «Lazarning tirilishi», Titsianning «Venera va Adonis», Rubensning «Sabinyankalarning o'g'irlanishi», shuningdek, Angliyadan chiqqan rassomlardan Xogartning «Rasm bo'lgan

⁵⁰ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 120 p.*

nikoh», Reynoldsning «Admiral Xitfeldning portreti», Uilkinning «Derevenskiy prazdnik» kabi asarlari e'tiborlidir. Bulardan tashqari, yana bir qancha kolleksionerlar ham bo'lgan. Bomontning topshirgan kartinalari tufayli galereyada ularning soni 54 gacha ko'paydi. Galereya ish faoliyatining birinchi o'n yilliklarida Pussenning «Vaxxanaliya», Titsianning «Vaxx va Ariadna», Korredjoning «Savatli Madonna» kabi asarlari sotib olinadi. 1831-yili esa yirik kolleksioner hisoblangan Xoluell-Karr galereyaga o'zining noyob va badiiy qiymatga ega bo'lgan kolleksiyalarini vasiyat orqali topshiradi.

Galereya faoliyatining ilk davrida 44 ta italyan kartinalaridan tashqari, 17 ta boloniyaliklarning polotnolari, 13 ta venetsiyaliklar, 23 ta anglyaliklar, 20 ta fransuzlar (ulardan 10 tasi Klod Lorrenning asarlari), 9 ta flamand, 8 ta golland rassomlari (6 tasi Rembrand qalamiga mansub) ning ishlari mavjud edi. Ispanlar maktabi esa hali to'laligicha o'zini namoyon etmagan edi. Bu noyob san'at asarlarining barchasi kolleksioner Angersteynning uyida joylashtiriladi. Vaqt o'tishi bilan kartinalar ko'payib boradi va to'plangan asarlarga joy yetmay qoladi. Shu sababli 1831-yil maxsus galereya binosini qurish ishi amalga oshiriladi. Qurilma me'mor Uilyam Uilkins loyihasi bo'yicha quriladi. Maxsus bino uchun joy Trafalgar maydonining shimoliy qismidan ajratiladi. Binoning markaziy qismi gumbaz bilan yopiladi. Fasad qismida esa antik davrga xos 8 ustunli peshayvon joylashtiriladi. 1838-yilgacha Angersteyn uyida joylashgan galereya ushbu binoga ko'chirilib, omma uchun tantanavor ravishda ochiq deb e'lon qilinadi. Har yili tomoshabinlar soni oshib boradi. Masalan, 1839-yili ularning soni 114 ming bo'lsa, 1841-yili 538 mingga yetadi. Shu bilan birga, kolleksionerlarning soni ham o'sib boradi. Jumladan, 1838-yili lord Farnbru galereyaga Pussen, Reysdal, Gvardi, Rubens kabilarning kartinalarini berishni vasiyat qiladi. 1851-yili esa taniqli ingliz rassomi Djozef Mallard Uilyam Tyorner 300 ga yaqin kartina va 19 mingga yaqin chizmatasvir, akvarel xomaki ishlanmalarini davlatga topshiradi. 1897-yili Tyornerning asarlari Teyt galereyasiga ko'chirilib, u yerdan 9-zalni egallaydi. Mil-

liy galereyada esa Tyornerning «Didone, Karfagen», «Tumandagi tong otishi» kabi asarlari qoladi. 1855-yili Charlz Istleyk galereyaga direktor etib tayinlanadi. U boshqargan davrda galereya gullab-yashnaydi, uning fondi boyib boradi. Uning galereyaga qilgan xizmati nihoyatda katta. Istleyk ilk Niderlandiya, Germaniyaning Uygʻonish davriga oid kartinalarini, Venetsiya, Boloniya maktabiga oid Kvatrachento davriga doir kartinalarni yigʻib, galereyaga toʻplaydi. Istleykdan soʻng, Uilyam Bonsxol galereyani boshqargan paytida Mikelandjeloning «Tobutga qoʻyish», «Avliyo Ioann va goʻdak ushlagan Madonna» kabi asarlarni qoʻlga kiritadi. Kartinalar soni oʻsib bordi. Shu boisdan galereyaga qoʻshimcha bino qurilishi uchun yana harakatlar boshlanadi. 1876-yili meʼmor Ed Berri loyihasi asosida galereyaning sharqiy qanoti quriladi. 1885-yili esa meʼmor Dj.Teylor tomonidan zinali markaziy vestibul qurilib, galereyaga yana 5 ta zal qoʻshiladi. Zallarning soni koʻpaygani uchun yigʻilgan asarlarni xronologik, sistematik ravishda joylashtirish sharoiti tugʻiladi. Asarlar kelib chiqish joyi, maktabi boʻyicha boʻlinadi. 1871-yili Ser Robert Pil orqali galereyaga koʻp sonli flamand va golland rassomlarining kartinalari kelib tushadi. Ularning soni 70 taga yaqin boʻlib, bu yerda Mestyu, Ostade, Terborx, Xobbem, Rubenslarning mashhur asarlari kiradi. 1875-yili esa Uinn Ellis 94 ta noyob asarlarni Milliy galereyaga taqdim qiladi. Bu kartinalarning 70 tasi Flandriya, Gollandiya, Niderlandiya maktabi rassomlariga tegishlidir. Toʻplangan kartinalarning soni 1000 tadan oshadi. 1880-yilda Galereyaga Leonardo da Vinchining «Qoyalar ichidagi Madonna» kartinasi kelib tushadi. 1889-yili Rafaelning «Madonna Aksidel», Van Deykning «Karl I portreti» kabi asarlari galereya uchun sotib olinadi. 15 yildan soʻng esa, Velaskesning «Oyna ushlagan Venera», 1895-yili el Grekning «Savdogarlarning ibodatxonadan quvilishi» kartinalari galereya toʻplamidan oʻrin oladi. 1903-yili Angliyada yangi badiiy oʻquv yurti ochiladi. Bu badiiy oʻquv yurtining ochilishi galereyaning rivojiga katta taʼsir oʻtkazadi. 1910 — 1915-yillarda galereyaga ilk bor XIX asr fransuz rassomlarining kartinalari kelib qoʻshiladi. Bularga Russo, Dyupre, Diaz, Dobini, E.Mane, Dega, K.Lorren kabi rassomlarning asarlari ki-

radi. Urush davrlari barcha muzeylar kabi Milliy galereyaga ham og'ir keladi. Urushdan so'ng galereyada asarlar saqlanadigan xona tashkil qilinadi. U yerda asarlar yaxshi kuzatuvda bo'lib, ta'mirlana boshlanadi. 1970-yili Milliy galereyaning shimoliy qismiga yangi korpus quriladi. 1975-yili bu qurilma yakuniga yetkazilib, uning tantanavor ochilish marosimi o'tkaziladi. Milliy galereyaning yangi qurilmasida 9 ta katta va 3 ta kichik hajmdagi zallar joylashtiriladi. Umumiy zallarning soni esa 46 taga yetadi. Bulardan tashqari, yangi qurilgan korpusda katta auditoriya tashkil qilinib, u yerda vaqtinchalik ko'rgazmalar, leksiyalar o'tkazilib turiladi. Butun ekspozitsiya uchun mo'ljallangan zallarning 22 tasida italyan rassomlarining asarlari, qolgan 15 tasida Uyg'onish davri rassomlarining ishlari o'rin oladi. Ispan maktabiga oid kartinalar esa 2 - zalda joylashtiriladi.

Hozirgi kunda galereya dunyodagi eng nufuzli Milliy galereyalardan biri hisoblanadi. Unda Uyg'onish davridan boshlab, XIX asrgacha bo'lgan yetuk rassomlarning badiiy qiymatga ega noyob asarlari saqlanadi. Tomoshabinlarning soni esa har yili oshib bormoqda.

Londondagi Britaniya muzeyi

London Milliy galereyasi va Britaniya muzeyi insoniyat tarixidagi jahonning eng mashhur muzeylaridan biri hisoblanadi. Britaniya muzeyi to'plami o'zida taraqqiyotning boshlanishidan hozirgi kungacha bo'lgan davrni aks ettiruvchi 13 milliondan ortiq eksponatlarni mujassamlashtiradi. Blumbosberidagi muzeyga dunyoning eng chekka o'lkalaridan ham mo'jizalar olib kelishadi. Qadim va zamonaviy durdonalar uzoq o'tmishdagi yunonlar, ossuriyaliklar, atsteklar, qadimgi xitoyliklar va hindular tarixini hikoya qiladi. Britaniya muzeyi doktor va olim Xans Sloan kolleksiyasi negizida 1753-yil tashkil topadi. Birinchi marta muzey tomoshabinlarga o'z eshiklarini 1759-yilning yanvarida Blumbosberidagi Montagu Xouseda ochadi va shundan buyon shu yerda joylashadi. Ikki yarim asr davomida muzeyning kengaytirilishi 1887-yilda Janubiy Kensingtonda o'lkashunoslik muze-

yining ochilishiga turtki bo'ldi. 1997-yilgacha zamonaviy Britaniya kutubxonasida jamoat uchun yopiq bo'lgan davrda Britaniya muzeyi o'zining muzey hamda milliy kutubxona vazifasini bajarganligi bilan ahamiyatlidir. London galereyasiga kirish maxsus ekspozitsiyalarni nazarda tutmaganda, umuman bepuldir⁵¹. Britaniya muzeyi dastlabki davrda suratlar galereyasi sifatida emas, balki umumiy tashkilot mi-solida o'ylangan edi. Tabiatshunos olim Xans Sloan (1660-1753) tufayli bu muzey dunyo yuzini ko'rdi. O'z hayoti davomida Sloan antiqa buyumlar kolleksiyasi to'playdi va o'limidan so'ng bu kolleksiyaning tarqalib ketishini xohlamaydi. Shu sababli uni qirol Georg II ga vasiyat qilib ketadi. O'sha davrlarda Sloan kolleksiyami 71 ta predmetdan iborat bo'lgan: 40 mingta kitob, 7 ming manuskriptlar, 337 tom gerbariyalar, reproduksiya, grafika, Alibrex Dyurer ishlari, Misr, Gretsiya, Rim, Uzoq va Yaqin Sharq va Amerikadan keltirilgan asori atiqalar. 1753-yilda qirol Georg II muzey tashkil qilish haqidagi farmonga imzo chekadi. Ushbu farmonga muvofiq, Sloan kolleksiyasiga yana 2 ta kutubxona: Elizaveta davriga mansub Robert Kotton tomonidan to'plangan Cottonian Librari hamda gersog Oksfordlarga mansub Xarleian Librari kutubxonalari qo'shiladi. Ular 1757-yilda qirollik kutubxonasiga birlashtiriladi. Britaniya muzeyi qirollikka ham, cherkovga ham tegishli bo'lmagan, omma uchun ochiq bo'lgan yangi tipdagi milliy muzeylardan. Bugungi kunda muzeyda tabiatshunoslikka oid to'plamlar yo'q, kitoblar, manuskriptlar Britaniya kutubxonasiga o'tkazilgan. Ekspozitsiyalarning xilma xillik darajasi yo'qotilgan bo'lsa-da, 250 yil davomida Britaniya muzeyi ekspozitsiyalar soni 13 millionga, Tabiatshunoslik muzeyida 70 millionga, Britaniya kutubxonasida 150 millionga ko'paydi va bu ko'rsatkich yil sayin o'sib bormoqda.

Fransiya muzeylari

⁵¹ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 116 p.*

1. Luvr muzeyi.
2. Orse muzeyi.
3. Pompidu markazi.
4. Versal saroyi.
5. O'rta asr muzeyi.
6. Gime Sharq san'ati muzeyi.

Luvr muzeyi

1694-yilda abbat J.B.Buazo Bezansondagi avliyo Vinsent cherkoviga o'zining kitoblar, medallar, tangalar, kartinalardan iborat to'plamini, o'qish davomida barcha xohlovchilar uchun ishlatish mumkin bo'lishi sharti bilan taqdim qiladi. Shu tarzda birinchi fransuz muzeyi paydo bo'ladi. Milliy mohiyatga ega bo'lgan Luvr muzeyi oradan yuz yillar o'tgandan keyin qo'zg'alonlar jarayoni davomida tashkil qilindi.

Tarixga Luvr nomi bilan kirib kelgan saroy binolari kompleksi ko'p asrlar davomida qurildi. Luvrning qiyofasi XVII asrda paydo bo'ladi.

Luvr fransuz qirollarining saroyi kabi nafaqat me'moriy yodgorlik, balki eng mashhur muzeylardan biridir. U yerdan turli xildagi boy kolleksiyalar o'rin olgan: ossuriyaliklar saroyidan topilgan barelyeflar, Misr rangtasviri va b.

O'rta asr qal'asi keyinchalik saroyga aylanib, XII asrda Filipp Avgust tomonidan qurilgan. Keyinchalik Luvr bir necha marta qayta qurilib, o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirgan. Yillar o'tib, qirollar o'zgargan. Kimdir Luvrda yashagan, kimdir esa faqat ish olib borgan. Lekin ularning hammasi saroy uchun o'z davrida o'zgartirishlar kiritishgan. 1682-yil qirol saroyi Versalga o'tkaziladi, hamma ishlar to'xtatiladi va Luvr tanazzulga yuz tutgan edi. 1750-yilda hattoki, bu binoni buzib tashlash haqida ham so'z borgan edi⁵².

Bu davrda "Kvadrat hovli" atrofida va Sena bo'yida Luvrning dabdabali korpuslari qad ko'tarib, K.Perro loyihasi bo'yicha mash-

⁵² *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 290 p.*

hur Sharq “Kolonnada”si dunyoga keladi hamda hashamatli zallar bezatiladi. 1670-yillarda Sh.Lebren loyihasi bo’yicha qirollikning shahar tashqarisidagi yangi ajoyib rezidensiyasi — Versalning qad rostlashi munosabati bilan Luvr qurilishi to’xtatiladi. 1682-yilda Lyudovik XIV (1643–1715) bilan birga fransuz qirolligi ko’chib o’tadi. Luvrda Versalga fransuz qirolligining zallarini, galereyalarini bezab turgan ko’plab badiiy asarlar kolleksiyasi ko’chiriladi. Bu davrga kelib fransuz madaniy hayotiga aylanib ulgurgan Luvr bu bilan qashshoqlashib qolmadi.

Inqilobdan so’ng, Luvr qurilish ishlari Napoleon tomonidan olib borilgan. 1871-yilda qasr zamonaviy ko’rinishda edi. Kolleksiyalarning tezda yig’ilishi, bugungi kunda mashhur kolleksiyalar Fransisko I ga tegishli bo’lib, XVI asrda yig’ila boshlagan. Bu kolleksiyalarni Lyudovik XIII va Lyudovik XIV lar to’ldirib kelishgan.

XVI-XVII asrlarda Genrix IV ning farmoyishiga binoan, katta galereyaning pastki qavatida mashhur rassomlar, haykaltaroshlar, zargarlar, soatsozlar joylashtiriladi. Versaldan qirollik ko’chib ketganidan so’ng, Luvrda Tasviriy san’at va haykaltaroshlik akademiyasi, Fanlar akademiyasi joylashadi. Luvrda akademik rassomlarning ko’rgazmalari o’tkazila boshlaydi. Ammo fransuz tojining mashhur kolleksiyasi omma uchun yopiqligicha qoladi. 1750-yilda Lyuksemburg saroyida omma uchun haftasiga ikki kun uncha katta bo’lmagan ekspozitsiya tashkil qilinadi. Fransuz jamiyatida muzey tashkil qilish zarurligi haqida fikrlar paydo bo’la boshlaydi. Jamoatchilik fikri ta’sirida Lyudovik XVI tomonidan tashkil qilingan davlat komissiyasida Luvrda milliy san’at muzeyi tashkil qilish g’oyasi o’rganib chiqiladi. 1789-yilgi fransuz inqilobi yakka monarxiyani tugatadi va milliy muzeyni Respublika davlati qaramog’ida tashkil qiladi. Yangi hukumat qonun asosida qirollik kolleksiyasini, cherkovni hamda surgun qilingan aristokratlarning mulklarini milliyalashtiradi.

1792-yilning sentabrida Konvent Luvrda Fransiya muzeyi tashkil qilinishi to’g’risidagi qarorni qabul qiladi va u 1793-yil 10-avgustda

tomoshabinlar uchun ochiladi. Muzey kolleksiyasi ko'payishida Napoleon I ning o'rni beqiyosdir. Har bir g'alabasidan so'ng, u, millatdan san'at asari ko'rinishida hadya talab etgan. Bugungi kunda muzey katalogidan 400 mingdan ortiq eksponatlar o'rin olgan.

Luvr kolleksiyasi ibtidoiy jamoa davridan boshlab davrma-davr berilgan. Shu orqali muzey ensiklopedik ilmiyligiga egadir. 1981-yildan republika prezidenti qarori tomonidan Luvr ta'mirlandi. Eng qadimiy qismi (bosh minoraning xarobasi) qayta tiklandi. Napoleon hovlisida mashhur piramida paydo bo'ldi, yangi zal va hovlilar orasidagi o'zaro bog'liqlik yaratildi. Piramida muallifi – xitoy millatiga mansub amerikalik me'mor Yox Ming Pi⁵³.

Versalda fransuz maktabining maxsus muzeyi, Parij botanika bog'ida tabiiy tarix muzeyi, Sen-Martin de Shamp cherkovida jahondagi birinchi fan va texnika muzeyi — san'at va hunarmandchilik konservatoriyasi tashkil qilinadi. 1796-yilda Luvrda Respublika san'at muzeyi, keyinchalik Markaziy san'at muzeyi paydo bo'ladi. Ammo bu muzeylardagi asarlarning joylashtirilishi, ularning saqlanishi talab darajasida emas edi. Bu omma orasida noroziliklarga sabab bo'la boshlaydi. XVIII asr muzeylar tarixida burilish davri bo'ldi. Madaniyatning buyuk ijodi insoniyatning estetik, ma'naviy va intellektual tarbiyasida asosiy vosita ekanligi jamiyat dunyoqarashiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli yuz yillikning ikkinchi yarmida ommaviy muzeylar paydo bo'lishi tabiiy holga aylanadi.

Orse muzeyi

Orse (fr. Musée d'Orsay) – tasviriy va amaliy san'at muzeyi Sena daryosining 7 okrugida joylashgan. Orse muzeyi shu nom bilan atalmish temir yo'l vokzalida joylashgan va Luvrga daryodan o'tib boriladi. Vokzal Viktor Lalu me'mori tomonidan loyihalashtirilgan. Bu 1900-yil 28-mayda ochilgan va dunyoda birinchi elektrlashtirilgan vokzal bo'lgan. vokzal Parij-Orlean yo'nalishi bo'ylab xizmat

⁵³ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 295 p.

qilgan. 1939-yilda esa vokzal harakati to'xtatiladi.

1971-yilda binoni buzish bo'yicha qaror chiqadi. Lekin bu amalga oshmaydi, chunki Jorj Pompidu prezident vaqtida ushbu vokzalni muzeylashtirish taklifini kiritadi. 1978-yilda bino tarixiy yodgorlik maqomiga erishadi. Pompidu vorisi Jiskar d'Esten vokzalni rekonstruksiya ishlariga bosh bo'ladi va u muzeyga aylantiriladi. 1980-yil ish boshlab, 1986-yilda bu yerda muzey ochiladi, italiyalik me'mor Gae Aulenti tomonidan loyihalashtiriladi.

Muzey kolleksiyasi yirik fransuz rangtasviri va haykaltaroshligi, 1848 — 1914-yillariga tegishli kolleksiyalar asosini impressionistlar va postimpressionistlar asarlaridan iborat. Kolleksiya arnuvo uslubi-dagi dekorativ san'at asarlari, fotolar va me'morchilik predmetlari bilan boyitilgan.

Muzey ko'rgazmasi 3 xil toifada joylashtirilgan, san'atning hamma turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik, mebel, kino foto, musiqa, operaning badiiy bezak berilishi va b.) xronologik tartibda namoyish etilgan. Orse muzeyi, shu bilan birga, Luvr muzeyi va Jorj Pompidu Markazi zamonaviy san'at muzeyi kolleksiyalari bilan to'ldirildi. Orse muzeyi spektakl va konsertlar o'tkazish joyi hamdir. Shu bilan birga, bu yerda har yili kinoning kelib chiqishiga bag'ishlangan festival bo'lib o'tadi⁵⁴.

Pompidu markazi

Jorj Pompidu (fr. Centre national d'art et de culture Georges-Pompidou) nomidagi san'at va madaniyat milliy markazi, oddiy nom bilan Jorj Pompidu markazi (fr. Centre Georges-Pompidou) 1977-yilda ochilgan va Fransiya prezidenti Jorj Pompidu nomi bilan bog'liq. Markazning asosiy faoliyatiga plastikani o'rganish va zamonaviy san'atni, XX asr san'atini turli xil ko'rinishini (tasviriylar san'at, raqs, musiqa va b.) qo'llab-quvvatlash kiradi.

Markaz Luvr va Eyfel minorasidan so'ng uchinchi o'rindagi Fransiya madaniy merosiga kiradi. Pompidu Markazi Parijdagi zamonaviy san'at

⁵⁴ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 299 p.

muzeyini, katta kutubxonani, konsert va ko'rgazma zallarini, tadqiqot institutini, akustika va musiqa koordinatsiyasini o'z ichiga oladi.

Pompidu Markazi oldidagi umumiy maydonda rassomlar, sayyor artistlar, musiqachilar va sirkchilar o'z mahoratlarini namoyon etadilar. Pompidu Markazi o'ng tomonida kichik maydondan Stravinskiy nomi bilan atalgan ekstravagant favvora o'rin olgan.

Zamonaviy qurilish binosi va Parijning eng katta markazining uzunligi 166 m, kengligi 60m va balandligi 42 m ga teng. Ushbu yangi loyiha tanlov asosidagi 680 ta loyiha orasidan saralab, tanlab olinib, Renso Peno va Richard Rodjerslar tomonidan amalga oshirilgan. Me'morlarning original g'oyasi barcha texnik konstruksiyalarni mujassamlaydi⁵⁵.

Versal saroyi

Versal saroyi (fr. Chateau de Versailles) — Parijdan 24 metr uzoqroqda joylashgan saroy-bog' majmuasi. Qirol Lyudovik XIII bu yerda uncha katta bo'lmagan qasr qurishni rejalashtiradi, ya'ni ov uchun mo'ljallangan bino. Uning o'g'li esa Lyudovik XIV – 1660-yilda Versalni ajoyib saroy-bog' ansambliga aylantiradi. 1666-yildan 1789-yilgacha doimiy qirol qarorgohi bo'lgan. Versal qurilishi bir necha oylar davom etgan, unga yirik mablag' va minglab ishchilar jalb etilgan edi.

Buyuk Fransiya inqilobidan so'ng Versal muzeyga aylantirildi. Bu qirol qarorgohida Fransiya uchun va jahon tarixida ham muhim bo'lgan ko'plab xalqaro shartnomalar imzolangan. Masalan, 1783-yilda AQSH mustaqilligi uchun urushni to'xtatish shartnomasi, 1789-yilda Inson va fuqarolar huquqi deklaratsiyasi, okkupatsiya davrida germaniyalik harbiylar Versalda Germaniya imperiyasini tuzish e'lon qilingan, 1919-yilda Birinchi Jahon urushini to'xtatish shartnomasi imzolangan, Versal tizimi boshlanishiga ham xizmat qildi – urushdan keyingi xalqaro aloqa tizimi deb nom oldi.

1979-yilda Versal saroy-bog' majmuasi YUNESKO butunjahon madaniy meros ro'yxatiga kiritildi. Versal qurilishi absalyutizm

⁵⁵ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 312 p.*

o'z kuchini eng yuqori cho'qqisini egallaganda o'ylab topilgan va amalga oshirilgan. Absalyutizm inqirozga yuz tutgan yillar Lui XIV podsholigida Versalning qullash davri edi. Qurilishda markazlashtirilgan monarxiya g'oyasi aks etgan, feodal tarqoq davlat birlashtirilib, yagona Fransiya aylantirildi. Ijtimoiy qayta qurilish va xo'jalikning rivoji Versal qurilishi bilan bog'liq va muvaffaqiyat shu yo'sinda aks etgan. Oynali galereya nafaqat yangi yorug'lik va fazoviy yechimni beradi, balki Fransiya oyna sanoati rivojini ham aks etadi, uning birinchi yutug'i bo'lib, Venetsiya oynalari bilan raqobatlashgan.

Qadimiy xronika bo'yicha XVII asr boshida Versal uncha katta bo'lmagan shaharcha bo'lgan. bo'lajak saroy o'rinda charxpalak bo'lgan, atrofi esa dala va botqoqliklardan iborat bo'lgan. 1624-yilda Lyudovik XIII buyurtmasiga binoan, Filiber Lerua me'mori tomonidan kichkina ov uyi qurilgan. Bu uy P—ko'rinishida bo'lib, bugungi kunda ushbu qasr ham saqlanib qolgan.

Lyudovik XIII kichkina qasrining qayta qurilishi eng zo'r me'mor Levo tomonidan amalga oshirilgan. Saroyning bezaklari yangilanib, oranjereya paydo bo'ldi. 1668-yilda yangi xonalar paydo bo'ladi, marmar saroyi devorlari saqlanib qoladi, tashqi fasadning katta qismi yo'q qilinadi. G'arbiy fasad uch marta uzunroq bo'ladi, eski binoning birinchi qavati qayta qurilgan. Yuqori qavat ayvonga olib chiqadi, marmar saroy bilan bog'ni birlashtiradi. Ikki nafis binolar shimoliy va janubiy fasadlarni uzaytiradi. Janubiy qismida qirolicha zinapoyasi bor, shimoliy zinapoya elchilar uchun bo'lgan. Levo saroyning tantanavor qismini bezashga ulgurmas, uning o'limidan so'ng ishini Fransua D'obre davom ettiradi. U ikkita pavilyonni panjara bilan fasadning sharqiy chiziqlari orqali o'rnatgan. Shunday qilib "Qiroli saroyi" tugatiladi. Levo tomonidan yaratilgan Versal Mazarini kardinali o'limidan so'ng unchalik mahobatli ko'rinishga ega emas edi. Uni o'zgartirish uchun XVII asr oxirida yirik me'morlardan biri Jyul Mansar taklif etildi.

Uning rahbarligida saroy yanada mahobatli bo'ladi: 500 metrdan shimoliy va janubiy fasadlari tomon ikkita qanoti quriladi. Shimoliy qismida cherkov joylashgan. Ayvon tepasida yana ikki qavat qurilib, oynali galereya yaratildi. Urush va tinchlik zallari tugatiladi.

Undan tashqari, Mansar ikki korpusdan iborat vazirlar saroyini ham yaratadi. Bino tashqi ko'rinishini o'zgartiradi, lekin balandligi qoladi. Mahobatlilik paydo bo'ladi, katta o'lchamdagi va oddiy sokin ritmdagi kompozitsiyadagi barcha elementlar yagona butunlikni namoyish etadi.

Versal landshaft me'morchiligi shedevr hisoblanib – saroy bilan bog'ni alohida ko'rish mumkin emas. Saroy qurilishi Levo tomonidan boshlangan bo'lsa, Andre Lenotr Fransiya tarixiga Versal qirol bog'boni bo'lib kirib keldi. Uning g'oyasi bo'yicha Parijdagi Tyuilri bog'lari, Londondagi Marli, moliya vaziri Fukega tegishli Vo-le-Vikont bog'lari yaratilgan. Fuke, ya'ni yosh monarx qioldan ham zo'r bog'ga ega bo'lgani uchun hatto qamoqqa olingan edi⁵⁶.

O'rta asr muzeyi (Parij)

O'rta asr muzeyi (fr. musée du Moyen Âge – thermes et hôtel de Cluny), uning to'liq nomi (Urta asr muzeyi- Klyuni termi va qasri) – binoning qisqa tarixini o'z ichiga oladi: XII asrda Rim termi o'rniga Klyuni ordeni monastiri quriladi, XV asr oxirida abbat Jak Ambuazkiy monastir yonida qasr quradi. Fransiya inqilobi davrida monastir milliyalashtiriladi, 1832-yilda bu yerda shaxsiy muzey joy oladi va 1843-yilda davlat tomonidan sotib olinadi.

Muzey binosining o'zi oxirgi eksponat emas, muzeyda XII-XIII asrga tegishli yog'och va toshdan yasalgan haykallar, gobelenlar, vitrajlar, miniatyuralar, fil suyagidan yasalgan buyumlar, Bibi Maryam sobori haykallari va b. mavjud bo'lgan.

Fransuz inqilobi davrida Bibi Maryam sobori diniy bino funksiyasini bajarishni to'xtatadi. Shu bilan birga, Yakobin Konventi "yer yuzidan barcha qirollik emblemalarini o'chirishni" buyuradi. Robesperaning alohida qarorida sobor fasadidan toshdan yasalgan qirollarni boshini olib tashlashni buyuradi.

⁵⁶ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010. 318 p.*

1978-yilda tashqi savdo Fransiya banki yerto'lasining ta'mirlash vaqtida Iuda qirolining boshi topiladi. Shu vaqtda boshidan o'rganiladi va ta'mirlanadi. XIX asrda buzilgan haykallar nusxasi bilan soborni bezatishgan. Topilgan original buyumlar Klyuni muzeyida namoyish etilgan⁵⁷.

Gime Sharq san'ati muzeyi

Lion sanoatchisi Emil Gime (1836-1918) Misr, Osiyo xalqlari dini-ga, shuningdek, antik davr dinlariga ham bag'ishlangan muzey yara-tishni o'ylaydi. Bo'lajak muzey uchun E.Gime tomonidan yig'ilgan kolleksiya asos bo'ladi. Ya'ni uning Yunoniston, Misr, Yaponiya, Xitoy va Hindistonga qilgan sayohati davrida yig'ilgan. Bu kolleksiyalar bi-rinchi bo'lib, 1879-yilda Lionda, 1889-yilda esa Parijda namoyish etil-gan.

Gime hayotligida muzey osiyocha tizimlashtirilgan. Antik davr dini ikkinchi daraja bo'lib, uning xonasini Sharl Vara koreys kolleksiyasiga berishadi, ikonografik zallari 1912-yilda Jak Bako tibet kolleksiyasi os-tida ozod bo'ladi.

1882-yilda Parijda Indokitay muzeyi Trokaderoda ochiladi, Kam-badju va Siamda Lui Delaparta ekspeditsiyasi kolleksiyasini bir-lashtiriladi. 1927-yilda Indokitay muzeyi Gime muzey kolleksiyasiga kiritiladi.

1920 — 1930-yillarda muzeyni Afg'onstondagi Fransiya arxeologi-ya vakilligi boy hadyalar bilan to'ldiradi.

XIX asr oxirida Luvr departamenti Xitoy va Yaponiya bo'limlari uchun san'at buyumlarini ajratadi, keyinchalik mustaqil departament-ga aylanadi. Departament 1945-yilgacha bo'lgan – fransuz muzeylari umumtashkilotlarining kolleksiyalari Gime muzeyiga Misr kolleksi-yasi evaziga beriladi. Ushbu almashuv Parij muzeyini jahondagi Osiyo muzeylari ichida eng yirik va boy muzeyga aylantiradi.

Doimiy kolleksiyalari: muzeyda bir necha Sharq san'ati buyumlar kolleksiyasi o'rin olgan: Afg'oniston va Pokiston san'ati, Ximolay

⁵⁷ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 325 p.*

san'ati, Janubiy – Sharqiy Osiyo san'ati, Markaziy Osiyo san'ati, Xitoy san'ati, Koreya san'ati, Hindiston san'ati, Yaponiya san'ati.

Afg'oniston va Pokiston san'ati. 1900-yillar Luvrda Peshavara (Pokiston) tumanidan olib chiqilgan yuzlab obyektlar namoyish etilgan, ya'ni Alfred Fushening Indo-Afg'oniston ekspeditsiyasi orqali o'rganilgan. Shu bilan birga, Gandxar san'atining yorqin namunasi – Bodxisatvaning mashhur haykali Gime muzeyiga tegishli. Bagrama xazinasi Gime muzeyida ham saqlanadi.

Markaziy Osiyo san'ati. Markaziy Osiyo quruq iqlimi manuskriptlar va shu hududning budda madaniyati suratlarini saqlab qolgan. Fransuz arxeologi Dyutrey de Ran (fr. Dutreuil de Rhins), Pol Pellio i Jozef Akan – Ipak Yo'li shaharlarida, o'z davrning qadimiy madaniy markazlarida ko'plab qazilma ishlarini olib borishgan.

Muzeyda Kuchi monastrining loydan yasalgan haykallari qo'yilgan. Mogao g'oridan 200 mingdan ortiq manuskriptlar va ko'plab boshqa asarlar topilgan, ushbu topilmalar Markaziy Osiyo budda san'ati bo'yicha ko'plab ma'lumotlar beradi.

Xitoy san'ati. Gime muzeyida Xitoy san'atining 20000 dan ortiq buyumlari saqlanadi. Neolit, bronza davri Shan va Chjou sulolari-ning nefrit va kulolchilik buyumlari, haykalchalar, bronzadan yasalgan ko'zgular va taqinchoqlar, tangalar va lakli bezalgan qutichalar – Gime muzeyi eksponatlari ichida Xitoy san'atining 7 ming yillik san'atini ko'rish mumkin: uning yaralishidan to XVIII asrgacha.

10 mingdan ortiq buyumlar Xitoy keramika kolleksiyasiga tegishlidir. Xitoy mashhur farfor va fayans ishlab chiqarish buyumlari namoyish etilgan. Muzey kolleksiyasiga qarab, keramika ishlab chiqarish texnikasi rivojini kuzatish mumkin, har bir davrning o'z did-qarashlari bo'lgan. Shuningdek, muzeyda Tan sulolasidan Sin sulolasigacha bo'lgan qimmat daraxtdan bo'lgan buyumlar, minglab kartinalar va ilustratsiyalar o'rin olgan⁵⁸.

⁵⁸ www.museums.france.com

Germaniya muzeylari

1. Myunxendagi qadimgi Pinakoteka.
2. Gliptoteka.
3. Drezden galereyasi.
4. Berlin suratlar galereyasi.

Myunxendagi qadimgi pinakoteka

Yevropada birinchi muzeylar, monarxlarning yopiq kolleksiyalar to'plami aholi uchun asta sekinlik bilan ko'rgazmali ochiq joylarga aylanib borishi bilan dunyoga kelgan.

Myunxen muzeylar shahri. Bu muzeylar asrlar davomida shakllangan. Bu ishlarning boshida bavariyalik Lyudovik I turgan. Myunxen muzeylari pinakoteka va gliptotekalarga bo'linadi. Myunxen zamonaviy va qadimiy san'at markazi bo'lib, sayyohlar uchun ziyo-ratgoh hisoblanadi.

Qadimiy pinakoteka – Germaniya muzeylari ichida eng mash-hurlaridan biri. Uning yaratilish tarixi va kolleksiyalariga alohida to'xtalib o'tish mumkin.

Myunxendagi qadimiy pinakotekaga 1529-yili asos solingan bo'lib, juda boy tasviriy san'at kolleksiyalari ushbu galereyadan o'rin olgan.

1528-yili gersog Vilgelm IV fon Vittelsbax o'z rezidensiyasi bog'ining yozgi pavilyonini diniy va tarixiy mavzudagi kartinalar bi-lan bezatmoqchi bo'ladi. U musavvirlar oldiga erkaklar mardligi va ayollarning mehnatsevarligini tarannum etishni maqsad qilib qo'yadi. Bu vazifalarni bajarish nemis rassomlaridan Aldorfer, Burgmayer, Bexam, Fezelen, Bryoyu va boshqalar zimmasiga yuklanadi. Ushbu muzey to'plamiga birinchilar qatorida Altdorferning 1529-yili yozgan «Iskandar Zulqarnaynning podsho Doro bilan jangi» kartinasi sotib olinadi. Aynan shu yildan boshlab, ushbu kolleksiyadan tashkil topgan suratlar galereyasi *grekcha- Pinakoteka* (qadimiy grekchada – Badiiy asarlar galereyasi) deb atala boshlaydi. Bu muzeyning boshqalardan

o'ziga xos farqi shundaki, uning eksponatlari orasida haykaltaroshlik, grafika, amaliy bezak san'ati namunalari, qadimgi mebellar yo'q. Pinakotekada to'plovchilikning asosiy prinsipiga amal qilinadi – devorlarda faqat kartinalar ilinadi. Bir qarashda, ko'p sonli tantanavor zallarning juda oddiyligi kishini hayratlantiradi, lekin tomoshabin tez orada muzey interyeri yechimining to'g'ri tuzilganligini anglay oladi: sokin zallarda hech qanday ortiqcha narsa tomoshabin e'tiborini chalg'itmaydi. Pinakotekada kartinani yaratgan ustaning mashhurlik darajasidan qat'i nazar, o'z zallarida faqat eng yuqori badiiy sifatlarga ega bo'lgan kartinalarni namoyish etadi⁵⁹.

Bavariya kurfyuristlar kolleksiyalari ko'p yillik tarixi davomida juda ko'p qiyinchiliklar ko'rdi. Bular urushlar, o'g'riliklar va egalari-ning man-manligi oqibatida kelib chiqar edi.

Maksimilian I birinchilardan bo'lib, XVI asr nemis rangtasviriga qiziqish bildirdi. Uning davrida 11 ta asar, A.Dyurerning "To'rt Avliyo" va "Paumgartnerlar mehrobi" asarlari sotib olindi. Bundan tashqari, Maksimilian I P.Rubensning asarlar to'plamiga asos soladi.

Vittelsbaxlar sulolasidan so'ng kolleksiya Reyn Pfalsgraflar oilasiga meros bo'lib o'tadi, ular aynan shu davrda kelib yashay boshlaydilar. Karl Teodor 1781-yili o'z kolleksiyasi uchun saroy bog'ida maxsus bino-galereya qurdiradi. Bu galereyada kartinalar xronologik tartibda joylashtiriladi. Bu galereyaning yana bir yangiligi — asarlarga yorug'lik berila boshlanadi. 8 ta zalda 700 kartina osilib, keyinchalik keng omma uchun ochiladi.

Muzeydagi har bir detal tomoshabinlarning fikrini chalg'itmay, hamma e'tiborini kartinalarga qaratishga yordam beradi. Devorlarga xira tondagi matolar tortilgan, yorug'lik manbalari sun'iy plafon bilan yopilgan bo'lib, nurlari nafis tarqaladi va kartinalarga deyarli blik bermaydi.

Lyudvig I taxt vorisi paytidanoq juda ko'p miqdorda kartinalar sotib ola boshlaydi. Uning hukmronligi davrida Italiyadan juda ko'p asarlar sotib olingan (jumladan, Sandro Batichellining "Isoga aza tu-

⁵⁹ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 327 p.

tish”), qirol Myunxen kolleksiyasini to‘satdan sotib olish emas, balki Yevropa badiiy maktablarining eng kuchli asarlarini yig‘ishga harakat qilgan. Kelnda Lyudvig I nemis va golland rassomlarining XV asrga tegishli asarlar kolleksiyasini sotib oladi. Bu kolleksiya ichida juda go‘zal bo‘lgan “Brabanta durdonasi” nomli uchlik asar ham bo‘lgan. tadqiqotchilar bu ishni Katta Dirk Bautsga tegishli deb hisoblashgan. Keyingi sotib olingan asar Rafaelning “Tempi uyi Madonnasi” hisoblanadi. bu asarni Florensiyadan Myunxenga 20 yillik tortishuv va kelishuvlardan so‘ng sobiq egalaridan sotib olingan.

Tez orada Galereya, Shleysxem va Nimfenburg saroylarida, shuningdek Gersogning Myunxendagi saroyiga joylashtiriladi, keyinchalik joy torlik qiladi. Shunday qilib, hamma kolleksiyalar bitta binoga to‘plandi. Arxitektor Leo fon Klense markaziy zalni (14,6m) barpo etdi va unga Rubensning «Katta dahshatli sud» asarini joylashtirdi. Muzeyning qimmatbaho asarlaridan Leonardo da Vinchining «Go‘dak ushlagan Madonna» asaridir. 1852-yilda Lyudvig I 1500 ta (keraksiz, ortiqcha) kartinani sotib yuboradi. Ular Dyurer, Gryunevald, Kranax va Altdorfer va boshqa rassomlarning ishi bo‘lgan. Uron pinakotekasidan Napoleon Myunxendan 71 ta asarlarni olib chiqib ketadi, keyinchalik 36 ta kartina qaytariladi va 45 tasi Luvrda qoladi.

XX asrda pinakoteka kolleksiyalari mashhur rassomlar asarlari bilan to‘ldiriladi. Birinchi Jahon urushi davrida uchta noyob asarlar paydo bo‘ladi, “Isodan kiyimini yechish” — El Greko, “Venetsiya gala-konserti” — Fr.Gvardi va Van Gogning “Pati yulingan kurka” asari. Bora-bora natsistlarning qiyin sharoitiga qaramasdan, pinakoteka P.Breygelning “Dangasalar dunyosi”, Tintorettoning ilk asarlaridan “Vulkan, Venera va Mars” va Ya.Reysdalning “Dyuna manzarasi” asarlarini ham qo‘lga kiritgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida pinakotekaning barcha muzey binolari buzilib, harobaga aylanadi. Lekin hech kim zararlanmaydi va 1957-yilda bino qayta tiklanadi⁶⁰.

Qadimiy pinakotekadan ko‘plab nemis rangtasvir kolleksiyalari

⁶⁰ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 330 p.*

o'rin olgan. Lekin muzey 400 yil davomida o'zining shakllanishi va faoliyati jarayonida ko'p qiyinchiliklarni ko'rdi. Tarkibida o'zgarishlar, yo'qotishlar yuz berdi, urush yillari kolleksiyalar talon-taroj qilindi. Shunday bo'lsa-da, pinakotekaning juda boy kolleksiyasi bugungi kungacha saqlangan. Bugungi kunda 1400 rassomlarning 9000 ta asarlari saqlanadi.

Muzey kolleksiyalari to'plamida Vilgelm IV dan tashqari, gersog Albrect V katta hissa qo'shgan. Vilgelmning vorisi Albrect V (1679-1726) ning harakatlari bilan muzey Yevropaning eng mashhur muzeylari qatoridan o'rin oladi. Emmanuilning xizmatlari tufayli, XVIII asr flamand tasviriy san'ati asarlarini o'z ichiga olgan kolleksiyalardan Rubens, Van Deyk, Breygel, Brauverlarning san'at asarlari o'rin oladi. San'atga, kartina yig'ishga qiziqish Maks IV Yozefdan uning o'g'li Lyudovik I ga o'tdi (1825-1848). Unga rassom Georg fon Dillis yordam berdi. Ko'pgina kartinalar Italiyadan sotib olindi. Ulardan rassom Girlandayoning «Filippo va Filippino» kartinasi, Botichellining «Isoga aza tutilishi» asari ma'lum. Italiyadan olib kelingan asarlardan biri Rafaelning «Tempi uyi Madonnasi» asaridir. 1826 — 1836-yillarda arxitektor Leo fon Klense loyihasi asosida yangi muzey binosi qurildi. Binoning qurilishida muzeydagi kartinalar nemis, niderland, flamand, golland, ispan, Italiya, Fransiya badiiy maktabiga xos bo'lgan bo'limlarga bo'lingan.

Myunxendagi qadimiy pinakoteka Bovariya davlat tasviriy san'at bo'linmasi tasarrufida. Bu kolleksiyalar 800 dan ortiq bo'lib, XVIII asrda yashab o'tgan rassomlarning ishlaridir. Qadimiy pinakotekada eng qimmatbaho kartinalar to'plangan bo'lib, devorlarga ikki qator qilib osilgan. Ulardan aksariyati flamand va Italiya maktabiga xos. Kartinalar asosan o'z maktab va davrlariga qarab bo'lingan. Myunxenning qadimgi pinakotekasi dunyoning eng katta galereyalari qatoriga kiradi.

Bir so'z bilan aytganda, pinakotekani boshqalarga o'rnak bo'ladigan muzey sifatida misol qilish mumkin. Chunki u boy kolleksiyalarga ega hamda muzey jihozlaridan to'g'ri foydalanil-

gan. Shuningdek, harorat-namlik tartibini ushlab turadigan barcha zamonaviy vositalar ishlatiladi, tozalikka, kartinalarning yaxshi saqlanishiga qat'iy rioya qilinadi. Muzeydagi rangtasvir asarlari ta'mirlovchilarning tashabbusi bilan juda yaxshi darajada saqlanganligi juda chuqur taassurot qoldiradi.

Albatta, bu yutuqlarning barchasi, bizning davrimizda, ya'ni oxirgi 60 o'n yilliklar davomida, ilmiy asosda faol rivojlanayotgan muzey ishi yutuqlari bilan bog'liq.

Gliptoteka – Myunxendagi qadimiy muzeylardan biri va Yevropada omma uchun ochilgan birinchi muzey. U yerda antik davrning Lyudovik I Bavarskiy kolleksiyasidan ajoyib asarlar saqlangan. Haykaltaroshlik to'plamlari er.av. VI asr va er.ning IV asriga tegishli bo'lgan yunon san'atini o'z ichiga oladi. Kallik uslubdagi ichki hovlida Myunxenning eng maftunkor kafesi ham joy olgan⁶¹.

Kopengagenda Karlsberg yangi gliptotekasi – Myunxen gliptotekasi deb nom olgan. Gliptoteka binosi Kyonigsplats maydonining shimoliy qismida Lyudvig Kronprins buyryg'i bilan qurilgan. Gliptotekada 13 ta to'rtburchak, kvadrat va aylana shakldagi zallari ichki hovlini o'rab turibdi, binoning markaziy qismi zal tepasidan joy olgan. Kirish oldida 12 ta ioniy ustunlar joy olgan. Kirish qismida Iogann Martin fon Vagnerning guruhli frontoni ishlangan bo'lib, unda plastik san'at homiysi Afina xudosiga bag'ishlangan. Tashqi devorlari haykallar bilan bezatilgan, binoning derazalari ichki hovliga qaragan. Haykallarda san'atning mifologik va tarixiy namoyandalari tasvirlangan. Fasad qismida Dedal, Prometey, Adrian, Perikl, Fidiy va Gefest haykallari o'rin olgan. Binoning sharqiy va g'arbiy qismida Uyg'onish davri me'morlari va Gliptotekani yaratgan haykaltarosh-zamondoshlarning (jumladan, Torvaldsen va Kanova) haykal portretlari o'rin olgan. yangi san'at zalida mavjud bo'lgan asarlar keyinchalik "Yangi pinakoteka" ga o'tkaziladi.

Ikkinchi Jahon urushi davrida gliptoteka binosi buzilgan va 1972-yil-

⁶¹ *The first treatise on museums. Samuel Quiccheberg's inscriptions 1565, 25 p.*

da tomoshabinlar uchun yangidan ochildi. Peter Kornelius tomonidan 1820 — 1830-yillarda qadimgi yunon xudolarining tasviri tushirilgan mashhur freskalar yo‘qotilgan edi. Faqat alohida fragmentlar saqlanib qolgan. Berlindagi Milliy galereyada eskizlari saqlanadi⁶².

Drezden galereyasi

“Qadimiy ustalar” suratlar galereyasi. Ushbu galereya XVI asr-ning sakson kurfyursti Fridrix Dono tomonidan tashkil etilgan. U o‘z davrida rassomlarga homiylik qilgan. O‘z saroyiga Lukas Kranaxni taklif etib, A.Dyurerga buyurtmalar bergan. Ushbu rassomlarning asarlari hanauz galereyani bezab turadi.

Kolleksiya yig‘ish kurfyurst Avgust I dan boshlangan, 1560-yilda o‘zining Drezden qasrida Kunsameraga asos soladi. Uning kolleksiyasida tangalar, gravyuralar va bir necha asarlari bor edi, ular namoyish etilmagan, devoriy bezak bo‘lib turgan.

Galereyaning tezda to‘ldirish ishlari Avgust II Kuchli davrida bo‘lib, Sakson kurfyursti va Polsha qiroli bo‘lgan. Bir necha 10 yillar maboynida u tomonidan bo‘lajak galereya asosi tashkil etiladi va Drezden saroyida to‘plam va kolleksiyalar alohida ajratiladi. Suratlar galereyasi maxsus tayyorlangan binoga “Konyushen” ga ko‘chib o‘tadi va shu bilan Drezden galereyasi tarixiga yakun yasaydi.

Avgust III XVII asr o‘rtalarida saroy to‘plamlarini Yevropa rangtasvirining yirik xazinasiga aylantiradi. Hattoki, davlat ishlarini chetga surib, asar sotib olishga shiddat bilan kirishadi. Avgust III Parijdagi, Venetsiyadagi va Antverpendagi auksionlarda ishtirok etadi va sotiladigan asarlar haqida ma’lumotlar yig‘ib, mablag‘ ayamasdan asarlarni sotib oladi.

1741-yilda Drezdenga gersog Vallenshteynning katta kolleksiyasi, 1745-yilda modenlik gersog Franchesko III d’Este mashhur to‘plami sotib olinadi.

XVII asr oxiriga kelib, Drezden badiiy kolleksiyaning ajoyib

⁶² *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 338 p.*

markaziga aylanadi. Yuz yillar davomida saksoniyalik zodagonlar o'z qasrlari uchun san'at asarlarini xarid qila boshlaydilar. Ammo Fridrix Avgust (1694-1733) davrida bu juda ommalashib ketadi. 1722-yilda u Yudenxofdagi binoning ikkinchi qavatida, maxsus jihozlangan xonada saroylar, qasrlar va cherkovlardan yig'ilgan asarlardan iborat kartina galereyasini tashkil qiladi. Drezden galereyasi obro'sining oshishi Avgust III (1733-1763) davriga to'g'ri keldi. 1754-yilda galereyaga Rafaelning eng mashhur «Madonna San-Sisto», hozirgi kunda "Sikstinlik madonna" nomi bilan mashhur asarini keltirilishi unga mashhurlik olib keldi⁶³.

1746-yilda binoga qo'shimcha ko'rgazma maydonlari qurilib, 1855-yilga qadar u kartina galereyasi bo'lib qoldi. Yevropadan Drezdenga keltirilgan asarlar zal devorlariga asar hajmi va keltirilish vaqtiga qarab osilgan.

1765-yildan galereyaga "ixtisoslashgan omma" jalb qilina boshladi. Uch yil o'tgandan keyin 19 yoshli talaba logann Gete Leypsigdan Drezdenga galereyaning mashhur xazinasini o'z ko'zi bilan ko'rish uchun tashrif buyuradi va o'z taassurotlarini matbuotda yoritadi.

1777-yilda rassomlar va diletantlar uchun Myunxen pinekoteka-si ham o'z zallari eshiklarini ochadi. 1760-yildan oldindan berilgan buyurtmaga asosan Kassel galereyasini ham ko'rish mumkin bo'ladi. Landgraf Vilgelm VII tomonidan tashkil qilingan bu galereya Rembrandtning 35 ta, Rubensning 34 ta, Van Deykning 20 ta asarlaridan iborat edi. O'sha davrda tasviriy san'at ixlosmandlari bu galereyani Dyusseldorfda tomosha qilishlari mumkin edi. 1756-yilda Dyusseldorf galereyasi ikki qismga: Italiya va Niderland maktabiga ajratildi.

1770-yilda Mariya Tereziya (1740-1780) hamda Iosif II (1765-1790) tomonidan tashkil qilingan Vena imperator galereyasi katta ahamiyatga molikdir. Ekspozitsiya 1781-yilda ochiladi. 1720-yilda imperator Karl VI Shtallburgda yangi ekspozitsiya tashkil qiladi.

⁶³ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 345 p.

Berlin suratlar galereyasi

Berlin suratlar galereyasi (nem. *Berliner Gemäldegalerie*) – mashhur suratlar galereyasi bo‘lib, Berlin Davlat muzeyi va Pruss madaniy meros Fondi tarkibidagi Yevropada ilg‘or badiiy muzeylardan biri. XIII–XVIII asrlarga tegishli ajoyib kolleksiyalarga ega, jumladan, Albrect Dyurer, Lukas, Kranax, Botichelli, Rafael, Titsian, Karavadjjo, Bosx, Breygel, Peter Paul Rubens va Rembrand kabi mashhur rassomlarning noyob asarlari o‘rin olgan. Galereya 1830-yilda ochilgan va 1998-yilda rekonstruksiya qilingan.

1998-yilda Berlin suratlar galereyasi alohida qurilgan Madaniy forum binosidan joy oladi. Muzeyning yangi bino loyihasi Xayns Xilmer, Xristof Zattler va Tomas Albrect kabi me‘morlar tomonidan amalga oshirildi. To‘rtburchak binoning shimoliy fasad qismi oldinga chiqarilgan. Bino markazida ikki qator ustunlar bilan o‘rab olingan foye bo‘lib, 32 ta shisha gumbazchalar bilan yopilgan va favvoralar bilan bezatilgan. 72 ta ko‘rgazmalar zallari va kabinetlar ikki qavatda bo‘lib, tabiiy yorug‘lik tushib turadi. Umumiy maydoni 7000 km², tomoshabinlar zallarni tomosha qilishi uchun 2 km yurishadi, ushbu maydonda 900 ta asar joy olgan. Yana 400 ta asarlar 12 zallardan o‘rin olgan. Bugungi kunda suratlar galereyasida 3500 asarlar saqlanadi (shulardan 2900 shaxsiy fondlardan) va 3000 original asarlar o‘nta bo‘limga ajratilib, ekspozitsiyadan o‘rin olgan. Jumladan,

1. XIII–XVI asr nemis rangtasviri.
2. XVII–XVIII asr nemis rangtasviri.
3. XIV–XVI asr niderland rangtasviri.
4. XVII asr flamand rangtasviri.
5. XVII asr niderland rangtasviri.
6. XIII–XVI asr Italiya rangtasviri.
7. XVII–XVIII asr Italiya rangtasviri.
8. XV–XVIII asr ispan rangtasviri.
9. XV–XVIII asr fransuz rangtasviri.
10. XVIII asr Angliya rangtasviri.

Yuqorida aytib o'tilgan shaxsiy fondlarga Berlin suratlar galereyasi tomonidan bir qator rangtasvir kolleksiyalarni boshqarish topshirilgan, shulardan eng yirik to'plamlardan Kayzer Fridrix Muzey fondi hisoblanadi. Bundan tashqari, o'z vaqtida Shrayt Fondi, Lipperxayde kolleksiyasi, Pruss merosi Davlat muzeylar Fondi san'at kutubxonasi, Germaniya Federativ Respublikasi kolleksiyasi, Pruss merosi Davlat muzeylar Fondi Davlat kutubxonasiga tegishli asarlardan ham foydalanilgan⁶⁴.

⁶⁴ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 360 p.

Shvetsiya muzeylari

1. Shvetsiyada muzeylar ahamiyati.
2. Ochiq osmon ostidagi muzeylar.
3. Shvetsiya Davlat Milliy muzeyi.

Shvetsiya Qirolligi – Shimoliy Yevropadagi, Skandinaviya yarim orolida joylashgan davlat hisoblanadi. Mamlakat , g'arbda – Norvegiya , shimoliy-sharqda – Finlandiya va janubiy-g'arbda Daniya mamlakatlari bilan chegaradoshdir. Shvetsiya – botnik ko'rfazi va Boltiq dengizi suvlari yuvib turadi. Mamlakatning g'arbiy qismidagi Skandinav tog' tizmalari Shvetsiyani Norvegiyadan ajratib turadi. Shimoliy tog'li hududlarda – subarktik iqlim hukmron.

Shvetsiya 21 okruglarga bo'linadi, ularning har biri boshida hukumat tomonidan tayinlanadigan boshqaruv turadi. Har bir lenda, shuningdek, mahalliy boshqaruv organlarida, mahalliy aholi tomonidan saylanadigan – landstinglar turadi. Har bir len, o'z navbatida, kommunalarga bo'linadi.

Asosiy etnik guruhlar: shvedlar – 90 %, finlar taxminan – 3 % ni tashkil etadi. Shvetsiya aholisining asosiy qismi 2000-yilda davlatdan chetlashtirilgan – lyuteran diniga ibodat qilishadi. Mamlakatda, shuningdek, kotoliklar, provaslavlilar va baptistlar mavjud. Davlat tili – shved tili hisoblanadi.

Shvetsiya – konstitutsion monarxiya boshqaruvidagi davlatdir. Davlat boshlig'i – qirol hisoblanadi, ammo qirol hokimiyati azal-azaldan vakillik va marosim vazifalarida cheklangandir. Hokimiyat, parlament (Riksdag) tomonidan saylangan Bosh vazir boshchiligidagi hukumat tomonidan boshqariladi. Mamlakatning eng

obro‘-e‘tiborli partiyasi – Sotsial-demokratik ishchilar partiyasi hisoblanadi. Shvetsiya – Yevropa Ittifoqi va Shengen bitimi a‘zosi.

Shvetsiya – yuqori rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi. Iqtisodiyotning asosiy manbalari: o‘rmon sanoati, gidroenergiya va temir rudasi qazib olish hisoblanadi. Mamlakatda metallar va mineral yoqilg‘ilar qazib olinadi. Sanoatda: mashinasozlik, elektronika va kimyo sanoati ishlab chiqarish tarmog‘i rivojlangan. Qishloq xo‘jaligida asosiy e‘tibor: chorvachilik va texnik donli mahsulotlar o‘stirishga qaratilgan. Mamlakatda yirik dengiz floti mavjud. Eksport uchun: mashina va uskunalar, kimyo mahsuloti va metallar yetkazib beriladi. Import orqali esa: mashinalar, neft va neft mahsulotlari, kimyoviy moddalar, avtomobil, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak olib kiriladi. Asosiy savdo hamkorlari : Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH va Norvegiya.

Eramizning V–VI asrlaridan boshlab Shvetsiya davlati Rim imperiyasi bilan aloqalarni kengaytirib yubordi. Taxminan 800-yillarda Melaren ko‘lida ilk Shvetsiya davlati Birka shahri vujudga kelib, tez orada Boltiq dengizidagi eng yirik savdo markaziga aylandi. Mana shu yerdan vikinglarning yurushlari boshlandi. 1240-yili shvetsiyaliklar o‘z flotini Neva bo‘ylab eski Ladoga va Novgorod shaharlarini bosib olish uchun jo‘natadi, ammo Aleksandr Nevskiy qo‘shini tomonidan tor-mor etadi. XIII asrning oxirlariga kelib, Shvetsiya davlati o‘ziga fin yerlarini bo‘ysundirib oldi. XVI – XVII asrlarda Shvetsiya harbiy siyosiy faoliyat olib bordi. Pyotr I qo‘shinlari tomonida Shvetsiya harbiylarining Poltavadagi jangda butkul tor-mor etilish 1700 — 1721-yillardagi Shimoliy urush-da mag‘lubiyatga uchrashi tufayli Shvetsiya Germaniya yerlaridan ayrilib, o‘zining Boltiq viloyatlari, G‘arbiy Kareliya shu jumladan, Viborg qal‘asini Rossiyaга berib yubordi. Shvetsiya va Rossiya o‘rtasidagi Fin jangi (1808 — 1809-yillar) Shvetsiya qo‘shinining butkul mag‘lubiyati bilan yakunlandi. Shvetsiya davlati Birinchi Jahon urushi davrida betarafligini saqlab turdi. Ikkinchi

Jahon urushida ham Shvetsiya o'zining betarafligini saqlab, harbiy harakatlarga qo'shilmadi. Berlin devori qulagandan so'ng Shvetsiyaning to'la mustaqilligi qayta ko'tib chiqilib, hukumat Yevropa Ittifoqiga kirish xohishini bildirdi. 1995-yili Shvetsiya Yevropa Ittifoqi a'zosiga aylandi.

Ochiq osmon ostidagi muzeylar.

XIX oxirida Yevropa muzeylarning yangicha turlarining paydo bo'lishi bilan mashhur bo'lgan, bu konsepsiya keyingi yuz yillik muzeyshunoslik g'oyalarining rivojlanishini belgilab berdi. Yangi muassasa "Ochiq osmon ostidagi osmon muzey" nomini oldi. Bunga shved tilshunos-etnografi Artur Xaselius (1833-1901) asos soldi. U 1870-yillarda mamlakatning qishloq hududlari bo'ylab sayohat qilib, lekin sanoatlashish va shaharlashish oqibatidagi xalqaro va mahalliy g'amgin holatlarni ko'rdi: eski fermer xo'jaliklari inqirozga keldi, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi so'na boshladi, milliy kiyimlar muomaladan chiqdi, xalq amaliy san'ati – folklori, musiqa, raqslari yo'qolib ketish xavfiga uchradi. Qishloq aholisning shaharga ko'chishi ulardagi ko'p asr-lik an'analarni yo'q bo'lishiga olib keldi, jamiyatning zamonaviy-lashishga intilishi esa evropa shaharlaridagi bir xil hayot tarzini o'sishiga zamin yaratadi.

Bu holatlarda aynan milliy madaniyat qishloq an'analari bilan umumlashib ifodalana boshladi, O'sha paytlardagi an'ananing yo'qolib ketish hissi aniqlashib bordi. So'nib borayotgan madaniyatga qiziqish va yo'qolib ketmasligiga g'amxo'rlik Skandinaviya-da shaxsiy yog'och qurilmalar to'plami, xo'jalik qurilmalari, xalq san'ati namunalarini saqlanib qolishiga olib keldi. Kolleksionerlar ichida 1870-yillarda Shvetsiyaning turli jarayonlarida xalq uylari va kostyumlari inter'erilarini namoyish qilgan, madaniy amaliy san'at buyumlari kolleksioneri Artur Xaselius bo'lgan. Bularning ichida shimoliy muzey tarkibiga kiruvchi, 1873-yilda Stokgolm-ning mahalliy uylaridan birida ochilgan "Skandinaviya etnografik to'plami"

bo'ldi. Yo'qolib borayotgan shved madaniyatini saqlab qolishga intilish yo'lida Artur Xaselius muzey eksponatlariga ko'proq uy qurilish interyerlarini, ularning holatini uzoq namoyon qildi, hayvon siymolaridan ko'cha namoyishlari (san'at namunalari), xalq kastyumlari manikenlari va teatr dekoratsiyalar ko'rinishidagi peyzajlar yaratdi. Lekin muzey istalgan amaliy san'at muhitini to'liq ko'rsatib bermasdi va Artur Xaselius noananaviy qarorga keldi⁶⁵.

1891-yil oktabrida noodatiy nom olgan *Skansen* yangi muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'ldi. Gap shundaki, Artur Xaselius o'zini rejalarini amalga oshirish uchun Stokgolmdagi Dyugarden orolidagi adirni tanladi. XVII asrda bu yerda himoyani mustahkamlash uchun okoplar qazilgan (okop — urush vaqtida soldatlarni panadan turib himoya qilish uchun chuqur), *Skansen* — shved tilidan olingan okop (chuqur) degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun bu shu muzey nomiga aylandi, keyinchalik esa barcha ochiq osmon ostidagi muzeylarga namuna bo'ldi. 1886 — 1891-yillar boshida 1,5 gektar bo'lgan, bo'lajak Skansen hududiga mamlakatning hududlaridan uylar va fermer xo'jaliklarini olib kelishdi, dehqon hovlisida uy sigiri o'z o'rnini egalladi, "Zoopark" (zoologik bog') da esa yovvoyi hayvonlar, qadimdan ovchilik nishoni bo'lgan — ayiq, bug'u, silovsin joy oldi. Artur Xaselius keltirilgan uy-joylar atrofida tabiiy o'simliklar muhitini yaratishni rejalashtirdi va uning konsepsiyasiga muvofiq o'simliklar dunyosi mahalliy yer tarkibi bilan birlashib, uyg'unlashishi kerak edi. Hamma narsadan ko'proq Artur Xaseliusni ota urug'-qishloq jamiyatining odamlari, ularning kundalik ishlari, bayramlari, san'ati va turli xil an'alarini ko'rsatish g'oyasi qiziqtirar edi. Shuning sababli ekspozitsiyalarni jonlantirish uchun uylarda hunarmandchilik, shudgor, uy hayvonlari bilan shug'ullanuvchi odamlar paydo bo'ldi. Maxsus jihozlangan joylarda muzeyga kelgan muhlislar ko'z o'ngida metallardan, shishadan, loydan badiiy buyumlar yasalardi. Bu muzeyga unutilgan muhitning

⁶⁵ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 885 p.

nusxasini namoyon qildi. *Skansen* xalq milliy raqsi, musiqasi, xalq ogʻzaki ijodi, anʼanaviy tantanalar va xalq bayramlari oʻtkaziladigan mashhur joyga aylandi⁶⁶.

Shubhasiz, birinchi ochilgan ochiq osmon ostidagi muzey XIX asr ikkinchi yarmidagi xalq madaniyati va bu madaniyatni saqlashga boʻlgan intilishini namoyon qilgan birinchi paydo boʻlgan muzey boʻldi. Shu bilan bir qatorda, bu muzeyshunoslik sohasidagi yangi tendensiyaga asos soldi. Muzeyshunoslik sohasida yodgorliklarga emas balki, uning boshqa obyektlar bilan tarkibiy aloqalari, tarixiy muhitni har xil bosqichlar boʻyicha toʻliq tiklash yoʻlga qoʻyildi.

Muzey ishidagi amaliy va nazariy yondoshish bosqichma-bosqich davom etdi. Ochiq osmon ostidagi muzeyda etnografik ekspozitsiyalarni yaratish gʻoyasini birinchi boʻlib 1790-yilda Daniyada yashovchi Shvetsariya yozuvchisi Charls Bonstetten ilgari surgan. U Fredensberg qalʼasidagi mamlakatning turli hududlaridagi kostyumlar manekenlarini koʻrib, hayratlanib shunday yozgan:

“Bularni koʻrib menga shunday fikr keldiki: dengiz boʻyidagi qayragʻochli oʻrmonda ingliz bogʻini yaratib, u yerga Lapland uylari va Farer orollaridagi qamish kulbalar, islandiyaliklarning yamayashil uylari va bu xalqlarning mehnat qurollari va uy jihozlari bilan qoplangan koʻrinishi keldi. Oʻrmondagi soʻqmoq meni island uyiga, soʻngra fin kulbasiga tez eltib boradi. Obyektlarni bunday joylashtirish koʻp qulayliklarni keltirgan boʻlardi”.

Agar XIX asrning birinchi yarmida etnografik materiallar muzeylarda oʻz-oʻzicha namoyon qilingan boʻlsa, yuz yillikning uchinchi qismida amaliy “jonlanish”, yaʼni milliy libosdagi manikenlar ekspozitsiyalari yetarlicha keng tarqaldi. Oʻz navbatida, ekspozitsion gʻoyalarning rivojlanishi, milliy va xalqaro koʻrgazmalar tashkil boʻlishiga olib keldi. 1867-yildagi keng xalqaro rezonansga ega boʻlgan Moskvadagi etnografik koʻrgazmada sanʼat, mehnat qurollari,

⁶⁶ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 890 p.

ro'zg'or buyumlari va xo'jalik liboslarini — xalq arxitektura namularini kompleks usulida ko'rsatish qo'llandi. Bu ko'rgazmada har bir xalq o'zining milliy ro'zg'or buyumlarini manikenlar yordamida namoyish etishdi. 1878-yilda Parijdagi butunjahon ko'rgazmasida bir qancha yog'och uylar va ulardagi interyer ko'rinishidagi xonalar, xonalarda esa insonlarning hayotini ifodalovchi milliy libosdagi manikenlar va ro'zg'or buyumlari namoyish qilindi. Hattoki, ba'zi bir xalqaro ko'rgazmalarda huddi tirik eksponat ko'rinishidagi har xil mehnatlar bilan shug'ullanayotgan insonlarni ko'rish mumkin edi. Shunday qilib, 1870 — 1880-yillardagi ekspozitsion amaliyot ochiq osmon ostidagi muzey konsepsiyasining rivoji va masshtabli interyerlar yaratish uchun muhim rol o'ynadi. Lekin birinchi bo'lib o'sha vaqtdagi muzeyshunoslikka aniq va to'liq g'oyalarni kiritgan Artur Xase-lius bo'lib qoldi.

U tomondan asos solingan yangi muzey konsepsiyasi Norvegiya, Finlandiya, Daniya, Shimoliy Germaniya va Niderlandiyada tezda o'z o'rini topdi. 1901-yilda Kopengagen quyisidagi parkda Zorgenfri muzeyi, 1902-yilda Oslo atrofidagi Bigdoy yarim orolida, 1904-yilda Lillexammerda (Norvegiya), 1912-yilda Arnemida (Niderlandiya), 1913-yilda Kenningsbergda muzeylar ochilgan. Birinchi Jahon urushi tugagunga qadar Shimoliy Yevropa davlatlarida 104 ta ochiq osmon ostidagi muzeylar paydo bo'ldi. Xalq arxitekturasi va turmush namularini ko'chirib o'tish g'oyasi va uni saqlab qolish uchun qilingan harakatlar jonlandi va bu paydo bo'lgan yodgorliklarni o'z joyida asrashga turtki berdi. *Skansen (ko'chirilgan obyektlardan yaratilgan muzey)* bilan bir qatorda "in situ" deb ataluvchi muzeylar paydo bo'ldi, to'g'rirog'i inshootni joylashgan joyida saqlash. Bu ikkala muzeyni bir vaqtda namoyon qiluvchi qo'shma muzeylar yaratildi, bularda ikki turdagi: obyektlar qayerda yaratilgan bo'lsa, shu yerda joylashdi va ko'chirilgan ob'ektlar joylashtirildi.

Birinchi navbatda, ochiq osmon ostidagi muzeylar an'anaviy madaniyat va qishloq turmush tarzini o'zida namoyon qilardi.

Lekin shaharlar timsoli juda tez o'zgara bordi va 1914-yilda Daniyadagi Orxus shahrida birinchi an'anaviy shahar madaniyatiga bag'ishlangan "Eski shahar" ochiq osmon ostidagi muzeyi ochildi. Keyingi yillarda bu yerda 50 dan oshiq obyektlar paydo bo'ldi — ikki va uch qavatli uylar, hunarmand ustaxonalari, savdo binolari, katta bo'lmagan hududda bozor bilan birgalikda tosh ayollar qurildi. Muzeyda XVIII-XIX asrdagi Daniya shahar qurilishini tasvirlovchi surat yaratildi. Unda dorixonachi va rassom uyi, kemasozlik ustaxonasi, oynakchi, bochka ustaxonasi, XVIII asrdagi maktab, 1817-yildagi teatr ko'rinishi tasvirlangan. Shu usulga muvofiq ravishda uylar interyerlari, ustaxonalarda esa badiiy hunarmandchilikka bag'ishlangan tematik ko'rgazmalar yaratildi.

Umumiy tematik muzeylar bilan bir qatorda, shahar va qishloq madaniyatidan xabar beruvchi maxsus muzeylar paydo bo'la boshladi. Ularning ba'zilar xo'jalikning alohida jabhalariga bag'ishlangan edi — cho'ponchilik, tomorqa, uy hayvonlarini boqish. Boshqalari esa qishloq yoki shahar hunarmandchiligini ifodalagan. Masalan: 1937-yilda Finlyandiya shahri Turkudagi mashhur muzey. Bu "in situ" muzeyi 1770 — 1820-yillarda qurilgan kompleks binolar ichida joylashgan. Bunda 30 dan ortiq ustachilik interyerlari namoyish etilgan⁶⁷.

Texnika yodgorliklari va ko'chmas arxeologik obyektlarga asoslangan muzeylar yaratila boshladi. Qiziqarli va g'ayrioddiy ochiq osmon ostidagi muzey 1983-yilda Buyuk Britaniyada — Irvina shahrida Shotland dengiz muzeyi ochildi. O'tmishda bu ulkan port vaqtlar o'tib kemasozlik va dengiz savdosi markazi maqomini yo'qotdi. Bu muzeyga aylangan portda XVII asr oxiridan XX asr boshigacha ingliz dengizchilik va dengiz savdosi rivojini tasvirlovchi langari tashlangan uzun va ulkan kemalar va qayiqlar eksponati, kemalarning arqonlari, asbob-anjomlarini bir paytda bir butun umumiy holda ko'rsatuvchi eksponatlar yaratilgan.

⁶⁷ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 392 p.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ochiq osmon ostidagi muzeylar shiddat bilan rivojlanayotgan muzeylar guruhiga aylandi. Yevropa chegaralarini oshib o'tib, bu guruhdagi muzeylar AQSH, Kanada, Osiyo va Afrikaning alohida mamlakatlariga keng tarqalib rivoj topdi. Biroq 1990-yillarning ma'lumotiga ko'ra, bu muzeylarning ko'p qismi, ya'ni 2000 dan ortig'i hali hamon Yevropa mamlakatlarida jamlangan edi. Har bir mamlakatda ochiq osmon ostidagi muzeylarni yaratish g'oyalarini amalga oshirish mahalliy sharoitlar va ilmiy muammolarning yechimiga bog'liq.

Rossiyada ochiq osmon ostidagi muzeylarni ochilishi 1950-yillarda boshlandi va 1990-yildagi hisob — kitoblarga ko'ra, 100 ta muzey tashkil etildi. Shunga ko'ra, milliy madaniyatni butunlay ko'rsatuvchi yoki uning alohida qismlarini tasvirlovchi: hunarmandchilik, kasb-korlik, xo'jalikning turli jabhalarini ko'rsatuvchi regional muzeylar keng tarqaldi. Masalan, 1973-yilda Kichik Korella qishlog'idagi yog'och me'morchiligi va xalq san'atini tasvirlovchi Arxangelskiy muzeyi juda mashhur bo'lgan. Bunda Rossiyaning shimoliy oltita regionni hayoti va turmush tarzini bir paytda umumlashtirgan, 140 gektardan iborat muzeyda shu hududda joylashgan yashash uylari, xo'jalik inshootlari, cherkov, qo'ng'iroqxonalar, budxonalardan iborat bo'lgan.

Onejskiy ko'li sohili bilan uning atrofida yotuvchi orollar bilan qo'shni bo'lgan Kiji orolida 1969-yilda tarixiy-me'morchilik va etnografik "KIJI" deb nomlangan qo'riqxona muzeyi Rossiya xalqi madaniyatini yoritishdagi qadrli va muhim rol egallagan. Muzey Karelining turli hududlaridan keltirilgan xalq yog'och me'morchiligi ga oid 70 dan ortiq yodgorliklarni o'z ichiga oladi. Ularga 1714-yildagi g'aroyib yog'ochda ishlangan qavat-qavat piramida shaklidagi 22 ta boshli Preobrajenskaya cherkovi; XVIII asr o'talaridagi 4 qavatli budlar ham kiradi. Muzeyning me'morchilik va etnografik ekspozitsiyalari ruslar va karellar qishlog'i va o'sha aholining hayot tarzini, ular siymosini yaqqol ko'rsatib beradi. Bu cherkovda budlar, cherkov

shiftlarida “osmon”, xalq cholg‘u asboblari, xo‘jalik buyumlari, xalq kiyimlari, kashtado‘zlik namunalari, naqqoshliklar tasvirlangan. Ochiq osmon ostidagi muzeylar tarmog‘idagi yana bir inshoot 1961-yilda ochilgan Qora dengizdagi Ellin mustamlakasining eng shimoliy nuqtasidagi qadimiy grek shahri hududida “**Tanais**” muzey qo‘riqxonasi arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Yuqori paleolit davrini anglatuvchi g‘aroyib tik turgan qadimiy odam tasvirlangan “Kostenka” muzey-qo‘riqxonasiga 1968-yilda Voronej viloyatida asos solingan.

Tarixiy manzarali muzeylar ichida Moskva viloyati Mojay hududidagi Borodinskiy harbiy-tarixiy muzey qo‘riqxonasi mashhurligi bilan ajralib turadi. Bu muzey 1839-yilda imperator Nikolay II qarori bilan 1812-yildagi yirik Vatan urushi jangohlaridan qolgan memorial madaniy yodgorlik. Keyinchalik, bu o‘zining zamonaviy nomini olgan va bu muzeyning qo‘riqlanayotgan 110 km² hududida 300 dan ortiq tarixiy yodgorliklar joylashgan. Bular cherkovlar, harbiy-muhandislik inshootlari, rus harbiy qo‘mondonlari va rus askarlarining qabrlari, Spaso-Bodinskiy ayollar monastir ansambli, XVI-XIX asrlardagi Mojayskiy arxitektura yodgorligi, qo‘shin qabristonida joylashgan yodgorliklardan iborat.

Etnografik yodgorliklar kam saqlanib qolgan Buyuk Britaniyada esa, o‘lkashunoslik xarakteridagi muzeylar yoki texnika tarixi va sanoati ko‘p bo‘lgan. Bu yerda Darem grafligida birinchi bo‘lib Ochiq osmon ostidagi muzeylardan biri “**Bimish**” yoki “Shimoli-sharqiy Angliyaning sanoati va odam muzeyi” paydo bo‘lgan. Uning asoschisi Frenk Atkinsonning g‘oyasiga ko‘ra, muzey oddiy odamlarni turmush tarzi, odatlari, qonunlarini yorqin ko‘rsatib berishi kerak edi. Bu urinish “tirik, jonli” tarixni yoki o‘sha joyni maksimal bor imkoniyatlar bilan mayda detallarigacha aniq ko‘rsatishi kerak edi. Muzey XX asr boshlaridagi Shimoli-sharqiy Angliyaning region sanoatini eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan va rivojlangan hayot tarzini ko‘rsatgan. 1971-yilda tomoshabinlar

uchun ochilgan muzey o'sha davrning ulkan rejalarini o'z ichiga olgan. Agar boshidanoq tomoshabinlar Bimish-Xoll uylaridagi qulayliklari ekspozitsiyasi bilan tanishgan bo'lsa, keyinchalik ular tashlandiq shaxtalar va vintilatsiya uskunalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mebel interyerlari va bog'larga ega bo'lgan uylardan qishloq paydo bo'ldi, tramvay va temir yo'llari o'tkazildi, temir yo'l stansiyalari, ogohlantiruvchi postlar qurildi. Shaharning yashash qismi qayta qurildi: uy-joylar, do'konlar, pivoxona, tish-doktori va hattoki, buzilgan park orkestr uchun ta'mirlandi. Skansendan farqli ravishda, "Bimish" muzeyida sanoatlashgan jamiyatga qadar kichik assotsiatsiyalar va dehqon xo'jaligi kam bo'lgan, shuning uchun bayram kunlari bu yerda folklor ansambllari va xalq kashtachiligini chiqishi o'rniga, madaniy musiqa konsertlari bo'lgan va bolalarni parovozlarga ulangan vagonlarda uchirishgan.

Agar "Bimish" muzeyi o'zida ko'chirib olib kelingan obyektlarni namoyish qilgan bo'lsa, 1968-yilda ochilgan "**Ayronbridj Darasi**" muzeyida "**in situ**" ning yodgorliklari tashkil qilingan. Bu sanoat rivojining beshigi hisoblanib, u o'z maqomini o'rmon darasi bo'ylab o'tgan va metallurgiya zavodlari, ko'mir konlari, fabrikalarni birlashtirgan dunyodagi birinchi temir ko'prik sharafiga olgan. Bu ko'prik Severn daryosi bo'ylab o'tkazilgan. Muzey obyektlari ichida uzunligi 3 mil (mil taxminan 1.3 km masofa), kengligi 1 mil bo'lgan sanoat inshootlari va yashash uylari joylashgan. Ularning ichida hozirda faqat piyodalar foydalanadigan mashhur ko'prik, Ab-raxam Darbinning cho'yan eritish zavodi, ulkan ombor (1838), Darbi sulolasi va mashhur Koulburkdeyl temirchilik shaharchasi haqida xabar beruvchi Temirchilik muzeyi ham mavjud. Bu yerda Darbinning hashamatli uyi, zavod ishchilari uchun qurilgan uylardan iborat Plotnitskaya ko'chasi (1783), Kvakerskiy qabristoni, muzeyga aylantirilgan Koulportskiy chinni zavodi bor.

Ayronbridj tarkibiga XVIII-XIX asr sanoatchiligining yodgorliklaridan iborat **“Blits-Xill”** muzeyi ham kiradi. Bu qadimiy cho‘yan eritish pechlari, ko‘mir shaxtalari, kanal qismi, uning atrofi va oralarida esa har xil joylardan keltirilgan o‘rmonchilik, kelgan tomoshabinlarga kam uglerodli temir eritishning an‘anaviy usullarini ko‘rsatadigan temir quyish sexi joylashgan⁶⁸.

Shimoliy Amerika muzeylari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Agar Yevropada ochiq osmon ostidagi muzeylar etnografiya bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalq me‘morchiligi va turmush tarzini ko‘rsatish va saqlash bo‘lgan bo‘lsa, AQSH da bu davlat tarixiga bag‘ishlangan edi. Ulardan ko‘pchiligi fuqarolar urushi xotirasiga bag‘ishlanib, davlatning buyuk arboblari hayoti haqida hikoya qiladi. AQSH dagina emas, balki butun dunyoda mashhur hisoblangan ochiq osmon ostidagi muzey “Uilyams inqilobigacha” muzeyi hisoblanadi. Poytaxt shtat Virjiniyani shahar-muzeyiga aylantirish go‘yasi muallifi ruhoni U.A.Gudvin bo‘ldi va uni “Respublika beshigi” hamda “Bizning ozodligimiz tug‘ilgan joy” deb atadi. Uning g‘oyalari bilan tanishgan Kichik Joxn Rokfeller shu muzey qurilishiga kerakli mablag‘ni ajratdi va Uilyamsberg 1934-yili o‘zining birinchi tomoshabinlarini kutib oldi. Dastlabki rejalari amalga oshishi uchun 300 ta zamonaviy qurilish ishlari, 60 ta qadimiy binolarni restavratsiya qilish, 70 ta buzilgan inshootlarni nusxasini, ularning ichida Kapitoliy, Sud binosi, Turma, Gubernator qarorgohi kabilarni qurish talab qilindi. Ikkinchi Jahon urushi to‘xtatilgan qurilish ishlari 1945-yilda yangilandi va amerikaliklar XVIII asr o‘zining ajdodlari hayotini g‘ayrioddiy ko‘rinishlaridan bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

XVIII asr oxirida boshlangan muzeyshunoslik ixtisosligi hal qiluvchi tusga kirdi va 100 yil o‘tib, jahon muzey manzarasi tarixiy, adabiy, qishloq xo‘jaligi, pedagogik, teatr va musiqa, badiiy va

⁶⁸ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 898 p.

tabiiy, ilmiy, memorial va sanoat muzeylari tashkil topdi. XX asrda ilmiy-texnika jarayonlari jahon muzey tarmoqlarini rivojlanishidagi yangi namoyishlarni kashf qildi. Kosmonavtlar muzeyi, suvosti arxeologiya muzeyi, yerga tegishli bo'lmagan predmetlar muzeyi, eko-muzeylar – bularning hammasi hozirgi kunda ham jadal suratlarda rivojlanib, keng tarqalmoqda.

Stokgolmdagi Qirollik saroyi

Shvetsiya poytaxti Stokgolmdagi Qirollik saroyining asosiy ko'rinishi shved ruhoniylarini tantanali chiqishlari uchun qurilgan. O'rta asrlarda bu saroy o'rnida Berger Yarli tomonidan qurilgan qal'a bo'lgan. Bu qal'a Boltiq va Marale orollarini himoyalash uchun qurilgan. Stokgolm tarixi shu qal'a qurilishi bilan boshlangan.

Yuxon III kelishi bilan, XVII asr oxirida bu qal'ani eskirgan deb hisoblaydi. Shuni aytib o'tish joizki, yangi davrga kirib kelguncha bu qasr qirollik yerlarini va Shvetsiyani boshqarilishida katta rol o'ynagan. 1690 — 1697-yillar oralig'iga kelib Tessen loyihasi asosida Borokko uslubida yangi qasr quriladi.

1697-yilning 7-may kuni qurib bitkazilayotgan qasr katta yong'in sababli kuyib kul bo'ladi. Tessen esa bundanda mustahkamroq yangi qasr qurilishini boshlaydi. Bu qasr fasadi uzunligi 120 metr, ichki xonalari 600 ta xonadan iborat bo'ladi. Iqtisodiy qiyinchiliklar sababli yangi qasr qurilishi 1754-yilga qadar cho'zilib ketadi. Shimoliy-g'arbiy tomoni 1760-yilda qurib tugallanadi, qasr ichki ko'rinishi Bernini loyihasi asosida qurilgan bo'lib, Borbirini palat-sosiga o'xshash bo'lgan. Shved qirollarining bu ulkan va hashamatli saroyi hozirgi kunda muzey sifatida ommaga namoyish qilinmoqda. Bu saroy shved xalqining ulkan merosidir⁶⁹.

⁶⁹ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 902 p.*

Polsha muzeylari

1. Varshava milliy muzeyi.
2. Qirollik saroyi muzeyi.

Mamlakatning rasmiy nomida zamonaviy polyakcha respublika soʻzi emas, balki eski- (polyakchadan: mushtarak narsa soʻzi ishlatiladi). Yevropadagi davlat, shimoldan Boltiq dengizi bilan yuviladi. Yevropa Ittifoqi aʼzosi. Poytaxti — Varshava shahri. Davlat tuzumi Respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 1997-yil 25-mayda qabul qilingan.

Polsha — Visla va Odra daryolari havzasida, shimolda Boltiq dengizi va janubda Karpat va Sudet togʻlari oraligʻida joylashgan. Hududining 90% dan koʻprogʻi tekislikdan iborat. Dengiz boʻylari past, qumloq. Qazilma boyliklari — toshkoʻmir, qoʻngʻir koʻmir, tabiiy gaz va neft, temir, mis, qoʻrgʻoshin, oltingugurt, ruh; kaliy, magniy va tuz konlari bor. Iqlimi moʻtadil boʻlib, okean iqlimi bilan kontinental iqlim oʻrtasida.

Polsha hududining yarmidan koʻprogʻi haydalgan yerlar, 28% oʻrmon, aksariyat joylarda igna bargli, gʻarbi va janubida keng bargli daraxtlar oʻsadi. Aholisining 98,5% ini polyaklar, ukrainlar, beloruslar, slovaklar tashkil etadi. Dindorlarning koʻpchiligi katoliklar. Shahar aholisi — 62,1%. Yirik shaharlari: Varshava, Lodz, Krakov, Vrotslav, Poznan, Gdansk.

Tarixi. Polsha hududida paleolit davridayoq odamlar yashagan. Mil. av. 1-ming yillikda Polsha hududida slovyan qabilalarining shakllanish jarayoni sodir boʻldi. VIII-IX asrlarda qabila knyazliklari vujudga keldi. X asrda Odra, Visla va Bug daryolari oraligʻida yashovchi polyan (Polsha, polyaklar nomi shundan kelib chiqqan), mazovshan,

vislyan, pomoryan qabilalarining knyazliklari birlashtirildi va yagona Polsha davlati tashkil topdi. Biroq XII asrga kelib, Polsha davlati yana knyazliklarga bo'linib ketdi. XIII asr oxirida knyaz Pshemisl II rahnamoligida Polsha yerlarini birlashtirish uchun kurash boshlandi. XIV-XV asrlarda yagona Polsha davlati paydo bo'ldi va madaniyati rivojlandi. Polyak tili shakllandi. XV asrning 1-yarmida Krakovdagi Yagaylo universiteti polyak fani markaziga aylandi.

XVI asrning 2-yarmidan Polsha davlati ukrain, belorus va rus yerlarini bosib ola boshladi. Polsha bilan Litvaning birlashuvi natijasida Rech Pospolita paydo bo'ldi. 1609 — 1612-yillarda Polsha Rossiyaga hujum qildi. Bir necha asr mobaynida Polsha Yevropadagi eng qudratli davlatlardan biri bo'lib turdi. Ammo og'ir urushlar sababli mamlakat inqirozga uchrab, uch marta Prussiya, Avstriya, Rossiya o'rtasida bo'linib ketdi. Polsha davlati tugatildi. 1807-yilda Napoleon I qo'shinlari Prussiyani engib, Fransiya tobe Varshava gersogligini tuzdi. 1814 — 1815-yillarda Vena kongressida Polsha yana bo'lindi. Varshava gersogligining katta qismi Polsha qirolligiga aylantirilib, Rossiyaga topshirildi.

15 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ta'lim majburiy, barcha pog'onalari davlat ta'minotida. Hunar-texnika maktabi boshlang'ich va muntazam ta'limni o'z ichiga oladi. Ixtisoslashtirilgan litseylar ham bor. Xususiy maktablar tarmog'i kengaymoqda. Polshada 130 ta oliy o'quv yurti faoliyat yuritadi. Yevropadagi eng qadimgi universitetlardan Krakov universiteti (1364), shuningdek, Varshava universiteti, politexnika institutlari, iqtisodiyot, tibbiyot va rassomchilik akademiyalari shu jumlag kiradi. Mamlakatdagi ilmiy faoliyatni Fan vazirligi olib boradi. Shuningdek, fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlarida, oliy o'quv yurtlarida, idoraviy ilmiy muassasalarda olib boriladi. Polshada Banax nomidagi xalqaro matbuot markazi faoliyat olib boradi.

Yirik kutubxonalari:

1. Krakov universiteti kutubxonasi.
2. Poznan unuversiteti kutubxonasi.
3. Fanlar akademiyasining Varshava, Gdansk, Krakovdagi kutubxonalari.

Eng yirik muzeylari:

1. Varshavadagi Milliy muzey.
2. Krakovdagi Milliy muzey.
3. Poznandagi Milliy muzey.
4. Varshavadagi F.Shopen, A.Mitskevich muzeylari.
5. Varshavadagi Qirollik saroyi muzeyi.
6. Goldshteyn saroyi shular jumlasidandir.

Polsha adabiyoti X asrda dalotin tilida vujudga keldi. XVI asrgacha unda diniy ruhdagi kitoblar, shuningdek, yilnoma va voqeya-hikoyalar ustun bo'lgan. Polyak tilidagi ilk asarlar ham diniy mazmunda edi. XV asrda dunyoviy ruhdagi asarlar yaratila boshladi. XV asr oxiri, XVI asr boshlarida Uyg'onish davri boshlandi. M.Rey, Y.Koxanovskiy, Sh.Shimonovich, S.Klyonovich asarlari ado-lat va vatanparvarlik g'oyalarini tarannum etdi. XVI-XVII asrlarda hajviy doston va qissalar, nasihatomez qo'shiq va dramalar, qisqa hazil she'rlar mashhur bo'ldi. XIX asr boshlarida A.Mitskevich milliy ozodlik kurashi ta'sirida inqilobiy romantizmga asos soldi, demokratik Polsha haqidagi orzularni kuyladi. Birinchi va ikkinchi jahon urushi o'rtasidagi davr adabiyotida ijtimoiy ziddiyatlar tanqidiy yoritildi. Urushdan keyin adabiy asarlarda okkupatsiya yillarida yashirin kurash olib borgan vatanparvarlarning qiyofasi har tomonlama ochib berildi. Ammo sotsialistik realizm degan soxta adabiy qoliplar zo'rlab tiqishtirilishi oqibatida polyak adabiyotida xalq hayoti va qahramonlarining ishlari, xulq atvori bir yoqlama yoritilishiga olib bordi. Polyak yozuvchilari-ning ayrim asarlari, jumladan, A.Mitskevich, Y.Tuvim she'rlari, V. Vasilevskaya romanlari o'zbek tilida nashr etilgan.

Me'morchiligi. Mil. av. IV-III asrlarga oid Biskupin jamoa manzilgohlarida yog'ochdan yasalgan inshootlar polyak hududidagi eng qadimiy yodgorliklar hisoblanadi. Xristianlik dini qabul qilingach, diniy tosh me'morchiligi rivojlandi. XI asrning ikkinchi yarmidan roman uslubida haykallar bilan bezatilgan mahobatli binolar qurildi. Krakovdagi avliyo Anjey kostyollari, xalq yog'och me'morchiligi rivojlandi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan klassitsizm urf bo'ldi. Shaharlarda mahobatli jamoat binolari va majmualari barpo etildi (Varshavadagi Belveder saroyi). XIX asrning ikkinchi yarmidan eklektizm, keyinroq konstruktivizm ustunlik qildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida fashistlar Polshaning shahar va qishloqlarini vayron etib, ko'pgina me'moriy yodgorliklarga zarar yetkazdilar. Urushdan so'ng ularni qayta tiklash va yangilarini barpo etish sohasida ko'p ishlar amalga oshirildi⁷⁰.

Tasviriy san'ati. Polsha hududidagi aholi neolit davridayoq naqshinkor sopol idishlar yasagan, jez va temir davrlarida sopol va jez idishlar, parranda va hayvon rasmi tushirilgan ikki g'ildirakli aravalar ishlangan. XI-XIII asrlarda roman uslubi hukmron bo'ldi. Sthelnodagi kostyolning o'ymakor ravoqlari, XII asrda Tumadagi kostyol naqshlari, "Emmeran kodeksi" miniatyuralari. XIII asr oxiridan XV asr boshlarigacha gotika uslubi hukmron bo'ldi. (Krakovdagi Vavel soboridagi V.Yagello dahmasi). 1421-yil "Gnezo bibliyasi" miniatyuralari. XV asr oxiri XVI asr boshlarida polyak Uyg'onish davri san'ati shakllana boshladi. XVI asr oxiridan XVIII asr o'rtalarigacha borokko uslubi yoyildi. XVIII asr ikkinchi yarmi XIX asr boshlari Polsha san'ati ma'rifatparvarlik ruhi bilan sug'orilgan edi. Garchi ayrim mo'yqalam ustalari (M.Bacharelli) saroybop rasmlarni klassitsizm uslubida yaratsalar, ko'pchilik rassomlar hayotini haqqoniy tasvirlashga (B.Bellotto, J.P.Norblin, A.Orlovskiy), polyak xalqining milliy ozodlik kurashini ifodalashga (A.Grotger) intildilar. A.Kotsis, V.Gerson asarlarida tanqidiy realizm nishonalari seziladi. XIX asrda

⁷⁰ www.Museums Poland.com

M.Gerimskiylar ijodida bu yoʻnalish yuqori pogʻonaga koʻtarildi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida L.Vichulovskiy, Ya.Stanislavskiy, Yu.Falat asarlari — imperissionizm, S.Vispyanskiy, Ya. Malchevskiy asarlari — simbolizm ruhida yaratildi. 1918-yildan polyak sanʼati ziddiyatli rivojlandi. Ayrim rassomlar Gʻarbiy Yevropa madaniyati yutuqlariga ergashsa, boshqalari zamonaviy milliy uslubni yaratishga intildi. Taniqli polyak haykaltaroshi K.Dunikovskiy oʻz faoliyatini shu davrda boshladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin tasviriy sanʼatda rassomlardan V. Veys, F.Kovrskiy, X.Krayevskaya va Yu.Kraevskiy, haykaltarosh S.Gorno-Poplavskiy, grafiklardan T.Kulisevich, T.Trepkovskiy va boshqa yana bir qator rassomlar mashhurlik choʻqqisiga erishdilar. Mahobatli haykaltaroshlik rivoj topdi. Amaliy bezak sanʼatining har xil turlari qadimdan keng tarqalgan, badiiy hunarmandchilik avj oldi.

Chex musiqasida boshqa slavyan xalqlari musiqa madaniyati bilan umumiylik koʻp. XX asrgacha saqlangan xalq cholgʻu asboblari shaqildoq, buben, hushtaklar joʻrligida marosim qoʻshiqlari (asosan bir ovoqli), raqslar ijro etiladi. Skifka, mazanka kabi torli, ligafka, bazun kabi puflab chalinadigan sozlar keng tarqalgan. IX-XX asrdan katolitizm tarqalishi bilan birga, grigoryan xorallik keng oʻrin tutadi.

XI-XII asrlarda cherkov ashulachilik maktablari ochilib, ularning talabalari cherkov musiqasini turli joylardagi xalq musiqasi bilan boyitdilar. XII asrdan professional musiqa (jumladan, ritsarlar musiqasi) rivoj topdi, saroy kapellalari tashkil etildi. XVI asrdan universitetlarda musiqa nazariyasi oʻrgatila boshladi. XVI-XVII asrlarda yetishib chiqqan kompozitorlar milliy kuylarni Gʻarbiy Yevropa raqs va musiqasi bilan uygʻunlashtiruvchi asarlar yarata boshladilar. 1765-yil Varshavada ochilgan “Xalq teatri”da milliy operalar sahnalashtirildi. K.Kurpinskiy, Kamenskiy, M.Oginskiy, Y.Elsner kabi buyuk musiqachilar uning rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshdilar. XIX asrda buyuk kompozitorlar F.Shopen, S.Monyushko, virtuozi skripkachi aka-uka Venyavskiylar polyak musiqasini jahon musiqasi darajasiga koʻtardilar. 1901-yil Varshava milliy filormoniyasi ochildi.

XX asr musiqa madaniyatiga K.Shimanovskiy, V.Lyutoslavskiy, K.Penderetskiy kabi kompozitorlar katta hissa qo'shdilar. Polshada 21 ta simfonik orkestror, 10 ta opera teatri, 9 ta operetta teatri, 9 ta balet truppasi, 7 ta oliy musiqa maktabi, 4 ta xoreografiya bilim yurti bor. 1927-yildan xalqaro Shopen nomidagi pioninotchilar tanlovi, 1935-yildan Venyavskiy nomidagi xalqaro skripkachilar hamda zamonaviy musiqa festivali o'tkaziladi.

Teatr. Xristianlikdan avvalgi davr xalq marosimlari va o'yinlarida teatr san'ati nishonalari bo'lgan. XIII-XVI asrlarda turg'un va sayyor xalq tomoshaxonalari qurilgan, diniy dramalar rivojlangan. XIII asr-ning ikkinchi yarmida ko'rsatilgan teatr tomoshalarining ayrim ssenariylari saqlangan. 1633-yil Varshavadagi qirol saroyida birinchi doimiy teatr ishga tushdi. XVIII asr oxirida ilg'or milliy teatr san'ati uchun kurashga rejissyor, artist, dramaturg V.Buguslavskiy boshchilik qildi.

O'zbekiston — Polsha munosabatlari. Ikki xalq o'rtasidagi aloqalar ko'p yillik tarixga ega. Xususan, 1863 — 1864-yillarda chor Rossiyasiga qarshi qo'zg'olon ko'targan polyaklar O'rta Osiyoga surgun qilingan edi. Ular Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Qo'qon va boshqa shaharlarda yashab, mehnat qildilar. 1895-yil Toshkentda polyak bolalari uchun maktab va kutubxona ochildi, keyinroq polyaklar kosteli faoliyat boshladi. Ikkinchi jahon urushi davrida Polshani nemis-fashist qo'shinlaridan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda o'zbek generali S.Rahimov Gdansk yaqinida halok bo'ldi. Shu urush oqibatida ommaviy qatag'onlar sababli, polyaklarning mintaqamizga ikkinchi ko'chishi sodir bo'ldi. O'tgan yillarda polyak-o'zbek xalqlari vakillari inoq yashab keldilar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, polyaklarning "Svetlitsa Polska" madaniyat markazi jamoatchilik uyushmasi maqomini oldi. O'zbekistondagi 3000 ga yaqin polyak aholisiga o'z milliy an'alarini va madaniyatini rivojlantirish, ikki mamlakatning milliy va davlat bayramlarini nishonlash imkoni yaratildi. Polsha assotsiatsiyasi huzuridagi "Poloniya" seksiyasi, "Svetlit-

sa Polska”ning Samarqand, Farg‘ona, Buxoro va Toshkent sho‘balari faoliyat yurityapti. Turli tarixiy sanalar, polshalik mashhur madaniyat va san‘at arboblari bag‘ishlangan uchrashuv, kechalalar, konsertlar uyushtirib turiladi. Buyuk kompozitor Fredirik Shopenga bag‘ishlab Toshkentda fortepiano musiqa festivali, A.Mitskevich va V.Reymont kabi mashhur yozuvchi va shoirlarning xotira kechalari o‘tkazildi.

Varshava Milliy muzeyi

Varshava Milliy muzeyi Polsha mamlakatida joylashgan. Bu muzey 1862-yilda “San‘at muzeyi” nomi bilan ochilgan. 1916-yilgacha ushbu muzey san‘at maktabi binosi bilan birgalikda joylashtirilgan. Muzeyning hozirgi kundagi binosi 1927 — 1938-yillar oralig‘ida me‘mor Tadeusha Tolvinsko va Antona Digata loyihasiga binoan barpo etilgan. 1964 — 1972-yillarda muzeyning shimoliy qismi yangi loyiha bo‘yicha taniqli me‘morlar Karlya Golavskiy va Stefana Kozinskiylar tomonidan qayta tiklandi.

Muzey kolleksiyalari orasidagi graviyuralar Milliy kutubxona va maktab fondi jamg‘armasidan olingan. 1916-yilda muzey Varshava shahrining shaxsiy “Milliy muzeyi” nomi bilan ochildi.

1916-yildan 1935-yilgacha muzey direktori Bronislav Gembajevskiy, 1935-yildan esa muzeyning yandi direktori etib, Stanislav Lorens tayinlangan. U bu muzeyni 47 yil davomida, ya‘ni o‘limiga qadar boshqargan.

Ikkinchi jahon urushida muzey kolleksiyasiga etarlicha ziyon yetkazildi. 1944-yilda Varshava hukumati noyob kolleksiyalarni muhofaza qilishga uringan⁷¹.

Muzey kolleksiyalari. 1961 — 64-yillarda polyak arxitektori Kazimeja Mixaylovskaya tomonidan Shimoliy Sudan shahrining Faras nomli yeridan qadimgi xristian koptlar san‘atiga tegishli bo‘lgan boy eksponatlarni topishga musharraf bo‘ldi. Muzey o‘zining juda ham boy kolleksiyalarga egaligi bilan boshqa muzeylardan ajralib turadi.

⁷¹ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 669 p.*

Bugungi kunda muzey eksponatlari orasida antil davrdan to XX asrgacha tegishli bo'lgan noyob buyumlarni uchratish mumkin.

1. Antik davr san'ati kolleksiyasi (qadimgi Misr san'ati namunalari).
2. Xristian san'ati kolleksiyasi (Farasdan topilgan).
3. O'rta Osiyo san'ati.
4. Sharq san'ati kolleksiyasi.
5. Polsha rangtasvir san'ati kolleksiyasi.
6. Zamonaviy Polsha san'ati kolleksiyasi (Miniatyura kabinet).
7. Zamonaviy Polsha san'ati (gravyuralar va suratlar kolleksiyasi).
8. G'arb mamlakatlari zamonaviy san'ati (Yevropa rangtasvir galereyasi).
9. Zamonaviy g'arbiy davlatlar grafikasi va suratlari.
10. Zamonaviy san'at kolleksiyasi (XX asr Polsha san'ati).
11. Amaliy san'at kolleksiyasi (Polsha amaliy san'ati).
12. Amaliy san'at kolleksiyasi (g'arbiy davlatlar amaliy san'ati).
13. Haykaltaroshlik kolleksiyasi.
14. Tanga va medallar to'plami.
15. Ikonagrafiya va foto kolleksiyalari.

Bundan tashqari, bu muzeydagi eng shedevr darajasiga ko'tarilib e'zozlanadigan kolleksiyalardan biri Faras ibodatxonasidagi koptskiylarning "Avliyo Anna" nomli devoriy freskasi hisoblanadi. Milliy muzey fondida 800 mingdan ziyod eksponatlar bo'lib, ular polsha va butun jahon antik dunyosi san'atining noyob namunalari hisoblanadi. Ular, asosan, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, fotografiya, qadimiy tangalar va yana amaliy san'at turiga xos bo'lgan bir qancha eksponatlarni o'z ichiga oladi.

Varshava Milliy muzeyining asosiy eksponatlari orasida ikkinchi jahon urushi davridagi: "Vaza ichidagi apelsin" — Aleksandr Gerimskiy, "Usta rassom" — Leon Vichulkovskiy, "Negrlar" — Anna Blinskiy kabi iqtidorli rassomlarning asarlari ham o'rin olgan. Bu muzeydagi har bir kolleksiyadan o'rin olgan asar uning tarixida alohida bir ahamiyatga molik bo'lgan xotirani jonlantirgandek bo'ladi.

Milliy muzey modern uslubida qurilgan bo'lib, u Varshavaning eng taniqli va tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan ko'priklaridan biri — Ponyatovskiy va Sharlya de Gollya halqasi yaqinida joylashgan.

Muzeyda joylashgan taniqli eksponatlar orasida Qadimgi Misr va Vizantiya san'atiga oid ko'plab buyumlar, XV-XX asrga taalluqli bo'lgan Yevropa rangtasvir va haykaltaroshlik asarlari, XIII-XX asr Polsha san'atning noyob durdonalari, amaliy san'at, grafika namunalarini uchratish mumkin. Hozirgi kunda muzey fondida 11 mingdan ziyodroq eksponatlar mavjud. Muzey galereyasidagi kolleksiyalar ichida XVI- XVII asrlar G'arbiy Yevropa rassomlarining asarlari ham mavjud. Muzeyning bu qismi ekspozitsiyalar flamandlar, nemislar, italyanlar, fransuzlar, gollandlar va rus maktablarinining mohir rassomlarining ishlari bilan to'ldirilgan. Muzeyda Rembrand, Tintoretto, Botichelli, Kranax kabi rassomlarning shedeвр asarlari, Yan Mateyko va Genrik Semiradskolarning mahobatli polotnolarini ham ko'rish mumkin.

Bugungi kunda Varshava Milliy muzeyining 3 ta filiali mavjud. Faras galereyasi modern uslubida jihozlangan. Bu galereya 2013-yil boshlarida ochilgan. Unda ham asosiy muzeydagi eksponatlar qatoridan mashhur rassomlarning shedeвр asarlari o'rin olgan. Ular orasida Sandro Botichellining "Bibi Maryam bola bilan" nomli asari ham mavjud⁷².

Varshavadagi Qirollik saroy muzeyi

Varshavadagi Qirollik saroyi Polsha poytaxti Varshava shahrida joylashgan milliy madaniyat yodgorliklaridan biri hamda davlat muhofazasiga olingan yodgorlik hisoblanadi. Bu saroy o'zining bir qancha tarixiy davrlarni bosib o'tganligi va o'zining betakror ko'rinishini hozirgi kungacha saqlab kelayotganligi bilan ayniqsa, ahamiyatlidir.

⁷² *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 670 p.

U 1598 — 1618-yillarda Polsha qiroli va Litva knyazi Simund Vaze tomonidan Mozoveyts knyazining oʻrta asrlarga xos qasri oʻrnida qurilgan edi. Saroy sanʼatning eng yuksak namunalaridan hamda beshburchak shaklida boʻlib, u shahar qurilmalari fonida 60 metrli Sigizmund minorasi bilan ajralib turadi.

Saroy XII asrda shved yurishi va Shimoliy urush vaqtida talon-taroj qilindi. Yan Sobeskiy va Avgust III bu saroyi qayta taʼmirlash uchun yetarlicha mablagʻ ajratadilar. Stanislav Avgust Ponyatovskiy tashabbusiga koʻra, Vislani oʻrtasidan klassik uslubga ega boʻlgan zamonaviy yangi qanot qurib bitkazilgan, eski qasr va qirollik kutubxonasining uzun korpusi ham yangi zallar va qurilmalarning yonida qolib ketdi.

Varshava Qirollik qasri 1526-yilda qirollik knyazlarining oʻrta asr rezidensiyasi boʻlib xizmat qilgan. Keyinchalik 1569-yilda Seyma Rechi Pospometaning majlislar oʻtkazadigan joyi boʻlgan. Keyinchalik 1795-yilgacha Polsha qirollari qoʻnim topganlar, monarxlar rezidensiyasi, Varshava knyazligi va Kongresovskiy qirollik davrida Seymaning turar joyi hisoblangan, 1926-yildan boshlab Davlat sanʼat majlisining direksiyasi va Pospolit Rechi prezident rezidensiyasining turar joyi boʻlib xizmat qilgan. 1939-yildan boshlab nemis harbiylari qirollik qasrini vayron etganlar. 1944-yilga kelib butunlay vayron etilgan. Keyinroq saroy tiklanib, butun qolgan fragmentlari qayta tiklangan. 1979-yildan boshlab qasr tarix va milliy madaniyat yodgorligi sifatida tan olingan. Bu vaqtdan boshlab Varshava Qirollik qasri davlat muassasasi sifatida faoliyat yurita boshladi. Ikkinchi jahon urushi vaqtida saroy qayta rekonstruksiya qilindi. Saroyi qayta tiklash jarayonida deyarli butun mamlakat ishtirok etdi. Shu narsaga eʼtiborni qaratish lozimki, Qirollik qasri va eski shahar Varshavaning eng eʼtiborga sazovor joylaridan biri hisoblanadi va ular YUNESKO tarkibiga kirgan butun insoniyatni eng diqqatga sazovor yodgorliklari qatoridan oʻrin egallagan. Qirollik rezidensiyasini qayta tiklanishi nafaqat Polsha, balki butun Yevropada katta qiziqish uygʻotdi. Restavratorlarga

yordam sifatida ko'pgina komitetlar tashkil etildi. Qasr muzeylariga ko'pgina buyumlar olib kelindi. Shu jumladan, qirol Stanislav Avgust Ponetovskiya taalluqli bo'lgan bir necha buyumlar, ularning orasida Rembrandning 2 ta asari ham bor. 1569-yilda Polsha-Litva Seymi Varshavani o'zining qirollik saylovlari o'tkaziladigan shahar sifatida tanlab oldi. Bu vaqtdan boshlab qasr qirollik talablariga mos kelish uchun qayta rekonstruksiya qilindi. Barcha Polsha qirollari, Sigizmund II Avgustdan boshlab-Stefan Batoriya-gacha, qo'llab-quvvatlash uchun Qirollik qasriga tashrif buyurdilar.

Qirol Sigizmund III Vaza poytaxtni Krankovadan Varshavaga ko'chirmoqchi bo'lgan vaqtda Mazovetskiy knyazligi qasri o'rnida g'ishtli qasr qurilishi boshlangan edi. 5 burchakli ikki qavatli qasr italiyalik arxitektor Mateo Kastelli, Djakalo Rodondo, Djavanni Travanolardan tomonidan ilk borokko uslubida qurila boshlangan edi. Qasrni barpo etish 1598-1619-yillar davomida amalga oshdi. Keyinchalik Qirollik qasriga Sigizmund II Avgustning yangi uyi, Grozdka minorasi, kichik va katta maydonlar qo'shib quriladi. Qasr bir necha bor kengaytirilgan. Avgust III podshohlik davrida qasrga Visla tomonidan Vettino qanoti qo'shib barpo etildi. Interier borokko uslubida, o'yma bezaklar esa Yan Eji Plerm tomonidan bajarilgan edi.

Saroy kolleksiyasi. Stanislav Avgust Ponyatovski boshqaruvi davrida Dominiko Merini loyihasiga ko'ra, Qirollik kutubxonasi barpo etildi. 1795-yilda Yevropaning siyosiy qarashidan Polshani butunlay yo'q bo'lib ketgungacha bo'lgan davrda qasr qirollik rezidensiyasi sifatida xizmat qilgan. Bu yerda deputatlar majlislar zali ham joylashgan edi. Bacharulovka Qirollik qasridagi ikkinchi qo'shimcha qurilma edi. Bu qanotni Varshavada birinchi rangtasvir maktabini tashkil etgan italiyalik rassom Marchello Bacharelli sharafiga shunday nomlangan edi.

1818 — 1822-yillarda saroyga bezakli arkadalarga ega bo'lgan klassik uslubdagi ochiq terassa qo'shib qurildi. Terassaning muallifi polyak Yakublitskiy edi. Erto'la shiftlari qasrning uzoq tarixi-

dan darak beradi. Birinchi qavatda Kanaletto zaliga e'tibor qaratish mumkin. Unda XVIII asr italyan rassomi Bernardo Belotoni qo'lyozmalari namoyish etilgan bo'lib, u tarixda Konaletto nomi bilan iz qoldirgan. O'n yettita tilla suvi yugirtirilgan ustunlarga ega bo'lgan "Raqsalar zali" eng chiroyli ko'rinishga ega hamda bu yerda afsonaviy mavzuga ega bo'lgan mamlakatdagi qo'lyozmalar saqlanadi. Senat va Seymilar zalida Yana Mattheyko asarlari joylashtirilgan. Ikkinchi qavatda buyuk polyak yozuvchisi Stefan Jerromskiy studiyasi, quvg'indagi Polsha hukumatining zalini, birinchi polyak prezidenti Gabriel Narutovich kabinetini ko'rish mumkin.

Ajoyib marmar kabinetda avval payshanba kunlari taniqli tushliklar o'tkazilgan. Qirol Stanislav Avgust Ponyatovskiy odatda o'zining tushlik stoli atrofida Polsha hukumatini taniqli arboblari bilan suhbat o'tkazgan. Zal turli rangdagi marmarlar va har xil polsha qirollarining suratlari yordamida, Yan Bogumil Plerli va Marchello Bacharellilar tomonidan bezatilgan. Yangi plofon — Yan Karchevskiy va Stefan Porvadoyskiyning original devoriy suratining nusxasi hisoblanadi⁷³.

Ritsarlar zalida biz ko'pgina bebaho grafika ishlari albomlar, ilustratsiyalar, suratlar, kartalar va globuslar, har xil antik saroy, diniy va arxitektura mavzusidagi sahna asarlarini ko'rishimiz mumkin. Bu ishlar shu davr ustalari, D.Piransex, G.Greter, Ya.Dyuliklarga taalluqli. Bu muzeyda bebaho surat "Stokgolm Ruloni" joylashgan. Uning uzunligi 15 metrni tashkil etadi va unda qirol Sigizmund III va gersoginya Konstantiniyaning 1605-yildagi unashtiruv nikoh marosimi tasvirlangan.

Hozirga kelib muzeyda bir qator taniqli rassomlardan: Rembrant, Mateyko, Beliottoni qalamiga mansub, qadimgi Varshava ko'rinishlarini hamda Tadeush Kostayushko hoki solingan urnalarni ko'rishimiz mumkin.

⁷³ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 673 p.

Varshavadagi Qirollik qasri hozirda muzey sifatida faoliyat yuritadi. Unda bir qancha ko'rgazmalar zallari mavjud: Maslahat zali, Katta zal, Oval galereya, Marmar xonasi, Majlislar zali, Ritsarlar zali, Yig'ilishlar zali va boshqalar. Muzeyda turli davrlarga xos ekspozitsiyalar o'rin olgan. Rangtasvir asarlaridan Varshavaning peyzaj ko'rinishlari, Polshaning taniqli insonlari portreti, Strobl Smuglevich, Kaufman asarlari joylashtirilgan. Rembrandning "Yupitr ortidagi olim", "Shlyapali qiz" asarlari ular orasida alohida o'rin tutadi.

Muzeyda, bundan tashqari, Stanislavskiy davrining mebellari, gilamlari, soatlar, xrustal va bronza shamdonlar, qadimgi sharqiy sopol va sakson chinnilari o'rin olgan. Bundan tashqari, bu yerda arxiv ham bo'lib, u orqali qirollik hujjatlari, qirollik qasri aktlari, qirollik oilasining shaxsiy arxivlari hamda audiovizual axborotlari, fotosuratlar va ovoz yozuvlari bilan ham tanishish mumkin.

Muzey ekspozitsiyalarida Koudraya, Lebruna, Mondalngo kabi haykaltaroshlarning ishlarini hamda Yevropa hukmdorlari byustlarini va antik haykallarni zamonaviy nusxalarini ko'rish mumkin. Muzeydan Ilya Terezaning 560 ta gilamidan tashkil topgan kolleksiyalar o'rin olgan. Bundan tashqari, Bryussel, Polsha, Flamand va Fransiya gobelenlarini ko'rish mumkin.

Qasrda XVI-XVIII asrlarga xos bo'lgan Italiya, Gollandiya, Germaniya, Fransiya, Polshaning ajoyib mebellarini uchratish mumkin. Ayniqsa, Polsha qiroli uchun Rimga buyurtma qilingan 2 ta mozaika taxtali konsullik stoli alohida e'tiborga loyiq.

Visla daryosi qirg'oqida Kubitskiy arkadasini ko'rish mumkin. Bu urush vaqtida talofat yetmay qolgan yagona qasr qurilmasidir⁷⁴.

Hozirgi vaqtda qasrga ko'pgina sayyohlar tashrif buyuradilar. Ular qasrdagi maydonda turib minoradan keladigan soat bongini eshitish uchun to'planadilar.

⁷⁴ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 676 p.

Chexiya davlati muzeylari

2. Praga milliy muzeyi.
3. Praga amaliy san'at muzeyi.

Chexiya (chex. Cesko) Respublikasi – Markaziy Yevropadagi davlat. Poytaxti Praga shahri. Ma'muriy jihatdan 14 viloyatga bo'linadi.

Davlat tuzumi — suveren, demokratik davlat. Amaldagi konstitutsiyasi 1992-yil 16-dekabrda qabul qilingan va 1993-yil o'zgartirishlar kiritilgan.

Chexiya hududining katta qismi Chexiya tog'larida joylashgan. Uning atrofida o'rtacha balandlikdagi Shumova, Che-xiya o'rmoni, Rudali tog'lar mavjud. Chexiya soyligi tepaliklar va ularni ajratib turuvchi past tog'lardan iborat. Chexiyaning janubiy va markaziy qismlarida Moraviya qirlari bor. Iqlimi mo'tadil. Aho-lisining ko'pchiligi chexlardan iborat bo'lib, ularning orasida slovak va polyaklar ham mavjud. Rasmiy til — chex tili. Dindorlarning ak-sariyati katoliklar. Yirik shaharlari: Praga, Brno, Plzen, Ostrava.

Chexiya hududida odam paleolit davridan buyon ya-shaydi. Mil. av. taxminan 400-yillarda bu yerda keltlar qabilalari-ning boyi yas-hagan. I ming yillikning o'rtalarida Chexiyada slo-vyan qabilalari ko'pchilikni tashkil etdi. VII asrda Chexiya hududi Samo davlati, IX-X asrlarda buyuk Mraviya davlati tarkibiga kirdi. X asrda pay-do bo'lgan Praga knyazligi ilk chex davlatning o'zagi bo'lib qoldi, 1198-yildan qirollikka aylandi. 1310 — 1437-yillarda chex yerlari Lyuksemburglar sulolasi mulki tarkibida bo'ldi. XV asrning ikk-inchi yarmida Chexiyada kuchli ijtimoiy-inqilobiy, milliy ozodlik harakatlari bo'lib o'tdi. 1526-yil Gabsburglar imperiyasi tarkibiga muxtoriyat huquqi bilan qo'shib olindi. 1618 — 1620-yillarda chex qo'zg'olonchilarining mag'lubiyatidan so'ng, uning provinsiyasiga

aylandi. XVIII asr oxiri XIX asrning ikkinchi yarmida chex tili, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish uchun milliy harakat avj oldi. XIX asrning 30-40-yillarida siyosiy tus ola boshladi. 1848 — 1849-yillarda Gabsburglar imperiyasida inqilob boshlanishiga olib keldi. 1867-yil Chexiya, Avstriya — Vengriyaning tarkibiga kirdi. 1878-yilda Chexiyada Chexoslavyan ijtimoiy demokratik partiyasi tuzildi, 1918-yil Avstriya-Vengriya parchalangach, Chexiya, Slovakiya bilan birlashib, mustaqil Chexoslovakiya Respublikasi tashkil etdilar. Maorifi, ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasalari, Chexiyada 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun sakkiz yillik majburiy ta'lim joriy etilgan. Sakkiz yillik maktab negizida to'liq o'rta ta'lim, gimnaziya, o'rta kasb-hunar bilim yurtlari va maktablar faoliyat yuritadi. Ular malakali ishchilarni tayyorlaydi. Chexiyada 23 ta oily o'quv yurti bor. Yiriklari: Praga universiteti, Politehnika instituti, Iqtisodiyot instituti, Tasviriy san'at akademiyasi, Musiqa san'at akademiyasi, Brno, Olomouts shaharlaridagi universitetlar, Ostravadagi konchilik instituti va boshqalar. Yirik kutubxonalari: Praga universiteti kutubxonasi, Ya.A. Komenskiy nomidagi ped. Davlat kutubxonasi, Ostrava, Olomouts, Plzen va boshqa shaharlarda kutubxonalari bor. Chexiyada bir qancha muzey va galereyalar ham mavjud⁷⁵.

Yirik muzeylari:

1. Pragadagi Milliy muzey va Milliy galereya.
2. Naprskak nomidagi etnografik muzey.
3. A.Dvorjak muzeyi.
4. B.Smetana muzeyi.
5. Chexiya Milliy yozuvi muzeyi.
6. Amaliy san'at muzeyi.
7. Stragovskaya nomli kartinalar galereyasi.

⁷⁵ www.Museums.Czech.Republik.com

8. Texnika muzeyi.

9. Praga shahar muzeyi.

10. Praga arxeologiya muzeyi va boshqalar.

Adabiyoti. IX asrda paydo bo'lgan chex yozuvi dastlabki eski slovyan tilida rivojlandi. Bunda aka-uka Kirill va Mefodiylarning ma'rifatparvalik faoliyatlari muhim rol o'ynaydi. Buyuk Moraviya davlati ag'darilgach, lotin tili yoyildi. Pragalik Kozmaning "Chex xronikasi" asari (1125) lotin tilida yaratilgan yirik asar hisoblanadi. Dalimil Mezerjitskiyning XIV asr boshlarida yaratgan "Dalimil xronikasi" asari chex tilidagi qadimiy adabiy yodgorlikdir.

Me'morchiligi va tasvriy san'ati. Chexiyada paleolit davri haykalchalari, neolit davriga oid keramika va boshqa buyumlar saqlanib qolgan. Katolitsizm qabul qilingach, Vizantiya, G'arbiy Yevropadagi kabi toshdan cherkovlar qurildi (Staremesto yaqinidagi ibodatxonalar harobalari). Pragadagi avliyo Vita ibodatxonalari, taxminan 930-yilda qurilgan. XI-XIII asrlarda roman uslubi shakllandi. XIII-XV asrlarda me'morchilikda gotika uslubi ravnaq topdi (Pragadagi avliyo Vita soborining sharqiy qismi). XVI asrning ikkinchi yarmida Chexiya me'morchiligida Uyg'onish davri uslubi unsurlari paydo bo'ldi. (Pragadagi Belveder saroyi taxminan 1536). XVII asrning ikkinchi yarmidan borokko uslubidagi saroylar qurila boshladi (Kllam Gallasov saroyi). XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida me'morchilikda klasitsizmdan so'ng eklektika ruhidagi "milliy romantika" yo'nalishi qaror topdi (Pragadagi Milliy muzey 1884-1890, me'mor Y.Shchults). XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida me'morchilikda modern uslubi o'rni ratsionalizm egalladi. 1920 — 1930-yillar me'morchilikda funksionalizm milliy maktabi shakllandi (Gradets Klanova shahridagi Y.Gocher inshootlari). Haykaltaroshlikda ham yuksak yutuqlarga erishildi. 1950-yillar Pragada yaratilgan chex xalqining milliy qahramoni Yan Jijka, rassom Y.Manes haykallari (haykaltarosh B.Kaofka) bundan tashqari, yozuvchi B.Nemsova haykallari, V.Makovskiyning "Yangi asr" kompozitsiyasi ayniqsa diqqatga sazovor. 1945-yildan

keyin turar joylar, jamoat markazlari, yangi ma'muriy va madaniy inshootlar qurilishi avj oldi. Jumladan, Brno shahridagi xalqaro mashinasozlik yarmarkasi majmui (me'morlar: Aleks, F.Lederer). Eshted tog'idagi teleminora va mehmonxonani aytib o'tish mumkin. 1970 — 1980-yillarda Pragada "Internatsional" mehmonxonasi (me'morlar: K.Filsak, I.Shvets) faoliyat yuritgan.

Chexiyada zargarlik buyumlari tayyorlangan. XI-XIII asrlarda devoriy suratlar, miniatyuralar paydo bo'ldi. XIII asr o'rtalari, XV asrning ikkinchi yarmida gotika uslubi ravnaq topdi. XIV asr ikkinchi yarmida portret yaratish san'ati rivojlandi. XIV asr oxiri XV asrning boshlarida Chexiya tasviriy san'atida amaliy bezak san'ati (badiiy shish, vitraj, mozaika, zargarlik buyumlari) keng yoyildi. XVII-XVIII asr tasviriy san'ati borokko uslubida rivojlanishi bilan birga, unda realistik va demokratik yo'nalishlar namoyon bo'ldi. Bu davrda haykaltaroshlardan M.B.Braun va F.M.Brokof mashhur bo'lgan. XVIII asr o'rtalarida rassomchilik va haykaltaroshlikda rokkoko va klassiksizm unsurlari paydo bo'ldi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Chexiya san'atida klassitsizm va romantizm bilan birga, realistik tendensiyalar yoyildi. Rassomlar milliy, tarix, o'lka tabiatini tasvirlash mavzuida asrlar yaratdilar. XIX asrning oxirgi choragida rassom M.Alesh, haykaltarosh Y.V.Mislbek ijodi rivojlandi. Bu davrda grafika modern uslubida taraqqiy etdi, haykaltaroshlikda Ya.Shtursa asrlari ajralib turdi. XX asr boshlarida avagardizm vakillari B.Kubishta, E.Filla, A.Proxaziya, Ya.Zraviy, R.Kremlichka ijod qildilar. 1918-yil mustaqil Chexoslovakiya davlati tashkil topgach, milliy madaniyatni rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ko'p avangardchi rassomlar o'z asarlarida real voqelikni aks ettirdilar (V.Novak, O.Kubin, Y.Chapek, V.Rabas). Ayrim rassomlar ishchilar sinfi kurashini haqqoniy tasvirladilar (K.Golan, K.Shtika rangtasvir asarlari, K.Pokorniy, Lauda haykal-lari, F.Bidlo, V.Silovskiyning grafik asarlari). XX asrning 20-30-yillarida chex san'atida ijtimoiy-tanqidiy yo'nalish shakllandi. 1945-yil Chexoslovakiya nemis — fashistlardan ozod etilgach, rassomlar

E.Filla, A.Paderlik, V.Sedlichek, haykaltaroshlardan: V.Makovskiy, K.Liditskiy, K.Pokorniy samarali ijod qildilar. Bu davrda monumental bezak turlari rivojlandi. 1970 — 1980-yillar san'atkorlari orasida A.Zabravskiy, R.Kolarj, Y.Broj kabi rassom va grafiklarni, I.Milovskiy, A.Aksman kabi haykaltaroshlarni ko'rsatish mumkin. Bu davrda amaliy bezak san'ati turlari keng yoyildi⁷⁶.

Chexiya madaniyati boy xalq ijodi, maishiy mehnat, marosim raqslari asosida rivojlanib keldi. Cholg'u asboblari — fuyar, volinka, nay, truba, sitra, arfa. IX asrdan professional diniy hamda dunyoviy musiqa ijodi taraqqiy etdi. XV asrda "guschilar musiqasi", polifoniya rivojlandi. XVI-XVII asrlarda maktab teatri, ayniqsa, havaskorlik teatrlari ko'plab paydo bo'ldi. 1737-yil Pragada birinchi doimiy teatr binosi — "Teatr-Kotsu" qurildi. 1786 — 1789-yillar "Bouda" teatrida chex tilidagi truppa ishlay boshladi. XIX asrning birinchi yarmida chex dramaturgiyasida YA.Shtepanek V.Klitsper, Y.K.Tilning asarlari paydo bo'ldi.

O'zbekiston-Chexiya munosabatlari. 1993-yil imzolangan "Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida" gi bitim ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 1997-yil yanvarda Chexiyaga qilgan tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim voqea bo'ldi. Tashrif chog'ida bir qancha hujjatlar imzolandi. Bu hujjatlar orasida sarmoyalarni o'zaro himoyalash va rag'batlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqaruvchi muassasalar va milliy banklarning hamkorligi to'g'risidagi hujjatlar alohida o'rin oldi. Chexiya Respublikasi industrial mamlakat hisoblanadi. Mamlakatdagi yetakchi tarmoqlar — yonilg'i, energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyoviy, yengil va oziq-ovqat sanoati hisoblanadi.

⁷⁶ www.museums.Czech.Republik.com

Praga Milliy muzeyi

Praga shahrida joylashgan ushbu muzey eng yirik muzeylardan biri hisoblanadi. U o'zining rivojlanish bos-qichi davomida bir qancha davrlarni bosib o'tib, hozirgi kungacha yetib kelgan. Uning o'ziga xos boy kolleksiyalari, doimo bu erga kelib turuvchi sayyohlarning qiziqishiga sabab bo'lib, hayratini yanada ortishiga turtki bo'ladi.

Pragadagi Milliy muzeyning bunyodga kelishi 1818-yillarda mam-lakatning milliy uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Muzeyning ilk tashki-lotchilaridan biri graf Kashpar Shternberg bo'lgan. Muzeyning tarixiy bo'limini tarixchi va siyosatshunos Frantishek Palatskiy boshqargan. Uning tashabbusiga ko'ra, 1824-yilda birinchilarda bo'lib, chex tilida ilmiy maqolalar chop etila boshladi. Milliy muzeyning birinchi kutubx-onachisi bo'lib filolog va shoir Vatslov Ganka tayinlangan. U birmun-cha taniqli va iqtidorli falsfaktor edi. Shu sababli uning "qo'lyozmalari" muzey eksponatlari orasidan alohida o'rin olgan. Muzey kolleksiyalari tez o'sib bordi va haddan ziyod ko'payib ketganligi sababli binoda joy borasida yetishmovchiliklar yuzaga kela boshladi. Shuning uchun ham bino maydonini biroz kengaytirishga to'g'ri keldi. Chexiyadagi Milliy muzeyni qayta barpo etishga besh yil davomida vaqt sarflandi. Mil-liy muzey binosi-ning balandligi 70 metrni va fasadining uzunligi 100 metrni tashkil etadi. U 1885 — 1890-yillar oralig'ida qurib bitkazilgan. Muzey binosining loyihasini Yozef Shultes tuzgan. Bino orqali Vaslavski-y maydoniga chiqiladi. Bu esa bino arxitekturasiga o'ziga xos chi-roy bag'ishlaydi. Bo'rtib chiqqan gumbazga ega bo'lgan bu mahobatli bino qadimgi "Konn darvozasi" o'rnida barpo etilgan bo'lib, Chexi-ya aholisi uchun alohida ramz ma'nosini bildiradi. Binoning asosiy fasadi haykallar bilan bezatilgan ramka tomoshabinlarning e'tiborini tortadi. Taxtda o'tirgan "xudo" ning yonida yosh qiz ham joylashtiril-gan bo'lib, u Vltava daryosining timsoli, qariya esa Elba daryosining timsoli hisoblanadi. Ona xudoning tepa qismida "ilm va san'at" xudol-ari joylashgan. Gumbaz ostidagi binoda Panteon ham joylashtirilgan.

U yerda bundan tashqari, chex madaniyatida o'ziga xos iz qoldirgan buyuk allomalarning byusti va haykallarining to'plami ham mavjud. 1912-yilda bino ro'parasiga Yozef Vasulav Mislbek tomonidan ishlangan "Avliyo Vaslav" haykali o'rnatilgan. Binoning bezatilishida ko'pgina iqtidorli va taniqli mo'yqalam ustalari, haykaltaroshlar o'z hissalarini qo'shganlar⁷⁷.

1901-yil may oyida ushbu muzeyning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Chexiya Milliy muzeyining ajoyib maydoni taniqli haykaltarosh Lyudvig Shvantxamer tomonidan ishlangan takrorlanmas haykallar bilan bezatilgan. Muzeyning asosiy zali, o'ziga xos Panteonda, chex rassomlari, haykaltaroshlari va yozuvchilarining eng durdona asarlari, haykallari, bir qancha polotnolari to'plangan bo'lib, unda Chexiya-ning 16 ta qasri tasvirlangan suratlar bilan bezatilgan zinapoya bilan bog'langan. XX asrda muzey kolleksiyalari birmuncha ko'payib ketgan. Chexiya Milliy muzeyi bo'limlarga bo'lingan va ularning har biri uchun alohida zal tashkil etilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida Chexiya Milliy muzeyi binosiga ikkita bomba tushib, asosiy zalga va yana bir qator bo'limlarga birmuncha talofat yetkazgan. Buning natijasida, ko'pgina eksponatlarini evakuatsiya qilishga to'g'ri keladi. 1968-yilda muzey fasadi yana bombardiman qilindi.

Muzey kolleksiyalari. Milliy muzey bir necha kolleksiyalarga bo'linadi. Muzey binosida, tabiiy bo'limlar va tarix muzeyi hamda kutubxona joylashgan bo'lib, uning kolleksiyasi 1,3 million tomdan va 8000 ming qo'lyozmadan iborat. Bundan tashqari, muzeyda saqlanayotgan eng katta minerallar to'plamiga imperator Rudolf kolleksiyasi asos solgan. Muzeyning ikkinchi qavatida esa tarixiy bo'lim joylashgan bo'lib, u o'zining arxeologik qazilmalari, tangalar va medallar kolleksiyalarining ko'pligi bilan ajralib turadi.

⁷⁷ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 204 p.

Muzey bo'limlari:

1. Bogomiya, Moraviya va Slovakiya tarixi.
2. Yevropa mamlakatlarining medallari, XIX — XX asrlardagi badiiy bezaklari.
3. Mineralogiya va petrologiya kolleksiyalari.
4. Paleontologiya kolleksiyalari.
5. Antropologiya kolleksiyalari(insonlarning suyaklari...).
6. Zoologiya kolleksiyalari.
7. Osteologiya kolleksiyalari.

Bu yerdagi eksponatlarning asosiy qismini Chexiyaning tarixini yaqindan yoritib bera oladigan, unga taalluqli bo'lgan buyumlar tashkil etadi. Ularning orasida tarixiy mavzuga doir asarlar to'plamini ham ko'rishimiz mumkin. XII asrga tegishli kumushdan ishlangan diademalar, Renessans davriga taalluqli bo'lgan taqinchoqlar va borokko uslubidagi bir qancha buyumlarni ham uchratish mumkin.

Muzeyning etnografiya bo'limida Chexiyadan boshlab, Sharqiy Yevropa hududlarigacha bo'lgan eksponatlar mavjud. Bu eksponatlar XVII asrdan hozirgi kungacha bo'lgan davrni to'liq yoritib bera oladi.

Numizmatika bo'limida esa taniqli graf Shtenrnberg tomonidan to'plangan noyob kolleksiyalarni ko'rish mumkin. Unda ibtidoiy davrga tegishli tangalardan boshlab, to'plangan kolleksiyalar namoyish etiladi. Bundan tashqari, muzeyda, chexiyalik kolleksionerlardan Yan Bartos va Yozef Knapga tegishli bo'lgan Chexiyaning eng mashhur rassomlari, liboslari, qadimgi qo'lyozmalari va fotografiyalarini to'plab kolleksiya tashkil qilgan⁷⁸.

Pragadagi Amaliy san'at muzeyi

Ko'pgina sayyohlar Pragaga kelib, uni tashqi ko'rinishidan zavq oladilar. Tor yo'lakchalar, naqshinkor uylar, qadimiy maydonlar insonlarga o'zgacha zavq ulashadi. Praga muzeylari u joylashgan binolardan ko'ra qiziqarliroqdir.

Amaliy san'at muzeyining tashqi ko'rinishi ham huddi boshqa bino-

⁷⁸ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010, 208 p.*

lar singari o'ziga e'tiborni jalb qilmay qo'ymaydi. Muzei binosi XIX asrda barpo etilgan bo'lib, ko'cha tomondan o'zining Renessans uslubidagi fasadlari bilan ajralib turadi. Bino ichiga kirganimizda, uning katta zallari, baland poydevorlari va o'zida milliylikni aks ettirib turgan naqshinkor shiftlari insonga zavq bag'ishlaydi. Bu muzei o'zining takrorlanmas ko'rinishda yaratilgan turli xil hunarmandchilik va amaliy san'at ekspozitsiyalari bilan boshqa muzeylardan ajralib turadi. Muzei turli xil mavzularga bag'ishlangan bir qator bo'limlarni o'z chiga oladi.

Muzeining birinchi bo'limi "Gulxanda" (ya'ni "Olovda tug'ilganlar") deb nomlanadi. Bu yerda shisha, chinni va sopolan tayyorlangan turli xil buyumlarni ko'rish mumkin. Bu bo'limda maxsus shisha pufakchalari ko'rgazmalari ham tashkil etib turiladi. Bundan tashqari, yana amaliy, grafik va fotogalereyani ham uchratish mumkin. Muzeidagi shisha buyumlari kolleksiyasi dunyodagi eng noyob kolleksiyalardan biridir.

Ikkinchi bo'lim – "Tola tarixi" deb nomlangan. Bu bo'lim boshqalaridan batamom farq qiladi. "Tola tarixi" bo'limida qadimgi massiv konstruksiyalar va qo'lda to'qilgan krujeva to'rlarini ko'rish mumkin. Bu bo'limda, bundan tashqari, liboslar va kashtachilik namunalari va zamonaviy dizaynerlarning yaratgan ishlari bilan ham yaqindan tanishish imkoniyati mavjud.

Keyingi bo'lim o'zining ajoyib nomi bilan ajralib turadi. Bunga asosiy sabab, uning "Vaqt mashinasi" nomi bilan atalishidir. Bu galereyada haqiqiy vaqt mashinalari sifatida soatlar kolleksiyasi o'rin olgan. Muzeidan joy olgan turfa xil mexanizmlarni ko'rib, bevosita hayratga tushish hech gap emas. Qo'l va devoriy, katta va kichik, klassik va takrorlanmas uslubdagi bunday soatlarni boshqa hech qa-erda uchratmaysiz.

Oxirgi bo'lim "Bosma va g'aznachilik" deb nomlanadi. U metallar va materiallar galereyasini o'z ichiga oladi. Umumiy qilib aytganda, bu muzeidagi har bir bo'lim uning tarixida alohida bir vosita sifatida namoyon bo'libgina qolmay, uni yanada yuksalishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan⁷⁹.

⁷⁹ *Bulding National Museums in Europe 1750-2010*, 212 6.

Glossariy

Antik davr – qadimgi yunon va rim madaniyati davri.

Ajuda milliy saroyi – Portugaliya qirollik oilasining eng so‘nggi rezidensiyasi.

Ashmol muzey – ilmiy-ta’lim yo‘nalishidagi birinchi ingliz muzeyi, 1683-yilda Oksford universitetida ochildi.

Berlin suratlar galereyasi (nem. Berliner Gemäldegalerie) – mashhur suratlar galereyasi bo‘lib, Berlin Davlat muzeyi va Pruss madaniy meros Fondi tarkibidagi Yevropada ilg‘or badiiy muzeylardan biri.

Botrachento – Ilk Uyg‘onish davri (bu atama adabiyotlardagi italiyancha atama), (XV asr).

Vunderkamera – tabiatda uchraydigan noyob narsalar saqlanadigan kabinet.

Galereya – bu uzunchoq shakldagi zal bo‘lib, uning bir tomonida qator katta oynalar joylashgan. Bu xonaning yorug‘ligi, shinamligi va arxetektura qurilishi tomonidan qulayligi, haykaltaroshlik va rasomchilik namunalarini tarqatishda muhim ro‘l o‘ynagan.

Garderob – xazina yoki qimmatbaho buyumlar ombori sifatida qo‘llanilgan termin. O‘rta asrlarda bu termin nafaqat “kiyim saqlanadigan joy” ma’nosida, balki juda keng ma’noda ishlatilardi. “Roba” so‘zi barcha mulkka nisbatan ishlatilardi.

Gliptoteka – Myunxendagi qadimiy muzeylardan biri va Yevropada omma uchun ochilgan birinchi muzey.

Drezden galereyasi – “Qadimiy ustalar” suratlar galereyasi.

Kabinet – dastlab hujjatlar, taqinchoqlar, qimmatbaho buyumlarni saqlash juda qulay bo‘lgan tortmali qutilar va kichik javonlarga nisbatan ishlatilgan. Bunday konstruksiyada antik tangalar, gemmalar, zargarlik buyumlarini saqlash qulay bo‘lganligi uchun kolleksionerlarni o‘ziga jalb qilgan. Keyinchalik ushbu mebel bilan jihozlangan

xonalar ham kabinet deb atalgan (nemis tilida “kabinet” so‘ziga sinonim bo‘lib “kamera” so‘zi ishlatiladi).

Kolleksiya – san’at asarlari, ilmiy, badiiy, tarixiy yoki boshqa ahamiyatga ega bo‘lgan va ma’lum tartibda saqlanadigan bir xil buyumlar majmui.

Kop’e – Rim imperatorlari ramzi.

Kunskamera – nemischa so‘z bo‘lib, u tarixiy xarakterga ega bo‘lgan badiiy san’at, tabiiy ilmiy durdonalar kolleksiyalarining nomini hamda ularni saqlash joylarini bildiradi, san’at kabineti deb ataladi.

Madaniy meros – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma’naviy boyliklar majmui.

Metsenat – san’at homiysi. Qadimgi Rim davlatida imperator Avgust davrida yashagan Metsenat ismli badavlat shaxs nomidan olingan bu atama san’atga homiylik qiladigan odam ma’nosida kirgan.

Muzey to‘plami – barcha muzey kolleksiyasiga aytiladi. Muzey kolleksiyasiga nafaqat ilmiy tashkillashtirilgan barcha muzey predmetlari, balki ilmiy yordamchi materiallar hamda muzeyda saqlanadigan turli ilmiy axborot bilan ta’minlovchi vositalar, qisman arxiv va kutubxonalar kiradi.

Muzey – (yunon. museion- muzalarga bag‘ishlangan joy) tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va tashviq qilish ishlarini bajaruvchi ilm-ma’rifat muassasasi. Muzeyning ilmiy tashviqot va tarbiyaviy faoliyatining asosiy shakllari — ekspozitsiya, ko‘rgazmalar, ekskursiyadir.

Muzeografiya – (lot. grapho – yozmoq) muzeyni yaxlitligicha yoki biror bir yo‘nalishini tavsiflovchi nashr korpusi. U yoki bu nashr muzeografik turning mezoniga taalluqligi undagi muzey haqidagi mavjud ma’lumotlar tavsifiga bog‘liq. Muzeografiya nashrlariga: yo‘lko‘rsatkich, ma’lumotnomalar, hisobotlar va boshqalar kiradi.

Muzeyshunoslik – (muzeologiya) muzeylarning tarixi va ijtimoiy vazifalari, muzey ishining nazariyasi va uslubiyati.

Manuelin – tugab borayotgan romantizm, milliy bezak uslubi.

Madam Tyusso muzeyi – London shahrida joylashgan ushbu muzeyda 400 dan ortiq figuralar va portretlar joylashgan.

Myunskabinet – tanga va medallar saqlovchi kabinet.

Renessans – XVII-XVIII asrlarda Gʻarbiy Yevropada bu davr boshlanib, Uygʻonish davri deyilgan madaniy va maʼrifiy tafakkur yuksalish davri hisoblanadi.

Riznitsa – (riza) – cherkov xizmatchilari diniy marosim paytida kiyadigan libos. Mehrob yonidagi alohida xona yoki ibodatxonaga tutash boshqa bino, rohibxonalarda esa alohida bino ana shunday joy hisoblanadi.

Relikvari – muqaddas xoklar solinadigan maxsus idishlar. Ularni qimmatbaho metallardan, fil suyagidan, yogʻochdan ishlab, qimmatbaho toshlar, naqshlar bilan bezak berilgan.

Pinakoteka – qadimgi greklar oʻzlarining mashhur rangtasvir asarlari (pinaki - mum boʻyoqlarda yogʻoch yoki terakkota doskalariga ishlangan asar) joylashtirilgan xonalarni shunday deb atashgan. Shulardan eng mashhuri Afinadagi Akropolda joylashgan.

Praforma – muayyan konsepsiya asosida yaratilgan, maʼlum kodlashtirilgan axborotni tashuvchi hamda inson ongi va tuygʻulariga taʼsir koʻrsatuvchi bunday ibodatxonadagi makoniypredmetli muhitni ayrim tadqiqotchilar muzey ekspozitsiyasining ilk koʻrinishi deb hisoblashadi.

Prado muzeyi – bu rassomlik va haykaltaroshlik milliy muzeyi hisoblanadi. U 1819-yilda ispan qirolligi va ibodatxona kolleksiyasi sifatida tashkil topdi va omma uchun ochiq deb eʼlon qilindi.

Protorenessans – Uygʻonish arafasi davri (XIII-XV asrlar).

Studiola – antik davrda faqat kutubxonalar shunday nomlangan boʻlsa, XV asrga kelib, barcha noyob buyumlar toʻplamiga nisbatan ham qoʻllanilgan.

Skansen – shved tilidan olingan okop (chuqur) degan maʼnoni bildiradi (koʻchirilgan obyektlardan yaratilgan muzey).

Shatskamera – qimmatbaho toshlar va metallardan tayyorlangan buyumlar xazinasini.

Eksponent – o‘z asari, ishini namoyishga qo‘ygan shaxs, tashkilot, buyum, mulk, xazina egasi, ko‘rsatuvchi.

Ekspozitsiya – lotincha “expositio” so‘zidan olingan bo‘lib, “expono” — tomosha uchun ko‘rsatmoq, terib qo‘yish, “sitio” — ro‘yxatga olish, bayon etish ma‘nolarini anglatadi.

Ekspонат – tomosha uchun qo‘yilgan va muzey ekspozitsiyasining asosi hisoblangan muzey ashyosidir. Muzey eksponati sifatida asl ashyolar bilan bir qatorda qayta tiklovchi (model, maketlar va h.k.) va ilmiy ko‘makchi materiallar (xarita, sxema, jadval va matnlar) bo‘lishi mumkin.

Ekskursiya – ekskursovod boshchiligida jamoa bo‘lib muzey, ko‘rgazma va diqqatga sazovor yerlarni tanishtiruv, ilmiy va ta‘limiy-tarbiyaviy maqsadlarda ma‘lum bir yo‘nalish bo‘yicha tomosha qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Илалов И. Музееведение. – Т.: Мусика, 2006.
4. Юренева Т.Ю. Музееведение. – Москва: Академпроект, 2003.
2. Kuryazova D.T. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. — Т.: San’at, 2010.
3. Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. – М.: Высшая школа, 2004.
4. Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003.

Xorijiy adabiyotlar

1. Mark Walhimer. Muzeums 101. Printed in the United States of America. 2015.
2. Bulding National Museums in Europe 1750-2010. Linkoping. Sweden. 2011.
3. Paul Getty Trust. The first treatise on Museums. Samuel quicheberg’s Inscriptiiones 1565. Los Angeles. California. 2013.
4. Verlag Dr.Christian Muller-Straten Munich. Introduction to Muzeology - the European Approach. Munich. 1998.

Mundarija

Kirish. “Muzey” tushunchasi	3
Antik davr kolleksiyasi va kolleksionerlari	8
Yevropada O‘rta asrlarda kolleksiya yig‘ish	23
Uyg‘onish davri kabinet va galereyalari	35
Italiya muzeylari	55
Ispaniya muzeylari.....	78
Portugaliya muzeylari	93
Buyuk Britaniya muzeylari	101
Fransiya muzeylari	110
Germaniya muzeylari	119
Shvetsiya muzeylari	128
Polsha muzeylari	140
Chexiya davlati muzeylari	153
Glossariy	162
Foydalanilgan adabiyotlar	166

GANIYEVA CHAROS XASHIMOVNA

MUZEYSHUNOSLIK

(O'quv qo'llanma)

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2018

Muharrir: Sh. Aliyeva

Musahhihi: N. Hasanova

Kompyuterda

sahifalovchi: A. Qodirov

Barkamolfayz@mail.ru Nashr.lits. AIN^o284, 12.02.2016. Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2018. Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Sharti bosma tabog'i 10,5. Nashriyot bosma tabog'i 11. Tiraji 200. Buyurtma № 13.

«ZEBO YULDUZLARI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani,

Aviasozlar-4 34-uy 56-xonadon.

